

**Djamilova N.N.**

**MAKTABGACHA TA'LIMDA  
METODIKA FANLARINI  
O'QITISH TEXNOLOGIYASI**


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Djamilova N.N.**

**MAKTABGACHA TA‘LIMDA  
METODIKA FANLARINI  
O‘QITISH TEXNOLOGIYASI**

(O‘quv qo‘llanma)



926833

Toshkent – 2017

## **ANNOTATSIYA**

«Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi» fani yosh mutaxassislarni barkamol avlodni tarbiyalashdagi va ularni o'qituvchilik kasbiga tayyorlashning qoidalari va pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodlari, ish shakllari bilan qurollantiradi. Mazkur o'quv qo'llanma «Pedagogika» fakulteti 5111800- «Maktabgacha ta'lim» bakalavriat yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

p.f.n, dotsent D.R.Babayeva

p.f.n ,dotsent T.L.Xurvaliyeva

Mazkur o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Kengashi yig'ilishining  
2017 yil 28 sentyabrdagi 2-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEKNOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI</b>	
1.1.Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.....	6
1.2.Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining qonuniyatlari.....	9
<b>II BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEKNOLOGIYASI FANINING ASOSIY TAMOYILLARI.</b>	
2.1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy tamoyillari.....	14
<b>III BOB. Maktabgacha ta'limda metodika fani o'qituvchisining o'quv-meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash texnologiyasi.</b>	
3.1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasiga zamonaviy yondoshuvlar.....	23
3.2. DTS tuzilishi va mazmuni.....	28
3.3. O'quv rejasi, fan va ishchi dasturlarga qo'yiladigan talablar.....	31
3.4. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlardan o'quv-metodik komplekslar tayyorlash.....	33
<b>IV BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEKNOLOGIYASI FANIDA O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH</b>	
4.1. Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati.....	38
4.2. O'qitish metodlarining tasnifi.....	39
4.3. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarga qo'yiladigan talablar.....	42
4.4. Metodlarning turlari.....	42
<b>V BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>	
5.1. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari.....	48
5.2. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	51
5.3. Keys-stadi metodi.....	53
5.4. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarni turlari.....	60

**VI BOB. MAKTABGA CHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANIDA O'QITISH SHAKLLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

6.1. Ta'limning zamonaviy tashkiliy shakllari.....	67
6.2. Ma'ruza turlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	70
6.3. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi.....	80
6.4. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari mashg'ulotlarni loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.....	90

**VII BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISHDA TALABALARNI BILIMLARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI**

7.1. Talabalar bilimlarining reytingi.....	98
7.2. Talabalar bilimining baholashning reyting tizimi.....	101

**VIII BOB. MUSTAQIL TA'LIM VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI MAKTABGACHA TA'LIM FANLARIDAN KURS ISHI (LOYIHASI)NI TAYYORLASH METODIKASI BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH**

8.1. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish.....	105
8.2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanidan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi.....	107
8.3. Bitiruv malakaviy ishlarini yozish metodikasi. Rahbarlik qilish.....	110

**IX BOB. O'QUV VA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

9.1 O'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda maktabgacha metodika fanining imkoniyatlari.....	118
9.2 Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi.....	121

<b>Adabiyotlar.....</b>	<b>123</b>
<b>Glossariy.....</b>	<b>125</b>

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri xalqchil, insonparvar va madaniyatli jamiyat barpo qilishda, mustaqil davlatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ravnaqini ta'minlashda uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va obro' e'tiborini mustahkamlashda xalq ta'limi tizimi muassasalari faoliyatida – yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligini oshirishni eng zarur va kechiktirib bo'lmaydigan muhim omillardan deb hisoblaydi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangilash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik kasbga tayyorgarlikni o'ziga xos milliy, ilmiy-nazariy hamda amaliy tomonlari mavjudligi uni amalga oshirishda pedagogika fanining o'qitishni o'ziga xos va mos metodikasiga bog'liqdir.

Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanning maqsadi, vazifalari undagi dolzarb muammolar, tamoyillari, metodlari, o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ma'ruza, seminar va amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish metodikasi hamda o'qituvchini pedagogik mahorati haqida, talabalar bilimimi reyting nazorati haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga pedagogika fani o'qituvchisi uchun amaliy jihatdan foydalanish uchun metodik tavsiyalar ilovada berilgan.

# I BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALAR

## 1.1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlari**-maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi

Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularda ahlokiy fazilatlarini shakllantirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlash muammolarini o'rganadi.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlari** bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati-unga ta'lim berish va uni tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratadi.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlari** -ta'lim jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining vazifalari.** Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Maktabgacha pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi fanini maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlarning mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalarning mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya berish jarayonini nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1.Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

2.Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3.Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish.

4.Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

5.Maktabgacha ta'limdagi ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6.Bo'lg'usi tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya berish usullari bilan qurollantirish.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari.** Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochibberuvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Maktabgacha

metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Tarbiya**-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomoalama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Ta'lim**-o'quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

**Bilim**-shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma**-shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka**-muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ma'lumot**-ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Rivojlanish**-shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining boshqa fanlar bilan hog'likligi.** Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davming o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi.

1. Metodika – xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

2. Pedagogika tarixi – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

3. Pedagogik texnologiya–ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

4. Pedagogik mahorat-bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

5. Ta'limni boshqarish-ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

• **Pedagogik jarayon va uning tuzilishi.** Pedagogik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, **shu narsa** ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ochiqchasiga ta'lim va tarbiya qarama-qarshi qo'yilga boshladi: o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida



argumentlarni asoslashda ob'ektiv nuqtai nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F. Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita etishmaydi.

▪ Nemis pedagogi A. Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha".

▪ Pedagogik jarayonning yagonaligi g'oyasi K.D. Ushinskiy g'oyalari chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma'muriy, o'quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K. D. Ushinskiyning taraqqiyparvar g'oyalari uning izdoshlari: N.F. Bunakov, P.F. Lesgaft, K.B. Yelniskiy, V.P. Baxterov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

▪ Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug'ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko'ptomonlarga ham ichki, ham tashqi jihatlarni taxlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: "Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o'git va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlari, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yagona pedagogik jarayondir".

▪ XX asrning 70-yillarida Y.K. Babanskiy, B.S. Ilin, V.M. Korotov, B.V. Kraevskiy, B.T. Lixachev, Y.P. Sokolnikov va boshqalar yagona pedagogik jarayonga ilmiy qiziqish bilan qarashdi.

▪ Pedagogik jarayonning mohiyati tizimli metodologik yondashuv asosidagina zamonaviy mualliflar tomonidan ochib berildi. U pedagogik ob'ektlarni tizimlar sifatida qarashni taklif etadi, aynan: tarkibiy qismlarining tuzilishini, ular orasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash kabilarni o'zida jamlaydi.

▪ **Pedagogik jarayon** – pedagogik fanlarning eng muhim, asosiy kategoriyalaridan biri.

▪ **Pedagogik jarayon** tarbiyachilarning pedagogik faoliyati boshqaruvchilik roli tufayli faol hayotiy faoliyat natijasida bolaning o'zini-o'zi o'zgartirishining maqsadga yo'naltirilgan mazmundor, tashkiliy harakatidir.

▪ U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo'ladi hamda tarbiya qonuniyatlari, tarbiyachilarning ijodkorligi va ta'lim oluvchilarning yosh bilan bog'liq o'zgarishlari dinamikasiga asoslanadi.

▪ Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo'nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o'zaro harakatiga bog'liq bo'ladi.

▪ Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati-**yagonalik**, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati.

▪ **Yaxlitlik** asosiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

▪ Pedagogik jarayon-ko'plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig'indisidir. Unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari **birlashadi**.

▪ Pedagogik jarayonning umumiyligi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo'ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;
- undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;
- umumiy mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi.

▪ **Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o'zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin.** **Tuzilish** (struktura)—bu tarkibiy qism(element)larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo'yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o'zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

▪ **Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:**

- pedagog-tarbiyachilar;
- tarbiyalanuvchilar;
- tarbiyaviy shart-sharoitlar.

▪ **Jarayonning aniq maqsadli tarkibiy qismi** pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad – har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan – alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi.

▪ **Jarayonning aniq maqsadli tarkibiy qismi** pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad – har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan – alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi.

▪ **Mazmunli tarkibiy qism** umumiy maqsad bilan birga, xuddi shunday aniq vazifani qo'yadigan ma'noni aks ettiradi.

▪ **Faoliyatli tarkibiy qism** – jarayonni tashkil etish va boshqarishda busiz belgilangan natijalarga erishish mumkin bo'lmagan pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati va ularning hamkorligi. Mazkur tarkibiy qism pedagogik adabiyotlarda yana tashkiliy yoki tashkiliy-boshqaruvli deb ham nomlanadi.

▪ **Jarayonning natijali tarkibiy qismi** uni amalga oshishi samaradorligini aks ettiradi, qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda muvaffaqiyatli o'zgarishlarga olib kelish bilan xarakterlanadi.

## **1.2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining qonuniyatlari**

▪ **Pedagogik jarayon qonuniyatlari** – bu obyektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

▪ **Qonuniyatlar nima va pedagogik jarayonda qanday bog'langan, nima bilan u bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.**

▪ **Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko'plab turli tavsifiy aloqalar namoyon bo'ladi.**

▪ Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarning yagona tas-nifi mavjud emas. Shu sababli quyida mavjud tasniflardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

▪ **I. P. Podlasiy tasnifi bo'yicha:**

✓ Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o'ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

✓ Ta'lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning ko'ptomonlama o'zaro ta'sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

✓ Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash – faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

✓ Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning obyeksi (shaxs) bir paytning o'zida subyekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya'ni shaxs o'zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

✓ Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar – o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro harakatida kechadi.

✓ Bola tarbiyasi muvafaqqiyati to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo aloqalar-ning intensivligi va boyligiga bog'liq bo'ladi.

✓ Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati-ta'lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmatini uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog'liq bo'ladi.

✓ Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi qonuniyati – shaxs rivoji darajasi va sur'ati:

- irsiyat;
- tarbiya va o'quv muhiti;
- pedagogik ta'sir etish usul va vositalarining qo'llanishiga bog'liq bo'ladi.

✓ O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati–pedagogik ta'sirning samaradorligi:

• ta'lim oluvchilar va pedagoglar orasidagi qayta aloqalarning intensivligi;

• ta'lim oluvchilarga ko'rsatiladigan korreksiya ta'sirlarning asoslanganligi hamda xarakteri, qimmatiga bog'liq bo'ladi.

✓ Pedagogik jarayonda hissiyot, mantiqiylik va amaliyotning birligi qonuniyati – o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi:

- hissiy idrokning sifati va intensivligi;
- idrok etilganing mantiqiy anglanishi;
- anglanganing amaliy qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

✓ Tashqi (pedagogik) va ichki (bilish) faoliyatning birligi qonuniyati–pedagogik jarayonning samaradorligi:

• pedagogik faoliyatning sifati;

• tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv-tarbiyaviy faoliyatining sifati shart qilib qo'yadi.

▪ **M. Kodjaspirov bo'yicha:**

✓ Ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog'liqligi.

- ✓ Inson tabiati bilan bog‘langanlik qonuniyati:
- shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli;
- ta‘lim va tarbiyaning ta‘lim oluvchilarning yosh va individual o‘ziga xosliklariga bog‘liqligi.

- ✓ Tarbiyiv jarayon mohiyatining shartlanganlik qonuniyati:

- tarbiya, o‘qitish, ma‘lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi;
- o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqasi.

- M.Kodjaspirovning mazkur tasnifi Y.K.Babanskiyning tasnifiga juda yaqin.

Yagona pedagogik jarayonning qonuniyatlari, aynan akademik **Y.K.Babanskiy** tomonidan sodda va tushunarli ochib berilgan:

- ✓ Ta‘lim va tarbiya jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liq holda amalga oshadi.

- ✓ Tarbiya, o‘qitish, ma‘lumot va rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi qonuniyati.

- ✓ Tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning birligi qonuniyati.

- ✓ Ta‘lim va tarbiya jarayonida muloqotning hal qiluvchilik roli qonuniyati.

- ✓ Pedagogik jarayonda ta‘lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

- ✓ Pedagogik jarayonda jamoa va shaxsning o‘zaro aloqadorlik qonuniyati.

- ✓ Pedagogik jarayon vazifalari, shakllari, metodlarining o‘zaro aloqadorlik qonuniyati.

- Yagona pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba‘zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e‘tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, qonuniyatlar obyektiv, eng muhim, barqaror, o‘zgarishda, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar (prinsiplar) deb ataymiz.

- Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o‘rganib chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko‘rish mumkin. Shu sababli biz quyida ko‘pchilik tomonidan tushunarli deb topilgan ikkita (Y.K.Babanskiy, B.T.Lixachev) tasnifini berishni ma‘qul deb topdik.

- **Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining Y.K.Babanskiy bo‘yicha tasnifi:**

- ✓ pedagogik jarayonning maqsadga yo‘naltirilganligi;

- ✓ ta‘lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;

- ✓ ta‘lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarlilik;

- ✓ tizimlilik va ketma-ketlik;

- ✓ onglilik, faollik, tashabhuskorlik, ta‘lim oluvchilarning ijodkorligi;

- ✓ ta‘lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;

- ✓ ta‘lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;

- ✓ ko‘rgazmalilik;

- ✓ ongli talabchanlik bilan birgalikda ta‘lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;

- ✓ ta‘lim va tarbiyaning qo‘lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;

- ✓ sababiylik, onglilik hamda ta‘lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;

✓ tarbiyaga kompleks yondashuv.

■ **B. T. Lixachev tasnifi:**

✓ o'quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo'nalganligi;

✓ ta'lim oluvchilar faoliyatining turli turlarining o'zaro harakatini tashkil etishga kompleks yondashuvni amalga oshirilishi;

✓ butun o'quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog'liqligi;

✓ ta'lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, jamoada ta'lim va tarbiya;

✓ ta'lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;

✓ ta'lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbus-korliklarini hisobga olish;

✓ barcha ta'lim oluvchilar hayotini estetizatsiyalash;

✓ ta'lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;

✓ ta'lim oluvchilarning bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag'batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg'otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;

✓ ta'lim oluvchilarda barcha turdagi fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;

✓ ko'rgazmalilik;

✓ tushunarlilik;

✓ sababiylik.

■ Umuman olganda, yagona pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdur. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.

2. Gnoseologik qonuniyatlar.

3. Psixologik qonuniyatlar.

4. Kibernetik qonuniyatlar.

5. Sotsiologik qonuniyatlar.

6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining shakllanish jarayoni pedagogika fanini o'quv predmeti sifatidagi rivoji bilan bog'liqdir.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi pedagogikani o'qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab tajribalar to'planadi ular umumlashtirilib, tizimlashtirilib boriladi. Ular asosida aloxida qoidalar va tamoyillar shakllantiriladi, o'qitishning ayrim masalalari bo'yicha metodik tavsiyalar yaratiladi.

Tajribalarni umumlashtirish asosida tadqiqotlar olib boriladi, ularni natijasida o'qitish metodikasining o'ziga xos qirralari aniqlanadi.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi bu nazariya va amaliyotning sintezidir.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi ta'limning tamoyillari va qoidalari, ta'lim shakllari va metodlarini asoslashga qaratiladi, bu esa bo'lajak o'qituvchilarni yuqori kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi.

Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi materiallarni tanlash va tizimlashtirishda ilmiy metodologiya asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya bu nazariy bilimlar tizimi, ilmiy tadqiqotlar asosiy, boshqaruvchi tamoyillarni belgilovchi, obyektiv borliqdagi hodisalarni ilmiy tahlil qilishni amalga oshirish vositasidir.

Pedagogik bilimlar metodologiyasi pedagogik nazariyani tuzilishi, tamoyillar, bilimni o'zlashtirish usullari bilan belgilanadi.

Pedagogik metodologiya o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Pedagogik bilimlarni tuzilishi va funksiyalari haqidagi ta'limot.
2. Fundamental, umumilmiy va pedagogik holatlar (nazariya, konsepsiya, gipoteza).
3. Pedagogik tadqiqotlar metodlari haqidagi ta'limot.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi pedagogik bilimlar sohasi bo'lib, pedagogikani umumiy va xususiy metodologiyasidan foydalanadi.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi pedagogikani fan sifatida va uni metodologiyasini jadal rivojlanish bosqichida shakllanadi. Bu esa maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanini predmeti bo'lgan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining maqsadi nima?
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining predmeti nima?
3. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining vazifalari?

## II BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEKNOLOGIYASI FANINING ASOSIY TAMOYILLARI

«Didaktika» grekcha so'z bo'lib, «o'qitish», «o'rgatuvchi» degan ma'nolarni anglatadi. «Didaktika» so'zining ma'naviy tarjimai «Ta'lim nazariyasi» demakdir. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim tamoyillarini, ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lim nazariyasining asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iboratdir. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Didaktika pedagogikaning sohasi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni yetkazishga oid uyushgan faoliyat qonuniyatlarini va ularni yosh avlod tomonidan o'zlashtirilishini o'rganadi. U o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishga oid normativ talablarni ishlab chiqadi.

Jamiyatning ijtimoiy ehtiyojiga, fan va ishlab chiqarishning hozirgi darajasiga tayanib, didaktika o'zining o'rganish predmetini ishlab chiqadi, o'qitishning maqsadi (nega o'qitiladi), yosh avlodni nimaga tayyorlanadi, o'qitishning mazmuni (nimaga o'rgatiladi), o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlari (qanday o'qitish) va uning natijalarini hisobga olish, nazorat qilish.


Didaktika asosini – ta'lim prinsiplari tashkil etadi.

**Prinsip** – rahbar g'oya, asosiy qoida, faoliyatga, xulqqa nisbatan qo'yilgan asosiy talabdir.

**Ta'lim prinsipi** – ta'lim jarayoniga quyiladigan asosiy talabdir.

1. Ta'limning tarbiyaviy xususiyatli prinsipi.
2. Ta'limning ilmiyligi prinsipi.
3. Ta'limning tizimlilik prinsipi.
4. Ta'limning tushinarlilik prinsipi.
5. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi.
6. Ta'limning ongliligi va faolligi prinsipi.
7. Ta'limning puxtaligi prinsipi.
8. Ta'limni alohidalashtirish prinsipi.

## Ta'lim prinsiplariga quyidagilar kiradi



**1. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati prinsipi.** Bu prinsip bir qancha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- material mazmunini Respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, mustaqil rivojlanish yo'lidagi muvaffaqiyatlari, xalqning mehnatidagi yutuqlari, hozirgi zamon fani va texnikasi hamda madaniyati bilan bog'lash;

-shaxsda ma'naviy fazilatlarini, intizomlilikni, qatiyatlilikni va mehnatsevarlikni tarbiyalash;

- ta'lim jarayonida hosil bo'ladigan hissiyotlar, kechinmalar va taassurotlarning hosil bo'lish jarayonini boshqarish;

- aqliy qobiliyatlarining rivojlantirilishi va shakllantirilishini amalga oshirish.

Bu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'ziga quyilgan quyidagi talablarga to'liq rioya qilishi kerak:

*Birinchidan.* O'quvchining dunyoqarashi, uning nuqtai nazari, e'tiqodi qanday shakllanishini bilishi kerak. O'quvchi faqatgina darslik doirasida o'ralib qolmasligi uchun, keng doirada fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirish zarur.

*Ikkinchidan.* O'quvchi shaxsining ma'naviy, mehnatsevarlik, nafosatilik fazilatlarini takomillashtirishda har bir darsning ahamiyatini tushuntirib borishi kerak.

*Uchinchidan.* O'quv jarayonida o'quvchilarda his -tuygularning paydo bo'lishi, yuzaga chiqishi va ifoda etilishini ta'minlash lozim.

*To'rtinchidan.* O'quvchilardagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishini ko'ra bilish va ularni takomillashishi uchun shart-sharoitlar yaratishi zarur.



Har bir o'qituvchi mashg'ulotni yuqorida aytilgan talablarga rioya qilgan holda tashkil etsa, ta'limning tarbiyaviy xususiyati maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirishda asosiy ta'sirchan omil bo'lishi amalga oshadi.

**2. Ta'limning ilmiylik prinsipi.** Bizni qurshab turgan borliqni bilish jarayoni murakkab, ziddiyatli bo'lishi, har-xil bosqichlarni, shakllar va turlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy bilish narsaning tashqi tasviridan uning ichki tuzilishini tasvirlashga o'tishidan iboratdir.

Ilmiy bilimlar qonuniyatlar sari, nazariya sari olib boradi.

Ilmiylik prinsipi ilmiy bilimlarning o'quv faoliyatidagi o'mini ochib beradi.

Agar o'quv materiali narsalarning faqat tashqi, kuzatiladigan xususiyatlarini yoritsa, bunday bilim ilmiylik darajasiga yetmagan bo'ladi.

Agar o'quv materialni bilan qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb atalardi. Ular o'quvchini aqliy rivojlantiradi. Faqat ana shunday bilimlardagina o'quv fanining ilmiy mazmunini o'zlashtirib olishga kelgusida esa fanni egallab, mehnatda faol ishtiroq etishga imkon beradi.

2. Ilmiylik prinsipini amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim.

- O'quvchilarni pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining eng so'nggi yangiliklari bilan tanishtirib borish.

- O'quvchilarga o'rgatilgan, berilgan har bir ilmiy tushuncha doimiy ravishda takrorlantirilib borishi zarur.

- Ilmiy bilish metodlaridan foydalangan holda, o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni o'stirish va ularni ijodiy ishga tayyorlash.

- Doimiy ravishda o'quvchilarni yetakchi olimlarni hayoti va ijodi va ilm-fanga qo'shgan hissasi bilan tanishtirib borish kerak.

- Dars jarayonida yangi ilmiy iboralardan foydalaning va eng so'ngi ilmiy kashfiyotlar haqida tushunchaga ega bo'ling.

- O'quvchilarni qidiruv-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlang. Ularni eng oddiy tajribalarni o'tkazish asoslari bilan tanishtiring.

**3. Ta'limning tizimlilik prinsipi.** Ta'limning tizimlilik prinsipi o'quvchilardagi ilmiy bilimlarni mustahkam va chuqur bo'lishiga asoslanadi. O'quvchilardagi atrof-muhit to'g'risidagi bilimlar, o'quv materiallari o'quv jarayonida ketma-ketlik asosida chuqurlashtirilib borilsagina ularda mantiqiy fikrlash rivojlanib boradi va ular o'quv materialini oson o'zlashtiradilar.

O'quvchi bilimlarining ilk manbaini, narsalarning, hodisalarning o'zaro munosabatlarini tasavvur eta bilishlari shart. O'quv materiali fanning maxsus ishlangan asoslari, qismlari, qoidalari, bo'linmalaridan iboratdir.

Fandagi bilimlarning maktabdagi o'quv materialiga asos qilib olinishini to'g'ri tushinib yetish shart. O'quvchi tomonidan materialni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirish usullariga bog'liqdir. O'qituvchining mahorati va yaxshi tayyorgarligi o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta va tizimli tarzda o'zlashtirishga asos bo'ladi.

Bir hildagi bilim turli xil metodlar, vositalar bilan berilishi mumkin. Bunda o'qituvchi tushuntirishning eng maqbul metodini tanlab oladi.

O'quvchilarga bilim berish ularning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan reja asosida amalga oshirilishi shart.

Har bir mashg'ulotda ta'lim tizimi mahsuldor bo'lishi kerakligidir. Bu demak, rejadagi bilimni chuqur o'rganish, fikrlash, xotirani, hissiyotni, tasavvurni tarbiyalash hamda o'quv faoliyati davomida paydo bo'lgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan xislatlarni hosil qilishdir.

Amaliy faoliyatga tizimlilik va ketma-ketlik prinsiplarini tadbiiq etishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishlari uchun dars jarayonida reja, sxema va jadvallardan foydalaning. O'quv materialini mantiqan tugallangan qismlarga ajrating va uni ketma-ketlik asosida ularga o'rgatib boring;

- darsda va dars rejasiga har tomonlama to'liq ochib beriladigan masalalarni kiriting;

- dars o'tish jarayonida dars mazmunini ketma-ketligini buzilishiga yo'l qo'ymang;

- ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlikdan foydalaning;

- ta'limda tizimlilik va ketma-ketlikni ta'manlash uchun o'tilgan mavzularni tez-tez takrorlab boring;

- takrorlashdan dars boshida o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va dars yakunida olingan ma'lumotni mustahkamlash maqsadida emas, balki dars davomida har bir qismini o'tib bo'lgandan so'ng ham foydalanish zarur;

- fanni bir bo'limini o'tib bo'lgandan so'ng umumlashtiruvchi va tizimga soluvchi dars o'tkazing;

- o'quvchilarni og'zaki javoblari va yozma ishlarida uchragan xatolarni doimiy ravishda xushmuomilalik va chidamlilik bilan to'g'rilab boring;

- dars davomida o'quvchilarni aqliy faolliklarini rivojlanish qonuniyatlariga, aqliy faollikni pasayishi va ko'tarilish jarayonlarini to'g'ri rejalashtiring;

- o'quvchilarga yangi bilimlarni ketma-ketlik tarzida o'rgating shundagina bu bilimlar o'quvchilar ongida mustahkamlanib boradi.

**4. Tushunarlilik prinsipi.** Tushunarlilik prinsipi o'quvchilarni yosh xususiyatlari qonuniyatlariga va o'quvchilarni rivojlanish darajalarini ta'limiy jarayonni tashkil etish va amalga oshirishga mos kelishiga asoslanadi.

Bolani fikirlash darajasiga, to'plagan bilimlari hajmiga, o'zlashtirgan malaka va ko'nikmalariga mos bo'lgan bilimlarga ularga tushunarli bo'ladi.

O'quvchilar olgan bilim, shakllangan ko'nikma va malakalar ularning rivojlanish darajasini belgilasa, shaxsiy tajribasi bilan isbot qilinish, amaliyotda qo'llansa u bilim tushunarli bo'ladi.

Yangi bilimni maktab o'quvchisining o'zida mavjud bo'lgan bilimlar va uning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash kerak.

O'quvchini fikrlash qobiliyatini shakllantirish kerak.

Bilimni tushunarli bo'lishga imkon beradigan shart sifatida bilishga qiziqish uyg'otish lozim.

O'rganilayotgan bilimlarning maktab o'quvchisi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati va zarurligini tushinib yetish kerak.

Tushunarlilik prinsipida yengildan-og'irga, aniqdan-noaniqqa, oddiydan-murakkablikka kabi qoidalarga rioya qilinadi.

Tushunarlilik prinsipini amalga oshirida quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

926833

- bola o'rgatiladigan va beriladigan bilimlar ularni yosh xususiyatlariga va har bir yoshda qabul qilish imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim;

- o'quvchini ongi va aqli belgilangan predmetni o'rganishga tayyorlangan bo'lishi lozim;

- o'quvchilarga ta'lim berishda ularni hayotiy tajribalarini, qiziqishlarini, rivojlanish xususiyatlarini o'rganing va ularni hisobga oling;

- ta'lim mazmuni va ulublarini tanlashda o'quvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oling;

- o'quv jarayonida kuchli o'quvchilarni bo'shashtirmaslik, o'rt va bo'sh o'quvchilarda tez harakatni o'stirish uchun hammaga mos bo'lgan dars o'tish sur'atini tanlash lozim;

- o'quvchilarda aniq bilimlar va malakalarni shakllantirishda pedagogika va psixologiyadagi eng so'nggi yangiliklardan foydalaning;

- yangi va murakkab materialni o'rganishga kuchli o'quvchilarni, o'quv materialini mustahkamlash uchun o'rt va bo'sh o'qiydigan o'quvchilarni jalb qiling;

- o'quvchilarga darsni tushunarli bo'lishi uchun tushunchalarni aniq ifoda eting, ayrim mavzularni tushuntirishda hayotiy misollardan, aniq ma'lumotlardan va adabiyotlardan foydalaning;

- ta'lim jarayonida nimani tushuntirish zarurligini, yoki nimalarni bolalarni o'zlari mustaqil o'zlashtirib bilib olishlarini his qiling;

- o'quvchilarni bilish faoliyatlariga boshqaring o'quvchilarni yangiliklarni topishga o'rgating;

- ta'lim jarayonini tushunarli bo'lishi uchun, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil tahlil qilishga yo'naltirishi kerak;

- ta'limni tushunarli bo'lishi bu ishchanlik bilan bog'liqdir.

Ishchanlikni rivojlantirish va mashq qildirish orqali o'quvchilarni uzoq davom etadigan fikriy faoliyatga o'rgatib boring.

**5. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi** Ko'rgazmalilik prinsipi – ta'lim jarayonida juda keng qo'llaniladi.

O'qitishning ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish, demak bu – ko'rgazmali qurollarga tayanish, o'quvchilar hissiy bilishining barcha jihatlariga rahbarlik qilish va boshqarishdir.

Maktab o'quvchilari uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanish rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Chunki ular umumlashtirish, tahlil va tahlildan xulosa chiqarish jarayonining shakllanishiga yordam beradi.

Ko'rgazmalilik prinsipi o'qituvchiga quyidagi talablarni qo'yadi.

- O'quvchi materialni o'rganish jarayonida hissiy obrazlarning zarurligini tushunishi kerak.

- Hissiy obrazlardan mashg'ulotda o'quvchilar rivojlanishining mustaqil sifati jihatida foydalanish hususiyatini aniqlash lozim.

- Mashg'ulotda hissiy bilimlar qaysi bir ko'rgazmali qurollar yoki texnikaviy vositalar yordamida shakllanishini hal qilishi kerak.

- O'quvchining bilish faoliyatida tabiatdagi majud narsalarni, hodisalarni tasavvur qilish qobiliyatiga erishish kerak.

- O'quv materiali narsalarni, hodisalarni umumlashgan tarzda tasavvur etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

- Bolalar shakllar, ranglar, his qilish orqali fikrlaydi, shuning uchun ko'rgazmali ta'lim ular uchun muhimdir.

- Ta'limda hech qachon faqatgina ko'rgazmalilikka suyanib qolmang u faqatgina o'kuvchilarda fikrlashni o'stirishga yordam beradigan vositadir.

- Ko'rgazmalilikdan faqat ko'rsatish uchun emas, balki o'kuvchilarni mustaqil bilim olishlarida ularni tadqiqot- izlanish ishlarini tashkil etishga o'rgatishda ham foydalaniladi.

- Ta'lim va tarbiya berishda shuni yodda tutinki, ko'rgazmali qurollar o'rganilayotgan predmet va hodisalar to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlarni hosil bo'lishiga yordam beradi.

- Ko'rgazmalilikda doimiy ravishda ketma-ketlikka rioya qiling.

- Ko'rgazmali vositalarni qo'llaganda bolalar bilan uni bir butunligiga, keyin esa asosiy va ikkinchi darajali tomonlarini ko'rish kerak.

- O'quvchilar bilan birgalikda ko'rgazmali qurol tayyorlashga harakat qiling.

- Hech qachon o'zangiz yaxshi bilmaydigan narsalarni ko'rsatmang, ko'rgazmali qurollarni puxta qilib ishiang.

- Zamonaviy ko'rgazmali qurollardan o'quv ko'rsatuvlari, videotasmalar, slaydlar, ta'limning texnik vositalaridan va ulardan foydalanish metodikasini bilish kerak.

- Ko'rgazmali vositalarni qo'llash orqali bolalarda diqqatni, kuzatuvchanlikni fikrlash madaniyatini, bilimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash mumkin.

- Ko'rgazmalilik kuchli ta'sir etuvchi vositadir, shuning uchun undan to'g'ri foydalanish zarur, agar undan noto'g'ri foydalanilsa o'quvchilarni asosiy vazifadan fikrlarini tarqatib yuborishi mumkin.

**6. Ta'limning ongilligi va faolligi prinsipi.** Bu ta'lim jarayonida asos qilib olingan qoida sifatida quyidagi uchta muhim jihatini o'z ichiga oladi:

- o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining ongli ravishda tushunilishi;

- o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lish;

- bilish faoliyatining shakllanishi.

1. O'rganiladigan bilimlar va muammoli vaziyatlarning o'rta qo'yilishidan boshlab, o'quvchilarning materialni ongli ravishda tushinishi boshlanadi.

Ayrim paytda o'quvchilar ta'lim mazmunini ongli ravishda o'zlashtira olmaydilar. Sababi ular o'kuv vazifasini hal etish lozim bo'lgan muammoli vaziyat deb qabul qilmaydilar, ya'ni, ular vazifani atroflicha o'ylab ko'rmadilar, faqat o'qituvchining aytgani bo'yicha nima qilish kerakligini yodlab olishadi.

Vazifani to'liq tushunib yetgachgina yechimini qidirib topish imkonini beradigan asosiy ma'lumotlarni aniqlab olish kerak.

O'quvchilar yangi mazmunga tegishli bo'lgan bilimlarni, maxorat va ko'nikmalarni esga olishadi, so'ngra yangi materialni o'zlashtirishga kirishadi. Ayrim hollarda o'quvchilar yangi bilimga tegishli o'tilgan temani qaytarmay, ongsiz ravishda yangi materiallarning yengil - yelpi o'zlashtirishga harakat qiladi. Bu o'zlashtirilgan yengil - yelpi bilimlar tez kunda o'quvchilarning xotirasidan chiqib ketadi.

O'rganilgan qoidalarni bilish, ularni tushuntira olish, yangi bilimlar asosida masalalarni yecha bilish, mashqlarni bajara bilish, o'rganilgan materiallarni mustaqil ravishda takrorlay olish; yangi temani o'zlashtirish uchun boshqa o'quv fanlardagi bilimlardan foydalana bilish, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay bilish va o'z bilimlarini davriy ravishda chuqurlashtirish juda muhimdir.

2. O'quvchilarning bilim olishga ongli munosabatda bo'lishi – bu o'quvchining maktabga, o'quv mashg'ulotlariga, o'rtloqlariga, o'quvchi sifatida o'ziga bo'lgan munosabati tushuniladi. Ongli munosabatni shakllantirish avvalo o'qitishning mazmuni va ta'lim berish metodlariga bog'liq. Mashg'ulot qiziqarli bo'lsagina o'quvchi o'qishga intilib turadi. Bu o'rinda ko'p narsa o'kituvchiga, uning ish uslubiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

3. Prinsipning uchinchi jihati o'quvchi va talabalarning bilish faolligini oshirishdir.

O'quvchi bilish faolligining darajasi turlicha bo'lishi mumkin:

*Eng yuksak daraja.* O'quvchi –talaba o'rganish maqsadida mustaqil ravishda mehnat qiladi. Uning darsga faolligi, mehnatsevarligi va bilimga tashnaligi oqibatida yuz beradi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi o'quvchi-talabaga o'kish vaqtini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi, unga aqliy faoliyatini rivojlantirishni qulay usullarini o'rgatishdan iboratdir.

*Yuksak daraja.* O'quvchi-talabalar materialni faollik bilan, lekin o'qituvchining rahbarligida ostida o'raniladilar. O'qituvchi ularga qiyinchiliklarni yengishda, qat'iyatli, irodali bo'lishda yordamlashgan holda ular faoliyatini yo'naltirib boradi.

*O'rtacha daraja.* O'quvchi-talabalar ta'lim mazmunini o'zlashtirib olishga intiladilar, lekin turli sabablarga ko'ra diqqat e'tiborsiz bo'lib qoladilar. O'qituvchi bu sabablarni aniqlashtirib, so'ngra ta'sir ko'rsatib faollikni oshiradi.

*Past daraja.* O'quvchi-talabalar ta'lim vazifasini anglaydilar, biroq ular o'qituvchining izohlariga, kitobga, amaliy mashg'ulotlarga, mustaqil ishlashga uzoq vaqtga qadar diqqatini qarata olmaydilar. O'qituvchi bunday o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish lozim.

*Eng past daraja.* O'quvchi –talaba vazifasi o'quvchi faoliyatini belgilamaydi. U materialni zarurat bo'lgani uchun o'zlashtiradi, ichki g'ayrat va omil tufayli emas, balki o'kituvchi, ota-onalar, kata yoshdagilar majbur qilganliklari sababli. Odatda bunday o'quvchilar mehnati samarasiz bo'ladi, ular alohida yondoshini talab qiladi.

O'qitishning ongliligi va faolligi prinsipi o'qituvchining oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

*Birinchiidan.* O'quvchilarning ongli ravishda tushunishini, ongli munosabatini va bilish faolligi darajasini bildiradigan belgilarni bilish kerak.

*Ikkinchiidan.* Materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan aqliy harakatlarni, fikrlash jarayonlarini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish kerak.

*Uchinchiidan.* O'qish sabablarini o'rganish va o'qish jarayonida o'quv mashg'ulotlariga, maktabga, o'qituvchilarga, o'rtloqlariga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'lishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan omillarni nazarda tutish kerak.

*To'rtinchiidan.* O'quv mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish jarayonida bilish faolligini oshirish vositalari va usullarini maxsus planlashtirish diqqat-e'tiborini, ishga qobiliyatlilikni shakllantirish shart.

**7. O'qitishning puxtaligi prinsipi.** Ta'lim berishning muxim vazifalaridan biri mustaqil bilim olishga, malaka va ko'nikmalar ta'sir qilishga erishishdan iboratdir.

Bilimlarni o'zlashtirishning puxtaligi quyidagi omillarga bog'liq:

- tushuntirishning ilmiyligi va tizimlilikligi,
- tushunishning ongliligi,
- o'quvchilarning bilish faolligi,
- o'qish sabablariga,
- kitoblarning sifatiga,
- o'qituvchining mahorati va h.k.

Ta'limning puxtaligi prinsipi o'quv jarayoniga nisbatan quyidagi talablarni qo'yadi:

*Birinchidan.* Mashg'ulot materialida asosiy fikrni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Mashg'ulotda takrorlash, tushuntirish, mustahkamlash asosiy qismlarini tashkil qiladi. Mashg'ulotda o'rganiladigan material nazariy qoidalardan, aniq ma'lumot, bayon va izohlardan iborat bo'lishi kerak.

*Ikkinchidan.* Nazariy bilimlarning asosiy fikr negizida guruhlanadigan, birlashadigan qismini yaxshi tasavvur etish kerak. Asosiy qoidalar bilim, ko'nikma va malakalarning shakillantiradigan bo'lsa, u xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi.

*Uchinchidan.* O'rganilayotgan materialning nuqtai nazarlari, e'tiqodlari, dunyoqarashi bilan bog'liqligi bilimlarini puxtaligini ancha oshiradi.

*To'rtinchidan.* O'quvchining bilim ko'nikma va malakalari amaliyot bilan bog'lansa, ya'ni, amalda qo'llanilsa ular mustahkam bo'ladi. O'quvchilarga olinayotgan bilimlarning amaliy ahamiyati, hayotda ularni qo'l kelishini tushintirish bu borada o'ta zarur.

**8. Ta'limni alohidalashtirish prinsipi.** Mashg'ulot olib borishning sinf – dars shakli mavjud, ya'ni bunda jamoa holda o'quv faoliyati tashkil qilinadi.

Ayrim o'quvchi-talabalar bunda tez o'zlashtirish qobiliyatiga, ayrimlari sekin o'zlashtirish qobiliyatiga egadir. Kimdir u fanga, kimdir boshqasiga qiziqadi. Bolalarning yosh xususiyati ham o'zlashtirishga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi.

Shu sabablarga asoslanib ta'lim berish darajalashtiriladi (differensialashtirish) va alohidalashtiriladi (individualashtirish).

Darajalashtirish ikki xil ma'noda bo'ladi:

Birinchidan, ta'limning mazmuniga nisbatan ijtimoiy talablarga, o'quvchilarning moyilligiga muvofiq darajalashtirilgan tarzda yondoshuv (alohida fanlar bo'yicha maktablar va boshqa tilda): Bunday yondoshuv individual qiziqishlardan, o'quvchilarning qobiliyatlaridan yaxshiroq foydalanishga yordam beradi;

Ikkinchidan, sinfni qobiliyatlar va o'qitish darajasi bo'yicha bir necha guruhlariga bo'linadi;

Qoloq va o'rta o'qiyotgan o'quvchilarga nisbatan alohida yondoshish talab qilinadi. Alohida yondoshish yordamida o'quvchilarda aqliy harakat va fikrlash jarayonlari shakllanadi.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalarning bilimini mustahkam o'zlashtirishlariga, bilim va malakani egallashlariga barcha ta'lim prinsiplarini – tushunarlilik, tizimlilik, ilmiyl

ik, ko'rgazmalilik, onglilik va o'quvchilar faoliyatini amaliyotga tadbiiq etish bilan erishiladi.

Yuqorida qayd etilgan prinsiplarning barchasi qamrovli (kompleks) tarzda qullanilmaydi. Ularning har biriga ijodiy tarzda yondashiladi.

Ta'lim prinsiplarni qo'llashda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish kerak.

1. O'qituvchi faqat bir ta'lim prinsipiga suyanmasligi kerak. Asosan ularning tartibiga, ilmiy asosl原因an maqasad tanlashga, metodlarni belgilashga va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish vositalarini ajratishga va o'kuv jarayomini tashkil qilishga e'tibor berish lozim.

2. O'qituvchi har bir prinsip va ularning tartibiga, asosiy qonunlar va qonuniyatlarini hayotga tatbiiq etuvchi, hoziri davr ta'lim konsepsiyasining negizi deb bilishi kerak.

3. O'qituvchi pedagogik jarayonning o'zaro ta'sir etuvchi qismlarini bilishi hamda ta'lim prinsipi qonuniyatlariga suyanan va pedagogik jarayonning uyg'unlikda bo'lishiga erishgan holda, qismlarning o'zaro ta'sirini tartibga solishi kerak.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ta'lim prinsipi deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogikada qanday prinsiplar tizimidan foydalaniladi?
3. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati prinsipining mohiyati nimada?
4. Ta'limning tizimlilik prinsipi mohiyati nimada?
5. Ta'limning ilmiylik prinsipi.
6. Ta'limning ko'rgazmalili prinsipi va unga qo'yiladigan talablar nima?
7. Ta'limning tushunarlilik prinsipini mohiyatini ochib bering?
8. Ta'limning ongliligi va faolliigi prinsipi va uning mohiyati?

### **III BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANI O'QITUVCHISINING O'QUV-MEYORIY HUJJATLARI VA METODIK ISHLARI, ULARNI REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**

#### **3. 1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasiga zamonaviy yondoshuvlar**

Ma'lumki, davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktikaning tarixiy va mantiqiy birlikning metodologik prinsipiga muvofiq ta'lim tizimi oldiga muayyan davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo'yadi.

Ta'lim jarayonini rejalashtirish professor-o'qituvchilar faoliyatining asosiy jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar vakuum ostida emas, balki ta'lim muassasining sharoitidan kelib chiqqan holda bajariladi. Professor-o'qituvchilardan albatta ular faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasasi madaniyatini, tashkilotning maqsadini va dunyoqarashini, intilishini, qadriyatlarini va xarakterini tushunishi kutiladi. Muassasaning madaniyati va qadriyatlari albatta o'quv dasturiga ta'sir ko'rsatadi.

Xorijdagi oliy ta'lim muassasalarining ko'pchiligi o'zlarining vazifalarini bajarishda talabalarga muassasa maqsadlari va bitiruvchi o'ziga xos xislatlari to'g'risida fikrini berib boradi. Mazmunan bu umumiy tushunchalarda mazkur universitetda tahsil berilayotgan kurslar va dasturlar bo'yicha talabaga kutilayotgan natijalarni beradi. Ushbu muassasa talablari albatta maxsus fanlar va fanlararo o'quv dasturlarida aks ettirilgan va belgilangan bo'lishi lozim.

Masalan, Oklend universitetida yaxshi hujjatlashtirilgan bitiruvchi profili mavjud bo'lib, unda qo'yidagilar ko'rsatiladi:

Oklend universitetida bakalavr yo'nalishida tahsil olib bitirgan talaba yuqori darajadagi bilimlarni egallab, ham mutaxassis bilimlariga, ham umumiy intellektual ko'nikmalarga va hayotiy tajribaga ega bo'ladi, va bu uning ishga joylashuvida, fuqarolik burchlarini bajarishda, shuningdek davomiy ta'lim olish va malakasini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruvchi profili talabaning tahsil olishida ham muassasa va ham dastur darajasidagi olinishi kutilayotgan natijalarni yaqqol ifodalab beradi. Shu sababli profil maxsus fanlarga asoslangan natijalar tavsiflari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun yo'riqnoma bo'lib hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning fakultetlar, maktablar va kafedralardagi roli ushbu maqsadlarga erishish uchun o'quv dasturlarini, o'qitish metodikasini va strategiyasini, pedagogik va ta'lim imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iborat (Maki, 2004). Ko'plab universitetlar Bitiruvchi profiliga yoki Bitiruvchi xislatlari tavsifiga ega yoki ularni ishlab chiqarmoqda.

O'quv dasturini ishlab chiqishda o'rganish natijalari yondashuvi hali yangiligicha qolmoqda, va ko'plab professor-o'qituvchilar boshida ushbu



yondashuvni ham xodimlar, ham talabalar uchun tushunarli va mazmunli tavsiflab berishda qiyinalishadi.<sup>1</sup>

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'lim ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'nalish deb belgilandi, oliy ta'limni joriy etishning metodologik va nazariy asosi bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da oliy ta'lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tarlagan va keyinchalik puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash kabi davlat buyurtmalari qo'yilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mazkur davlat va ijtimoiy buyurtmalardan oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishga qo'yiladigan maqsad va vazifalar shakllantiriladi.

Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitishda o'qituvchi mazkur buyurtmalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar:

- Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabavoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash, ma'rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlardan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion va axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish;

- Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitishda tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o'qitish jarayonini jadallashtirish;

- xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida maxsus ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash;

- Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlaridan ta'lim jarayonining o'quv-metodik majmualar va didaktik ta'minotning yangi avlodi silabusni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida maxsus ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida talaba-yoshlarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabavoshlar ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirish, ta'lim muassasalarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko'tarish;

- Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim va tarbiyani uzviylashtirish orqali talabalarning barkamolligini ta'minlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyenik ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

Bo'lajak pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishni bajarish lozim.

Mazkur buyurtmalar asosida oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim pedagogikasi turkum fanlarini o'qitishga zamonaviy yondoshuvlar mavjud:

---

<sup>1</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter IV: Planning teaching and learning Curriculum design and development, Lorraine Stefani, 41-57p.

1. Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayoniga tizimli yondoshuv;

2. Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayoniga modulli yondoshuv;

3. Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayoniga innovatsion yondoshuv;

4. Maktabgacha ta'lim metodikasi turkum fanlarini o'qitish jarayoniga talaba shaxsiga yo'naltirilgan yondoshuv.

Mazkur yondoshuvlarga xos xususiyatlarni aniqlash maktabgacha ta'lim pedagogikasi turkum fanlarini o'qitish metodikasining dolzarb muammolari sanalib, har biri mashg'ulotlar davomida alohida ko'rib chiqiladi.

Yuqorida qayd etilgan yondoshuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalo oliy ta'lim tizimida barcha o'quv fanlari, xususan maktabgacha ta'lim pedagogikasi turkum fanlaridan tashkil etiladigan o'qitish jarayonini ilmiy-nazariy asoslari bo'lgan o'qitish prinsiplari va qonuniyatlarini aniqlash lozim.

**Ta'lim mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar.** Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

1) umumiy nazariy bosqich;

2) o'quv bosqichi;

3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi meyoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limi mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari mazmunida namoyon bo'ladi.

O'quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o'quv rejasi.

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy meyoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalari ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi–meyoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikatini) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'llarning davomiyligi;

- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;

- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;

- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;

- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;

- praktikumlar, ishiab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O'quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o'quv muassasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

O'quv dasturi-muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi meyoriy hujjat.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;

- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;

- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;

- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;

- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;

- o'quv uskunolari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;

- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o'quv dasturlari Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.

O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta'limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quv fanlarini ilmiy bilimning

umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik nuayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqati nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayomida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) motivatsion vazifa-bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishgа pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

2) axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi-ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

4) muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

5) rivojlantiruvchi -tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatarni shakllantirishdan iborat;

6) o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiyisini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

### **3.2. Davlat ta'lim standartlarining tuzilishi va mazmuni**

**Davlat ta'lim standartlarining mazmuni.** Davlat ta'lim standarti umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim uchun alohida-alohida ishlab chiqarildi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligi saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab berdi. O'z navbatida kasb-hunar ta'limi, davlat ta'lim standarti o'quvchilar kasb-hunar tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yadigan (oliy ta'lim DTS talablar mutaxassislik tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan) majburiy minimal darajani belgilaydi.

DTS (davlat ta'lim standarti) ta'lim mazmuni shakllari vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar o'quv rejasi va boshqa mayoriy hujjatlarni yaratish uchu nasos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning DTS o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud ta'lim muassasalari manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng muhimi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

**Davlat ta'lim standarti.** Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1) turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standarti:

1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy meyoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «meyor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishlari mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Ushbu holatda, o'quvchi o'ziga mos keladigan ta'lim yo'lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o'z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirishga imkoniyatga ega bo'ladi. Shakli va mazmuni bo'yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o'quvchilarga va ularning ota-onalariga yetkaziladi.

Ta'limni standartlashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mukammal ravishda o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ta'limning ma'lum darajasini belgilash bilan amalga oshiriladi. Ammo "standart" termini o'zi ta'limga nisbatan yaqin davrlardan qo'llanila boshlangan. Davlat ta'lim standartlari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta'lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta'lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi.

Ta'lim standartini kiritishdan avval bunday majburiy qoidalar mavjud emas edi. O'zlashtirishning aniq belgilangan chegaralari yo'qligi XX asrning 80-yillarida ko'pchilik bitiruvchilarining haqiqiy bilim darajalari juda past bo'lishiga olib keldi.

Davlat ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1992 yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta'limi amaliyoti meyorlariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil) O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan so'ng ta'lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta'rifi.

2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlashi.

3. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya'ni o'quvchilarning o'quv tayyorgarliklari zarur bo'lgan minimal darajasiga talablar.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining "o'lchamidir", ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

DTSni, uning talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishdan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning DTS quyidagi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- DTS ni davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;
- umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlardagi birligi va yaxlitligi;
- umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya (ilg'or) texnologiya yutuqlariga tayanish;
- pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;
- ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida meyorlarni belgilash tajribalarida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o'quv reja ta'lim sohalarini meyorlash hamda ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining manimum hajmidagi miqdorini belgilaydi. Mazkur hujjat muayyan sinfda ma'lum o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Har bir sinf yakunida o'quvchilar tomondan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim (o'quv) predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv rejasi va dasturlarida o'z ifodasini topadi.

DTS (davlat ta'lim standarti) ta'lim mazmuni shakllari vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar o'quv rejasi va boshqa mayoriy hujjatlarni yaratish uchu nasos bo'lib xizmat qiladi DTSni, uning talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishdan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning DTS quyidagi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi:

DTS ni davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi

o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi

umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'lim mazmunining insonparvarligi

ta'lim mazmunining respublika'dagi barcha hududlardagi birligi va yaxlitligi

umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya (ilg'or) texnologiya yutuqlariga tayanish

pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi

ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida meyorlarni belgilash tajribalarida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish

### **3.3.O'quv rejasi va ishchi dasturlarga qo'yiladigan talablar.**

Oliy ta'limning o'quv-meyoriy xujjatlariga o'quv rejasi, o'quv dasturi va darstiklar kiradi.

O'quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va ishchi o'quv rejasi.

Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy meyoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Namunaviy o'quv reja tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi-meyoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikatini) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, semestrlar va ta'tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir kursda fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.



O'quv dasturi-muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish daraja-sini yorituvchi meyoriy hujjat.

O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;

- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;

- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlar hajmi;

- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;

- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;

- o'quv uskunalari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;

- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

**Mualliflik o'quv dasturlari** davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida **loyihalashtiriladi**. Bunday adabiyotlar sirasiga **darsliklar va o'quv qo'llanmalari** kiradi.

Namunaviy o'quv dasturlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayoni-ni metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

O'quv rejasi – barcha ta'lim muassasalarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv rejasi ishlab chiqiladi va tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi (Respublika xalq ta'limi yoki oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan). O'quv rejasi ta'lim muassasasi ma'muriyatig ayuboriladi hamda mazkur reja asosida o'quv jadvali tuziladi. O'quv jadvalida hafta davomida o'qitiladigan o'quv predmetlarining nomi va ularga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatilib, o'quv yurti direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

O'quv tarbiya ishining maqsadi, talabalarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotga qo'llay olishga o'rgatish.

O'quv dasturi ham xuddi o'quv rejasi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmetifanning mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, kasb-hunar yoki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir.

Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Tushuntirish xatida o'quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi aloqadorlik, materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari ko'rsatiladi. O'qitish (ta'lim) metodlari va vositalarini qo'llashga doir tavsiyalar beriladi.

Soatlar hisobini asosli o'rinlarda o'zgartirilishiga yo'l quyiladi.

Dastur materiali bo'limlar va mavzular bo'yicha taqsimlangan bo'lib, har bir mavzuni o'rganish uchun o'zlashtirishi majburiy bo'lgan tushunchalar tizimini, shuningdek, ko'nikma va malakalarning aniq ko'rsatkichi beriladi, nihoyat, o'quvchilarga qo'yiladigan yakuniy talablar bayon etiladi.

Dasturdagi material ta'lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.

O'quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatga egaligi.
2. Dastur mazmunining ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatga egaligi.
3. Nazariy g'oyalarning amaliyot bilan birligi.
4. Dastur mazmunining ijobiy-tarixiy xususiyatga egaligi va aniq bir g'oyaga asoslanganligi.
5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo'lishi.
6. O'quv predmetlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'lanishning mavjudligi.
7. Dasturi tayyorlashda o'quvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini inobatga olish.

O'quv rejasi va dasturi ta'lim muassasasi ma'muriyati, o'quvchilar jamoalarining

### **3.4. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlardan o'quv-metodik komplekslar tayyorlash.**

Maktabgacha ta'limda metodika turkum fanlari o'qituvchisi o'quv-meyoriy xujjatlar asosida o'zi o'qitadigan fani bo'yicha o'quv-metodik kompleks yaratadi. O'quv-metodik kompleks tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan bo'lib, bu tushunchalarning mohiyatini to'laroq anglash uchun ular tomonidan o'quv-metodik kompleksga berilgan ba'zi ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Y.E.Pichugina o'zining tadqiqot ishlarida quyidagicha ta'rif beradi: "**O'quv-metodik kompleks** – bu fanning o'quv maqsad va vazifalarini to'liq va samarali joriy etish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar, didaktik materiallar va o'qituvchi uchun metodik ko'rsatmalar majmuidir".

Y.K.Babanskiy o'quv-metodik kompleksni zamonaviy ta'limda o'quv-tarbiya masalalarini yechishga qaratilgan o'zaro organik bog'langan o'quv-metodik qo'llanmalar to'plami deb ta'riflaydi.

Bugungi kunda o'quv-metodik komplekslarida qo'yidagilar bo'lishi shart qilib qo'yilgan:

- o'quv va ishchi dasturlar,
- taqvim-mavzuiy reja,
- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'limning texnologik modeli va texnologik xaritasi,

- ma'ruza matnlari,

- seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalari,

- mustaqil ta'lim topshiriqlari,

- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati,

- prezentatsiyalar,

- nazorat va baholash uchun topshiriqlar,

- sillabus,

- fanni o'qitishga doir tashkiliy ko'rsatmalar

O'quv-metodik komplekslarni *ishlab chiqish vzifalari*:

1. O'quv-metodik ta'minotni tayyorlash.

2. Ishlab chiqarish, fan, texnika va ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan holda fan mazmunini tizimlashtirish.

3. Sifatli mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlovchi o'quv-metodik va boshqa materiallar bilan o'quv jarayonini ta'minlash.

4. Ta'lim jarayoniga faol usul va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

5. Talabalarning mustaqil ishlarini va ularning bilimlarini nazorat qilishni to'g'ri tashkillashtirish va rejalashtirish.

6. Elektron darslik, o'quv metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish uchun o'quv metodik materiallar ishlab chiqish.

7. O'quv jarayonini sifatini tizimli nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

O'quv-metodik komplekslar:

- talabalar tomonidan o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishni;

- talabalar bilimini nazorat qilishni;

- barcha turdagi mashg'ulotlarni tashkillashtirish bo'yicha metodik ta'minotni;

- qo'shimcha axborot ta'minotni *ta'minlashi kerak*.

O'quv jarayonida o'quv-metodik komplekslar:

- o'quv materialini o'zlashtirishda talabalarga amaliy va metodik yordam berish;

- fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkillashtirishda va o'tkazishda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;

- o'quv jarayonini metodik ta'minotini takomillashtirishda, uni baholash va rejalashtirishga asos *uchun zarur*

**Sillabus** (*lat. Syllabus Errorum* - «ikkilanishlar ro'yxati») - 1864 yilda Rim cherkovi tomonidan ishlab chiqilgan muhokama qilinadigan ta'limot va tamoyillar ro'yxati. Qadimda mazkur atama (*lat. syllabus* - katalog) Rim cherkovi tomonidan papa tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni kodifikatsiyalash uchun qo'llanilgan.

**Sillabus** – o‘qitiladigan fanning manbalarini, uning qisqacha mazmunini, mavzusi va har bir mashg‘ulotning davomiyligini, mustaqil ta‘lim topshiriqlarini, maslahat beradigan vaqtni, o‘qituvchining talablarini, baholash mezonlarini, oraliq nazorat jadvalini va adabiyotlar ro‘yxatini ko‘rsatib beradigan o‘quv dasturi.

**Sillabusning tarkibiy qismlari:**

1. Professor-o‘qituvchi haqida ma‘lumot.
2. Murojaat uchun ma‘lumotnoma.
3. Prerekvizitlar (Prerequisite).
4. Postrekvizitlar (Postrequisite).
5. Fanning qisqacha tavsifi.
6. Fanning maqsadi va vazifalari.
7. Fanni o‘rganishga qo‘yiladigan talablar.
8. Taqvim-mavzuiy reja.
9. Ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar rejasi.
10. Talabalarning mustaqil ishlarini o‘tkazish (konsultatsiya) rejasi.
11. Mustaqil ishlarni bajarish va topshirish jadvali.
12. Kurs ishi mavzulari banki.
13. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati.
14. Talabaning o‘quv ishlari natijalarini nazorat qilishga doir savollar.
15. Talabalarning bilimini baholash tizimi.
16. Talabaning reytingini belgilash shkalasi.
17. Yakuniy baholash tartibi.
18. Talabaning o‘quv natijalarining reyting-balli va an‘anaviy baholash tizimi.

Sillabusda nafaqat talaba o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan fanlar, imkoni boricha aniq mavzular, bilim va ko‘nikmalar ro‘yxati keltirilishi kerak.

Talabalarga o‘quv fanini mustaqil faoliyatda o‘rganish va bilimlar sifatini doimiy o‘zi tekshirishini tashkillashtirishda yordam berish uchun mo‘ljallangan.

**So‘z boshi. (O‘UM)** bu qismida, berilgan o‘quv fanini o‘rganishga kirishishida o‘qituvchini talabaga murojaati, (O‘UM) tuzilishi va uning mazmuniga qisqacha tavsifi beriladi.

**I Bo‘lim. O‘quv faniga kirish.** Quyidagi o‘quv ma‘lumotli materiallardan iborat:

- 1) o‘quv fanini o‘rganishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari;
- 2) Mutaxassislik bo‘yicha talabalar tomonidan fan mazmunini muhim o‘zlashtirish darajasiga davlat ta‘lim standartlarining talablari.
- 3) Fanning o‘quv dasturi: o‘quv vaqtning umumiy hajmi va uni mavzular va ish turlari bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatiladi, o‘quv fanining mavzuiy mazmuni izchillikda bayon etiladi.
- 4) Fan bo‘yicha nazorat shakli va reyting baholash.
- 5) Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati.
- 6) Fan bo‘yicha bilmilarni yakuniy tekshirish savollari.

**II Bo‘lim. O‘quv fani bo‘yicha reja-topshiriq va o‘quv-metodik materiallar to‘plami.** Berilgan o‘quv mashg‘uloti to‘g‘risida ma‘lumotni, jumladan ko‘zlanayotgan o‘quv natijalar, mustaqil ish uchun topshiriqlar; ularni bajarishni ta‘minlovchi o‘quv material va metodik tavsiyalar; o‘quv yutuqlarini o‘zi tekshirishi

uchun test, topshiriq va savollardan iborat. Talabani o'quv mashg'ulotiga mustaqil tayyorlanishida va o'quv jarayoni vaqtida uning mustaqil faoliyatini tashkiliy-didaktik ta'minlash vazifasini bajaradi. O'quv yutuqlarini doimiy o'zi nazorat qilishini ta'minlaydi.

**Fan bo'yicha glossariy** - asosiy toifa va atamalar lug'ati.

**O'quv fani bo'yicha talabani o'quv natijalarining yutuqlar varag'i**- talaba tomonidan reyting ballarni to'planishi to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi.

**O'quv fani bo'yicha talabaga mo'ljallangan o'quv-metodik kompleksni (O'UM) ishlab chiqishning yo'l va vositalari**

Talabani O'UM quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqilishi kerak:

- 1) o'quv ma'lumotining maqsadi, tuzilishi, mazmuni va hajmi,
- 2) talabaga DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda va o'quv rejasida belgilangan vaqtda ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi fan bo'yicha ta'lim texnologiyasi.

O'quv fani bo'yicha talabalar mustaqil faoliyatini tashkillashtirish uchun O'UM tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:

1. Reja - topshiriq - har bir o'quv mashg'uloti uchun tuziladi. Jadval ko'rinishida bajarilib, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- 1.1. mavzuning nomi, o'quv mashg'uloti shakli va turi.

- 1.2. O'quv mashg'ulotining tuzilishi olib borish rejasini.

- 1.3. O'quv mashg'uloti maqsadi.

- 1.4. Talabani o'quv faoliyati natijalari-ta'lim berish natijasida talaba bajarishi lozim bo'lgan harakatlar. Ular aniq va fe'llarda (...aytadi, ...sanab beradi, ... tasniflaydi va h.k) ifodalalanib, olingan natijalarni bir xil ma'noda va haqqoniy baholash, ularni belgilangan maqsadga mos kelishini aniqlash imkonini beradi.

- 1.5. Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq. Ular qisqa maslahat va ularni bajarish bo'yicha tavsiyanomalardan iborat bo'lgan-aytib berishlar bilan berilishi mumkin.

- 1.6. Nazorat shakli: Kuzatuv, o'quv topshiriqlarini bajarish, savol-javob shakli, test va boshq.

- 1.7. O'quv fan bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan, eng yuqori ball. O'quv fan bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan, haqiqiy ball.

2. O'quv-metodik materiallar o'quv mashg'uloti maqsadi va mazmunidan tashqari, ta'lim berish texnologiyasiga muvofiq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 2.1. O'quv materiallar: ma'ruzaning qisqa (tayanch) chizma va jadval ko'rinishidagi yozmalari.

- 2.2. O'quv guruhi uchun topshiriq, ularni bajarishning ko'rsatkich va baholash mezonlari.

- 2.3. Talabalar o'quv ish jarayonida amal qilishlari lozim bo'lgan axborot beruvchi materiallar: (aqliy hujum, guruhlarda ishlash) qoidasi; (esse, referat yozishga) talablar; (keys va boshq.) materiallar.

- 2.4. O'zini tekshirish uchun topshiriqlar (test, savol, topshiriq va mashqlar).

Joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan ko'zlanayotgan ta'limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o'zi baholashni ta'minlaydi. Oraliq va yakuniy nazoratning savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

O'quv-metodik materiallar hajmi chegaralanmaydi. Lekin ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli ramsiyashtirilgan bo'lishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisining o'quv-meyoriy hujjatlari.
2. DTS tuzilishi va mazmuni.
3. O'quv-rejasi va ishchi dasturlarga qo'yiladigan talablar.
4. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlardan o'quv-metodik komplekslar tayyorlash.
5. Ta'lim mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar.
6. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar.
7. Namunaviy o'quv dasturining mazmuni.
8. Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishi.
9. Mualliflik o'quv dasturlari.

## IV BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANIDA O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

### 4.1. Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi.

«Metod» yunoncha *metodos* so'zidan olingan bo'lib, «yo'l», tadiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir.<sup>2</sup>

Metodlar haqidagi fan metodologiya deb ataladi. Fanda nazariy va amaliy (emiirik) metodlar mavjud.

**Metod** — metod (yunoncha — aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat. Yunoncha so'z bo'lib, yo'l, axloq ma'nolarini bildiradi. Odatda, keng ma'noda qo'llaniladigan «metod» terminini kishilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum obyektini o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlari usullarini anglatadi.

Ta'lim jarayonidagi ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangidan-yangi usullarni metodlarni keltirib chiqaradi.

Metod tanlashda, albatta, ayrim o'quv predmetlarini o'ziga xos xususiyatlariga amal qilinmog'i lozim. Shu bilan birga ta'lim jarayonida ko'pchilik o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy o'qitish metodlari bilan birga ayrim o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilgan o'ziga xos xususiy metodlar va metodik yondashuvlar ham bor. Ayrim predmetlarni o'qitishda qo'llaniladigan xususiy metodlar umumiy o'qitish metodlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Ta'lim metodi o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

O'qituvchi insoniyat tajribasida to'plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo'lmagan bolaning ongi o'rtasida vositachilik rolini o'ynaydi.

Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini ta'lim olmasdan, o'qituvchisiz, mustaqil holda o'zi tizimli tarzda o'zlashtira olmaydi. O'qituvchining eng kata xizmati o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan yo'l, usul va priyomlarini belgilashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim metodi o'quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi T.: 2001y 5-j 613-6.

o'qituvchining o'quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog'liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga o'qituvchining ish usullari va o'quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Ta'lim metodlari o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy fikrlarni, ta'lim jarayonining mohiyati va tamoyillari to'g'ri anglash natijasidir.

Ta'lim metodlari o'quv materiali mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib va ilmiy tus olib boromoqda, shuning uchun ta'lim metodlari ilmiy bilishning mantiqi va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkonini beradi.

Ta'lim metodlari o'sayotgan organizmning anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik o'sishni hisobga olish kerakki, ta'limning ko'pgina jihatlari ish qobiliyati, charchash, ijodiy kayfiyat, jismoniy sog'liq, maktabdagi gijiyena sharoitlari aynan shu o'sishga bog'liqdir.

Ta'lim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi, pedagogik nazariyadan kelib chiqishi kerak, ammo, ta'lim metodlari amalda qo'llanilmasa, foydasiz bir narsaga aylanadi.

Amaliy yo'llanganligi ta'lim metodlarining eng muhim tomonlaridan biridir. Bu metodlarda pedagogik nazariya amaliyot bilan bevosita bog'langan. Nazariya qancha chuqur va ilmiy bo'lsa, ta'lim metodlari o'shancha samarali bo'ladi. Pedagogika fani o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

#### **4.2. O'qitish metodlarining tasnifi.**

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondoshish mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbai bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, YE.Y.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli, va hatto setraerdik farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:



1. Ogʻzaki metodlar (bilimlarni soʻz bilan bayon qilish, suhbat, darslik maʼlumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

2. Koʻrsatmali metodlar rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar.

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Bular maʼlum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, ularni doim ham aniq chegaralab boʻlmaydi.

Har bir oʻqitish metodining oʻz vazifasi bor. Adabiyotlarda oʻqitish metodlarining ragʻbatlantiruvchi (motivlashgan), taʼlimiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

Oʻqituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarni tanlashda aynan shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosda, masalan, ragʻbatlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniylash taʼlimning nazariy asoslarini koʻrishda yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga koʻra ijod uchun asos boʻladi. Oʻqitish metodlarini tasniylash oʻqituvchilar faoliyati oʻrtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga oʻqitish usullari va ikkinchi guruhga esa oʻqitish usullari kiradi. Quyida oʻqitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniylarni koʻrib chiqamiz.

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Ibn Sino, Burxoniddin Zarkujiylarning metodlari tasniylarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan boʻlib, ular koʻnikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, koʻrsatmalilik – tajriba, amaliy, nazariya bilan amaliyotni oʻzaro bogʻlash, izlanish metodlaridan iboratdir.

I.Y.Lerner va M.N.Skatkin oʻqitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish – rasmlar metodi;

- reproduktiv metod;

- muammoli bayon qilish metodi;

- qisman izlanish metodi;

- tadqiqot metodi.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovning tasnifi maʼlum turdagi darslarda qoʻyiladigan vazifalarga bogʻliqdir.

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya – tushuntirish, maʼruza, suhbatlar, koʻrsatmali qoʻllanmalarni namoyish etish.

2. Oʻquvchilarda koʻnikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, koʻnikma va malakalarni tekshirish – joriy kuzatishlar, ogʻzaki soʻrash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S.I.Perovskiy va YE.Y.Goland tasnifi: faol va passiv metodlarga boʻlish:

- agar oʻquvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);

- agar oʻquvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, maʼruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya). Bunday tasniylar maʼqul emas, chunki u oʻquvchilarning ongilligi va faolligi prinsipini buzadi.

Y.K.Babanskiyning tasnifi. Metodlarni uchta katta guruhga boʻlish:

- oʻquv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ularni rag'batlantirish va motivlashtirish;
- nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari (ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud). Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:
  - bilishga doir o'yimlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A.Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Y.K.Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

- yangi bilimlarni (o'qituvchining suzlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza metodlari);
- yangi bilimlar o'zlashtirilish, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yimlar, mashqlar;
- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;
- mustaqil ish.

S.P.Baranov o'z tasnifini guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'qituvchi mulohazalarning mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmunni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'qituvchining asosiy vazifasi – o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushumb olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qitishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va kontrol ishlar kiradi. O'qituvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining roli bolalarning o'qitishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qitishning tegishli metodlariga: axborot – umumlashtirish va ijrochilik tushuntirish va reproduktiv, instruktiv – amaliy va mahsulli – amaliy, tushuntirish – da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi. (L.N.Maxmutov).

Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbai mantiqan asoslar bo'yicha (N.M.Verzilin) bilimlar manbai va o'qituvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A.N.Aleksyuk, I.D.Zverev va boshqalar) baravar yondoshish eng ko'p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini: mantiqiy – mazmuniy, prosessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya, Suvorova, Lvov, Mavlonova va boshqalar).

**4. 3. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarga qo'yiladigan talablar.** Ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik usullarini, milliy istiqloq g'oyasiga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

Shu talab nuqtai nazaridan qaraganda, ta'lim metodi tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi, ya'mi bilimlarni o'zlashtirishgagina emas, balki ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalil bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim. Ana shunda o'qituvchi, bu metod bilan ishlashda qanday vazifalarni qo'yib, hal qilish mumkinligini va qanday vazifalarni amalga oshirib bo'lmasligini ko'ra oladi. Metodning ilmiyligi o'quvchilarning ravshan va aniq fikr yuritishini: materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi dalil-isbot va muhokamalarning maqsadi, vositalari, usullari, asosiy va ikkinchi darajali natijalarni ham bildiradi.

3. Ta'lim metodlarning tizimligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi. O'quv materialini o'rganishning har qanday alohida olingan usuli, garchi, shu darsda qo'llanish uchun juda qulay bo'lsa ham, o'qitishning boshqa metodlari bilan birga qo'llanilmaganda o'quvchilar aqlining o'sishiga uncha ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.


4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab – ularning tushunarli bo'lishidir. O'qitish yo'li o'quvchiga tushunarli va maqbul bo'lishi, o'quv materialini o'rganish usullari esa uning bilimlarni o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan muhim talabdir. Ta'lim metodlarini ta'limni ongli va faol shaklda olib borish tamoyili nuqtai nazaridan asoslash zarurligi ham muhim talablardan biridir. Bolaning o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishi, o'quv materiali mazmunini ongli ravishda tushunishi, undagi bilish faolligi va qiziqishining darajasi o'qituvchining tushuntirish metodlariga va bolalarning bilimlarni o'lashtirish usullariga bog'liq.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri bilimlarning asosli va puxta bo'lishidir. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. O'qituvchining tushuntirish va o'quvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

**Metodlarning turlari.** Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini o'zi uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali uzatish va axborotni (informasiyani) eshitish orqali qabul qilish metodlari, og'zaki metodlar, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari – ko'rgazmali metodlar; tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; o'quv axborotini amaliy mehnat harakati orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.


Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda amaliyotda keng qo'llanayotgan metodlarni, asosan quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.



O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi maktab ta'lim mazmunda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, mazkur metodga barcha o'quv predmetlari bo'yicha barcha sinflarda murojaat qilish mumkin.

Ushbu metod bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'p ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi quyidagi 5 turda qo'llaniladi.



**Hikoya qilish** o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid narsa, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir (bayon qilish 30-40 daqiqa bo'lishi mumkin). Hikoya qilish ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda keng qo'llaniladi.

Hikoya qilish davomida o'quvchilar passiv tinglovchi bo'lib, qolmasliklariga, aksincha, ular faollikni oshirish, diqqatni mavzuga safarbar qilish, hodisa va voqealar ustida fikr yuritish, fikr almashish maqsadida savollar berib borish, ko'rgazmali qurollardan foydalanishga e'tibor berish lozim.

**Ma'ruzada** o'tilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan, bir soatlik mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan to'liq bayon etadilar.

Ma'ruza, asosan yuqori o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Unda mavzu sidirg'asiga bayon qilinsa ham, boshqa o'quv materialining unsurlari bilan bir qatorda og'zaki bayon qilish metodining turlari – hikoya qilish, tushuntirishlardan ham foydalanish mumkin. Ma'ruza quyidagi talablar asosida tashkil etiladi:

1. Materialning ta'lim tizimi oldida turgan umumiy talablarni amalga oshirishga xizmat qilishga erishish.

2. Materialning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash, tarbiyaviy ta'sir vositalarini aniqlash.

3. Ma'ruza jrayonida o'quvchilarni mavzuga oid fan yangiliklari, kashfiyotlar bilan tanishtirib borish.

4. Bayon qilishda o'qituvchi nutqi yagona bilim manbai hisoblanadi, shu bois u ravon, tushumali, ifodaviy bo'lishi lozim.

5. Ma'ruza jarayonida o'quvchi uchun notanish bo'lgan so'z va iboralarga izoh berish, qoida va qonunlarning ta'rifi soda, ixcham va tushunarli bo'lishi kerak.

6. O'quvchi-talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan ta'riflarni yozib borishlari kerak.

O'quv materialini tushuntirish o'rganilayotgan hodisa, qonun, qoida yoki harakatning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. O'qituvchi muayyan bir predmetning u yoki bu mavzuga oid qonun-qoidalar qanchalik asosli ekanligini dalillar, misollar keltirish yo'li bilan isbotlab beradi.

**Suhbat metodi** ko'pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki bu metoda dars o'tilsa, u asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi.


O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi, shuningdek, o'quvchilar tomonidan yangi o'tilgan mavzu qanchalik tushunganlarini tekshirish maqsadida ham suhbat o'tkaziladi. Suhbat metodi bilan ish ko'rganda, mashg'ulotlarni tashkil qilish va uni olib borishda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rtaga tashlanishi kerak.


2. O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Barcha o'quvchilar javob berayotgan o'quvchini qunt bilag tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatish, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlash lozim.

**Darslik va kitob bilan ishlash** materialni og'zaki bayon qilish metodining asosiy turi bo'lib, maktab amaliyotida muhim o'rin tutadi. O'quv adabiyotlari bilan ishlash murakkab psixologik jarayonni o'z ichiga oladi. U ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan bayon qilingan bilimlarni, o'quv materiallarni kitob matnidan ko'rib, ongli idroq qilish faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Darslik va kitob bilan ishlash ikki yo'nalishda olib boriladi.




## Ko'rgazmalilik metodi



**Namoyish etish**, ekskursiya o'quvchilarining o'quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Namoyish etish metodi o'qituvchi tomonidan qilmayotgan ilmiy-nazariy bilimlarni o'quvchilar puxta o'zlashtirishlari uchun ularning sezgi organlari eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish, teri sezgilarining bir obyektga alohida-alohida yoki bir necha sezgi a'zolarini bir yo'la safarbar etish yo'li bilan olib boriladi.


Namoyish etish metodi mavzuning xususiyatiga ko'ra ikki yo'nalishda olib boriladi.



Mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lgan narsa-hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'tilayotgan mavzuning xususiyatiga ko'ra ekskursiya metodidan ham foydalaniladi. Ekskursiya metodi o'rganilayotgan voqea va hodisalarni tabiiy sharoitda yoki maxsus kuzatiladi.

Namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda o'quvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga egadir.

Amaliy mashg'ulotlar metodi quyidagilardan iboratdir.



**Mashq qildirish metodi**, asosan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo‘llay olish, tegishli ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Odatda, mashq qildirish deganda ilmiy bilim va ma‘lum bir ish – harakatni o‘zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali ravishda tashkil etilgan takrorlash tushuniladi.

Mashq qildirish metodi o‘quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. O‘quvchilarning o‘zlashtirgan ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish quyidagi talablarga amal chkilishi lozim:

1. Topshiriqning maqsadi o‘kuvchilarga aniq va ravshan tushuntirilgan bo‘lishi topshiriqning mazmuni va uni ishiash yo‘llari puxta uq‘tirilgan bo‘lishi lozim.

2. O‘quvchilar diqqati taqdim etilayotgan mashqqa jalb qilinishi, jamoaning va har bir o‘quvchining intilish va qiziqishlari hisobga olinishi lozim.

3. Topshiriq qat‘iy tizim va izchillikka ega bo‘lishi lozim.


4. Ma‘lum qoida yuzasidan o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar shu qoidaga oid boshqa mazmundagi topshiriqlarni bajarishda ham osonlika bilan qo‘llanilishi lozim.

Topshiriq o‘kuvchilarning faol faoliyatini ta‘minlaydigan bo‘lishi va mashqni, albatta, belgilangan vaqt ichida bajarish talab qilinishi kerak.

Mashq qildirish metodida o‘quvchilarning yozma ijodiy mashqlari alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek, ma‘lum mavzularda ma‘ruza tayyorlash, grafik ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Laboratoriya metodi** ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga atrofni o‘rab olgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o‘zgarishi va rivojlanishi qonuniyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o‘zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya metodidan, asosan maxsus fanlarni o‘qitishda, har bir fanni o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalaniladi. Laboratoriya mashg‘uloti xususiyatiga ko‘ra uch xil bo‘ladi.



Laboratoriya metodi asosida o'tiladigan mashg'ulot xususiyatiga qarab quyidagi shaklda tashkil qilinadi:

1. O'quvchilar bilan ommaviy mashg'ulotlar.
2. O'quvchilar bilan guruhli mashg'ulotlar.
3. Har bir o'quvchi bilan yakka tartibda mashg'ulotlar.

**Amaliy mashg'ulotlar metodi** o'quvchilarga umumiy texnika-ijodiy ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy metod bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Vosita muayyan o'qitish metodi yoki metodik usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallaridir. Ta'lim vositalari asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko'rsatmalik qurollar, ramziy belgilar, darslik o'quv qo'llanmalari, radio, televideniye va kompyuter na hokazolardan iborat bo'ladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ta'limiy metodlarning pedagogik mohiyati deganda nimani tushunasiz?
2. O'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar.
3. O'qitish metodlarining turlari.
4. Og'zaki metodlar va ularning turlari.
5. Ko'rsatmalilik metod iva ularning turlari.
6. Amaliy metodlar va ularning turlari.
7. O'qitish (ta'limiy) metodlarga berilgan tavsiflar.
8. Ta'limiy metodlarning ahamiyati.



## V BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

### 5.1. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari.

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishiab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan natijalarga erishishga bo'lgan chet el pedagogikasining yo'nalishiga aytiladi (M.Klarin. 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o'qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq "texnologiya" terminini hozirgi kunda juda keng tarqalgan bo'lib kelmoqda.

"Pedagogik texnologiya" so'z birligi – bu inglizcha an educational technology – "ta'lim texnologiyasi" iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana shu mazmunda "texnologiya" termin iva uning "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi", "ta'limda texnologiya" shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta'lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko'plab ifodalarga ega bo'ldi

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B. Blum, J. Koroll, P.Y.Galperii, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Taluzina, L.M.Fridman, Y.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib, sifatli, chiroyli, arzon mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj kuchayotgan bir sharoitda raqobatga bardosh bera oladigan texnologiyalami yaratish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassisلامي tayorlash ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardandir. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyati pedagogika Fani oldida kasb-xunar kollejlari o'quv faoliyatini texnologiyalashtirish va ularni tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish vazifasini qo'ydi.

Pedagogik texnologiya nazariyasi amerikalik psixolog olimlar – R.Gane va L.Briggslar pedagogik texnologiya asosida tayangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shaklini aniqlagan bo'lsalar, ingliz olimi A.Romishevskiy pedagogik texnologiya metodining o'ziga xos variantini ishiab chiqqan.

Amerikalik pedagog olimlar Bob Kizlik va F.S.Keller pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalari yagona ta'lim tizimining muayyan bosqichiga tatbiq etish borasida muhim ishlarni amalga oshirdilar va oliy o'quv yurtlari faoliyatiga pedagogik texnologiya usulini qo'lalshning individuallashtirilgan tizimini yaratdilar

Rus pedagog olimi V.Guzeyev pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalarini yanada boyitib, integral pedagogik texnologiya metodini ishlab chiqqan bo'lsa,

M.V.Klarin, V.P.Bespalko, V.Slastenin kabi olimlar rivojlangan mamlakatlarda shakllangan xorijiy tajribalar asosida pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalarni tahlil etish, tushunchalarini ilmiy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar.

L.A.Boykova, L.K.Grebenkina kabi olimlarning tadqiqotlarida pedagogik texnologiya nazariyasining pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish, pedagoglar mahoratini oshirishdagi ahamiyati kabi masalalar yoritilgan bo'lsa, taniqli rus olimi I.P.Ivanov jamoaviy-ijodiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasini yaratishga asosiy e'tiborni qaratdi.

Tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni o'rganish, ularning mazmunini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, bugungi kunga qadar yaratilgan manbalarda ta'lim jarayoni, uni samarali tashkil etish, ta'lim samaradorligini aniqlash kabi masalalar batafsil yoritilgan holda ta'lim jarayoni hamda uni texnologiyalashtirish borasida keng qo'lamli harakat amalga oshirilmagan. Rus pedagog olimlari N.YE.Shurkova, V.Y.Pityukov, A.P.Savchenko hamda YE.A.Osipovalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar yagona pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi dastlabki urinishlardan biri hisoblanadi.

So'ngi besh yil ichida ta'lim muassasalari faoliyatini texnologiyalashtirishning nazariy asoslarini yaratish sohasida O'zbekiston Respublikasida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, M.O.Ochilov, B.Farberman, N.Saidahmedov, U.Nishonaliyev, S.Y.Mahmudov, O'Q.Tolipov, K.Zaripov, H.Abdukarimov, U.Sattorov va boshqalar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalar, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish afzalliklarini o'rganish, shuningdek, muayyan o'quv yoki mutaxassislik fanlarini o'qitishni yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, Amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V.Zankov, T.Y.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakillar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning mahsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachyov), «Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P.Bespalko, «Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P.Volkov).

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakali va metodik yig'indisi» (V.M.Shepel), «Pedagogik texnologiya – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyixalashtirish, tashkil va o'tkazish bo'yicha pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan

modelidir» (V.M.Monaxov), «Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jixozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Klarin), «Pedagogik texnologiya – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta‘riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi» (G.K.Selevko, «Pedagogik *texnologiya* – bu ta‘lim shakillarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning bigalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO), Pedagogik texnologiyaga o‘ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishishdir.

Pedagogik texnologiya haqida tushuncha

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko‘plab ishlab chiqarish sohalarni texnologiyalashtirishga sabab bo‘lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohasiga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta‘lim sohasida ham.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta‘limda ko‘zlangan natijalarga erishishga bo‘lgan chet el pedagogikasining yo‘nalishiga aytiladi (M.Klarin. 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o‘qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq “texnologiya” termini hozirgi kunda juda keng tarqalgan bo‘lib kelmoqda.

“Pedagogik texnologiya” so‘z birligi – bu inglizcha an educational technology – “ta‘lim texnologiyasi” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termin iva uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta‘lim texnologiyasi”, “ta‘limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta‘lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldi (uch yuzdan ortiq).

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1. Texnologiya – bu biro-bir ishda, mahoratda, san‘atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plamidir (talqinli lug‘at).

2. Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P.Bespalko).

3. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P.Volkov).

4. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T.Lixachev).

5. Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim shakllarini optimallashtirish masalani qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlar o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilash sistemali yondoshishidir (YUNESKO).

6. Texnologiya – bu san’at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to’plami, holatini o’zgartirishdir (V.M.Shepel).

7. O’qtishi texnologiyasi - bu o’quvchilar va o’qituvchilar uchun so’zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o’quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish olib borish bo’yicha har tomonlama o’ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M.Monaxov).

8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T.Sakamoto).

9. Pedagogik texnologiya – o’quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o’zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E.Bistereki va J.Seller).

10. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to’plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

11. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim maqsadiga erishishga qaratilgan o’qituvchi va quvchining faoliyatini sistemali, koseptual, qoidali, obyektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A.Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlar egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta’minlashshni taxlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulimi, odamlar, g’oyalar, vositalarni o’z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir. (Pedagogik kommunikasiyalar va texnologiyalar bo’yicha AQSH assosiasiyasi).

## **5.2. Ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish.**

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib boromoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsan, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o’quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o’quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egallarini tayyorlashda zamonaviy o’qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning o’mi va roli bemihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o’quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

**Innovasiya** (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat

pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:


- o'quvchi -talabning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi -talabarni o'quv jarayomida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi -talabning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayomida o'quvchi – talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabning ehtiyojidan kelib chikkanholda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.



Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchi-talabning maqsadli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi,

guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, massalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu darayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSONi, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va extiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

**Interfaol metodlar:** diskussiya, trening va o'yinlar.

Hozirgi kunda bu metodlarning o'qitish shakllari va usullari bilan birlashtirilgan modifikatsiyalari (o'zgartirish) foydalaniladi. Masalan:

- 1) leksiya-diskussiya;
- 2) treninglar;
- 3) keys-stadi;
- 4) «ochiq javoblar bilan» muhokama;
- 5) «yakunlanmagan xulosa bilan» suhbatlashish;
- 6) juft bo'lib yoki kichik guruhlarda ishlash;
- 7) «aqliy xujum»;
- 8) bellashuv;
- 9) grafik-organayzerlar;
- 10) qoida bo'yicha va qoidasiz o'yin;
- 11) o'zining loyihalarini reklama qilish.

### 5.3. Keys-stadi metodi

**Keys-stadi** inglizcha sase-anii vaziyat, stadi-ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, anii vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida anii qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihlatni o'zida aks ettiradi.

**Keys-texnologiyasini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatning bosqichlari:**

**Tayyorgarlik bosqichi:**

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruksiyalash faoliyatini o'z ichiga olib, o'qituvchi harakatlarning quyidagi izchilligi bilan bog'liq bo'ladi:

- keysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);
- ta'lim texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;

-o'quvchilarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishiashi uchun o'quv va uslubiy ta'minotni ishlab chiqadi.

### **Asosiy bosqich: keys-texnologiyasini amalga oshirish:**

#### *O'qituvchi harakatlarining izchilligi:*

-Ishchi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg'ulot mustaqil ish o'quv amaliyoti).

-O'quv mashg'uloti maqsadini oydinlashtiradi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

-Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlaydi.

#### **Tahliliy, baholovchi bosqich:**

Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxonada xodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o'qituvchi-keysologning keysning ta'limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning ikkinchi usulidir.

#### **O'quvchilar tomonidan keysni yechish bosqichlari:**

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

**Birinchi bosqich** – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish. *O'quvchi mustaqil ravishda:*

1) keys materiallari bilan tanishadi;  
2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;  
3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;

4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

**Ikkinchi bosqich** – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash. *O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:*

1) guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

2) yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

3) muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida an'anaviy va zamonaviy metodlarni tanlashi-bu ularning o'zaro almashinuvini (chog'ishtirishni) vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvofiqlashtirish demakdir. Natijada talabalarning aqliy va amaliy faoliyatining yuqori darajasini yaratishga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit holda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishni rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni **faollashtirishga** olib keladi.

O'qitish faoliyatining har qanday bosqichida har doim bir nechta metodlar qo'llaniladi. Faqat bir-ikki metod, yoki og'zaki, yoki ko'rgazmali, yoki amaliy metod qo'llanilishi mumkin emas. Aslida bu metodlar o'qitishning muayyan aktida jamuljam chog'ishtiriladi.

Masalan: mavzu mazmunining imkoniyatlarini hisobga olib bosh vazifa **o'quv-bilish faoliyati** ko'nikmalarini shakllantirish, o'qishda mustaqillikni rivojlantirish bo'lsa, unda biz birinchi galda boshqa metodlar yordamida joriy etiladigan **evristik** (izlanuvchanlik) metodlarini qo'llay-miz.

Interfaol metod nechog'lik o'qitishning muayyan aktini tavsiflansa, u shunchalik ko'p o'qitish samarasini ta'minlaydi. Masalan, pedagog asosiy metod sifatida **"savol-javob"**ni tanlaydi va uni o'tkazish mantiqini quradi, shuningdek savol-javob davomida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun **"klaster"** dan foydalanadi, bu esa kutilgan samarani beradi.

Interfaol o'qitish metodlarlarini tanlashning keyingi muhim sharti ularni eng maqbul chog'ishtirish **mezonlarini** hisobga olishni taqazo etadi.

1. Interfaol metodlarni tanlash mezonlari ularning **ta'lim-tarbiyaviy rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori** yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarning u yoki bu doiradagi vazifalarini yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

Interfaol metodlarning barchasi o'quvchilarning fikrlash mustaqilligini ta'minlaydi, o'qitishda bir qoliplikni va andozalikni yo'qotadi, o'quv materiallarini egallashda nazariy bilimlarning rolini birmuncha oshiradi.

2. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim **mazmuni xususiyatlariga mos kelishidir. Metod mazmunining harakatlanish** shakli (Gegel) sifatida ham aniqlanadi. Bir metod yordamida mavzuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijodiy o'zlashtirishga imkon to'g'diradi, uchinchi-bu mazmun uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin.

Interfaol metodlarning **ro'yobga chiqarish** shakllari joriy etish vositalari kabi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, **aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, ajurli arra, menyular** og'zaki so'z, darslik o'qish, kino yoki televideniye, boshqa tasviriy vositalar orqali amalga oshirilsa, **klaster, sinkveyn, o'z o'ringni top** kabi metodlar o'qituvchining oldindan ko'rsatib bergan faoliyat usullarini takrorlashini taqazo etadi.

3. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning **o'quvchilar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishidir**, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarning birligini ta'minlashdir. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, real o'quv imkoniyatlarini o'rganishda quyidagi shartlarni



aniqlashtirish kerak bo'ladi: o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga tayyorgarligi (o'quv ishlarini rejalashtirish, mashg'ulot maqsadi va vazifalarini to'liq belgilab olish ko'nikmasi, o'z-o'zini nazorat, teskari aloqa o'rnatish va qo'shimcha didaktik jarayonni qurish); o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarligi (fikrlash mustaqilligi, o'quv materialidagi asosiy g'oyani ilg'ab olish ko'nikmasi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topish ko'nikmasi); o'qishga munosabat va boshqalar.

4. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda **pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi** lozim. Darsning didaktik maqsadlariga turli metodlardan, ularning o'zaro birikuvidan oqilona foydalanish evaziga erishish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, metodlar kompensatorlik (biri yo'l qo'yg'an kamchilik boshqasi evaziga yo'qotiladi, ya'ni meyorlanadi) imkoniyatlariga ega.

5. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan yana biri – **ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir**. O'qitishning yalpi (frontal), guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Masalan, **debat** metodi ikki o'quvchi (yoki ikki guruhcha) o'rtasidagi bahs hisoblansa, **"aqliy hujum"**da guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtiroki zarur bo'ladi. Shuningdek, bu mezon mavzuning murakkablik darajasiga mos holda shakl va metodning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga yo'naltiriladi.

6. Interfaol metodlarning pedagogik texnologiya prinsiplariga mos kelishi **umumlashtiruvchi mezon** hisoblanadi.

Shunday qilib, o'qitishda an'anaviy va zamonoviy uslublar (metodlar) mutonasib-ligini ta'minlash uchun pedagogdan na faqat fanini va uning metodikasini yaxshi bilish talab etiladi. Balki, zamonoviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib borishi, mutaxassisligi bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni va chet el tajribalarini ham o'rganib borish zarur bo'lgan majburiyati yuklatiladi.

**O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarga qo'yiladigan talablar.** Ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik usullarini, milliy istiqlol g'oyasiga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

Shu talab nuqtai nazaridan qaraganda, ta'lim metodi tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishgagina emas, balki ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim. Ana shunda o'qituvchi, bu metod bilan ishlashda qanday vazifalarni qo'yib, hal qilish mumkinligini va qanday vazifalarni amalga oshirib bo'lmasligini ko'ra oladi. Metodning ilmiyligi o'quvchilarning ravshan va aniq fikr yuritishini: materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi dalil-isbot va muhokamalarning maqsadi, vositalari, usullari, asosiy va ikkinchi darajali natijalarni ham bildiradi.

3. Ta'lim metodlarning tizimlilik ularning samaradorlik darajasini belgilaydi. O'quv materialini o'rganishning har qanday alohida olingan usuli, garchi, shu darsda qo'llanish uchun juda qulay bo'lsa ham, o'qitishning boshqa metodlari bilan birga qo'llanilmaganda o'quvchilar aqlining o'sishiga uncha ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab – ularning tushunarli bo'lishidir. O'qitish yo'li o'quvchiga tushunarli va maqbul bo'lishi, o'quv materialini o'rganish usullari esa uning bilimlarni o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan muhim talabdir. Ta'lim metodlarini ta'limni ongli va faol shaklda olib borish tamoyili nuqtai nazaridan asoslash zarurligi ham muhim talablardan biridir. Bolaning o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishi, o'quv materiali mazmunini ongli ravishda tushunishi, undagi bilish faolligi va qiziqishining darajasi o'qituvchining tushuntirish metodlariga va bolalarning bilimlarni o'lashtirish usullariga bog'liq.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri bilimlarning asosli va puxta bo'lishidir. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. O'qituvchining tushuntirish va o'quvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar. Usullarni bilishi kerak bo'ladi. Xar bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik kartasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayomining barcha qirralari o'z aksini topadi.

## Texnologik karta

Mavzu:	
Maqsad, vazifalar	
O'quv jarayonining mazmuni	
O'quv jarayomini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Metod: Og'zaki bayon qilish, suhbat-munozara.</p> <p>Forma: Amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishlash.</p> <p>Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, ariza, ma'lumotnoma, xabarnoma bialkalari.</p> <p>Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli sistema asosida.</p>
Kutiladigan natijalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <p>- Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir vaqtning o'pchilik talabalarni baholaydi. Uz oldinga qo'ygan maqsadlariga erishadi.</p> <p><b>O'quvchi-talaba:</b></p> <p>Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishiashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <p>Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O'quvchi-talaba:</b></p> <p>Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, ularni o'rganish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish.</p>

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetni yaxlit xolda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani o'quvchi-talabaning imkoniyati, extiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

**Ta'limning interfaol metodlari.** Inter ingliz tilidagi «inter» old qo'shimchasidan iborat bo'lib, u torn ma'noda o'zaro ta'sir, yo'nalganlik ma'nosini anglatadi. Bu yerda inter so'zi keng doirada, xalqaro miqyosdagi ta'sir, harakat, yo'nalganlik mazmuniga ega. Interfaol atamasiga kelsak, u «interactive» ya'ni keng xalqaro miqyosdagi harakat faolligini bildiradi. Lotincha inter so'zining ma'nosi – ichki potensial imkoniy quvvat degani.

Ma'lumki, har bir inson o'z ichki imkoniy quvvatiga va o'zgalarda qaytarilmas fazilatga ega.

Interaktiv usul tarbiya nuqtai nazaridan, har bir kishim ruhiy, ilohiy tavsifini ko'zda tutgan hoda, xalqaro miqyosdagi ta'lim – tarbiya yangiliklarni hamda ma'naviy manbalarimizdagi aks ettirilgan intellektual salohiyatimiz ko'nikmalari asoslanib komil farzand tarbiyalash demakdir.

G'arbda pedagogikaning interfaol metodlari bilan shug'ullanadigan qismini interaktiv pedagogika deb ham yuritiladi.

Interaktiv pedagogika yoshlarni talabalarni faolliklari xilma-xilligini hamkorligi, hayrihohligi asosida ularni yangi faollik, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka undovchi pedagogika bo'lib, talabalarga bunday sifatlar ular erkin fikrlash asoslarini egallaganlaridan keyin shakllana boshlaydi, rivojlanadi.

Interaktiv pedagogika yangi ta'lim asosida ta'lim-tarbiyaning hamma shakllarida joriy etilmoqda. Masalan, ma'ruzalarda, interaktiv pedagogikaning munozara, muomalalar muhokamasi, aqliy xujum, baxslar kabi usullaridan keng foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa seminar, og'zaki, yozma kolokviumlar, referatlar muhokamasi, faol eksperiment, amaliy o'rinlar metodlaridan keng foydalanilmoqda. Ammo shunga qaramay. G'arb davlatlaridan bizga interaktiv pedagogikaning bir qancha karorlar shajarasi. Ajurli arra, Snejniy kom, tajribalar, tadbirlar hamkorligi kabi metodlari kabi metodlari kirib keldi.

Inson imkoniyatlarining yana bir mo'jizaviy tomoni shundan iboratki, har bir kishi nodir va betakror bo'lishi bilan birga u ijtimoiylikka muxtoj qilib yaratilgan. Ya'ni xatto har bir qobiliyatli kishi o'z aqliy-amaliy imkoniyatlaridan optimal foydalanganda ham intellektual imkoniyatlarini faqat – 4-5% ini ishga sola oladi. Shuning uchun kishilarning qiziqishi, qobiliyatlar yo'nalishi turlicha bo'lib ular jamoalashganda aqliy imkoniyatlarning foydali ish koefisenti ko'payadi.

Interaktiv pedagogika talabalarda ijobiy hamkorlikning har bir kishi uchun qanday katta manfaat kasb etishini amalda ko'rsatadi. Shunda talabalar fikrlari hilma – hilligidan cho'chimaydilar, balki undan o'zaro manfaatdor bo'ladilar va atrofda ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarga ongli munosabatda bo'ladilar. Interaktiv pedagogika tashkiliy shakli, metodlari, talabalarining o'zaro munosabatlari, talaba va o'qituvchi munosabatlari bilan paternalistik (nasihat va o'ktirishga asoslangan) pedagogikadan tubdan farq qiladi.

Masalan, interaktiv pedagogikaning «munozara» shaklidagi mashg'uloti ikki bosqichli qilib o'tkaziladi. Agar guruhdagi 20 ta talaba bo'lsa, ular 4 tadan yoki 5 kishidan iborat kichik guruhlar shaklida o'tkaziladila. YA'ni har bir stolga davra qilib o'tiriladi. Shunday qilib, guruhda 4 yoki 5 ta davra hosil bo'ladi. Bugungi mashg'ulotda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo 4 yoki 5 ta masalaga bo'linadi.

O'qituvchi guruhlar hal qilish lozim bo'lgan masalalarni alohida qog'ozlarga yozib keladi.

Har bir guruhga turli savollar tarqtiladi. Agar muammo yangi bo'lsa, har bir kartochka – qog'ozda savollarga qisqacha yordamchi izohlar berilishi kerak. Yoki muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan materiallar bilan tanishish talabalarga oldindan topshiriladi. Har bir guruhga o'zlari olgan masalalarni kichik guruhlarda o'zaro ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib munozarani tashkil qilish va tegishli javob hozirlash uchun 5-10 minut beriladi (qiyimlik darajasiga qarab). Keyin munozaraning ikkinchi bisqichi boshlanadi. Unda har bir kichik guruh vakili o'zlari hal qilgan masalani bugun guruhga, jamoaga gapirib, isbotlay berishi kerak. Bu vakilning javobi boshqa guruh a'zolari tomonidan umumiy munozaraga olinadi va umumiy yakuniy xulosa chiqariladi. Bunda professor-o'qituvchi munozaraga ijodiy hamkor sifatida, eng zarur paytlarda ishtiroq qilish kerak.

Fikrlarni to'g'ri, noto'g'ri deb tasdiqlamasligi kerak. Chunki u erkin fikrlashga to'siq bo'ladi. Albatga, professor-o'qituvchi xulosaviy fikrlarda agar bo'lsa, yordamga kelishi kerak. Xuddi shunday beshta guruhlarning javoblari munozarada hal qilingach, (5-10 minutdan) umumiy qo'yilgan muammo muhokamasiga hamma qatnashadi. Yakuniy xulosalar doskaga yoziladi. Talabalarga tegishli reyting ballari munozara davomida va munozara yakunida quyila boradi.

Interaktiv pedagogika talabalarni amaliy va nazariy faollikka yangi g'oyalar izlashga, o'z fikrlari, g'oyalarini himoya qilishga, o'z g'oya fikrlarini isbotlashga, boshqalarni fikrlariga hurmat va tanqidiy qarashga, muloqot, munozara olib borish sifatlarini o'stirishga, mustaqil ishlanishga, amaliy ijodkorlikka, amaliy sifatlarga ega bo'lishga o'rgatadi.

Interaktiv pedagogika professor-o'qituvchilarga o'zlari o'qitayotgan fanlarini zamonaviy ta'limiy, ijodiy-amaliy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarini aniq belgilab olib milliy ta'lim modelidagi uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida interaktiv pedagogikadan o'rinli foydalanib zamon talabi darajasidagi yetuk mutaxassislarni tayyorlashdagi o'zlarining sharaflari vazifalarini bajarishlari kerak.

#### **5.4. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarni turlari.**

O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qullanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga pedagoga va o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovasion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tankidiy, mustakil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini

rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

O'qitish jarayonida turli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bularga quyidagilar karadi.

«Aqliy hujum» metodi – o'qituvchi o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan – murakkabga tomon bosqichma bosqich loyi halab beradi.

«Tarmoklar» metodi – o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlashi, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3×4» metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«Blis-o'yin» metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«Intervyu» texnikasi – o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javb berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«Iyerarxiya» texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«Bumerang» texnikasi – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«Talaba» treningi – o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

«O'qituvchi shaxsi» treningi – o'qituvchining innovasion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talabalar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«Muloqot» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonidahamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«Boshqaruv» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

### **«Tarmoqlar» metodi (Klaster)**

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikmi erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadalshirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish

hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### **«Bumerang» texnologiyasi**

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'llik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zlarga fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan «ha»yoki «yo'q» tipidagi to'g'ri, ochiq, javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

### **«Skarabey» texnologiyasi**

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama boʻlib, undan oʻquv materialining turli bosqichlarini oʻrganishda foydalaniladi:

- boshida – oʻquv faoliyatini ragʻbatlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
- mavzuni oʻrganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq oʻrganish, yangi jihatlarini koʻrsatish;

- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi oʻquvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari mobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U oʻquvchilar tajribasidan foydalanishni koʻzda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba oʻtkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtruvchi chizma shakllardan foydalanishni koʻrsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda oʻquv jamoalarida qoʻllanishi mumkin.

Taʼlimdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- oʻzgalarni fikrga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini koʻrsatish ehtiyoji;
- oʻz qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- oʻz faoliyati natijalariga masʼullik va qiziqish uygʻotadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

- Assosiasiya – mantiqiy bogʻliqlik boʻlib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, gʻoyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

- Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

### **«Veyer» texnologiyasi**

Bu texnologiya murakkab, koʻntarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni oʻrganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari boʻyicha bir yoʻla axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda oʻz gʻoyalari, fikrlarini yozma va ogʻzaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Veyer» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.



«Veyer» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat – ijobiy sifat.

Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari «Yelpig'ich» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

### **Aqliy hujum**

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'm ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanilishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

### **Asosiy qoidalari quyidagilar:**

1. Aytilyotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'larga nisbatan tanqidning mavjud emas.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni ishlatishga kirishmoq...

*1-metod – guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi.*

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilyotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip-karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

*2-metod – barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga takdim etiladi.*

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4-6ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum o'tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shunday sahifa – plakating yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa – plakat jarayonning oxirida har bir xohlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun osib qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy hujum amalga oshirilyotgan paytda o'tib turadi.

Muhim g'oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo'lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo'lishi kerak.

### **FSMU texnologiyasi**

#### **Trening xaqida tushuncha**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv – seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari xaqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Maqsad. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikralrini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

## FSMU texnologiyasi

(F) – fikringizni bayon eting.

(S) – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring.

(U) – fikringizni umumlashtiring.

Qarorlar shajarasi. Muammo qo'yiladi.

Talabalar, o'quvchilar 3, 4, 5 guruhga bo'linadilar. Topshiriq topshiriladi, guruhlar qatorlari muhokama qilinib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Muz yorish. Talabalar, o'quvchilar orasidagi notanish ish, noqulay ishni yo'qotish maqsadida guruh, sinf kichik guruhlariga bo'linib o'zlari haqida gapirib berish taklif qilinadi. Shu bilan yaxshi muloqot o'zaro hakamlikka sharoit yaratiladi. Yoki biror noma'lum narsa haqida o'z bilganlari bilan ham – korlashib to'g'ri xulosa qilinadi.

O'qitishning samaradorligini oshirishda o'quv jarayonida «Blis o'yin», «Chorrah», «Muomala texnologiyasi», turli ish o'yinlari texnologiyasi kabilardan ham foydalanish mumkin. Masalan, «Agar men ... bo'lsam», «Men shunday qilgan bo'lardim» kabilar.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ushbu zamonaviy metodlar, treninglarda qo'llanilgan texnologiyalar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

### *Nazorat uchun savollar:*

1. Metod tushunchasining mazmun mohiyati?
2. Metodlarning turlari?
3. Ko'rgazmali metodlardan foydalanishning afzalliklari nimada?
4. Og'zaki metodlarning ahamiyati nimada?
5. Amaliy metodlar bilimlarni mustahkamlash usuli sifatida?
6. Innovasion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.
7. «Innovasiya» so'zining ma'nosini ochib bering?
8. Interfaol atamasining ma'nosi nimadan iborat?
9. O'qitish jarayonida qanday interfaol metodlardan foydalaniladi?
10. Pedagogik texnologiyalarni turlarini mazmunini izohlab bering?
11. «Aqliy hujum», «Klaster», «Bumerang» metodlari o'rtasida qanday farqlar mavjud.

## **VI BOB. MAKTABGA CHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI SHIITISH TEXNOLOGIYASI FANIDA O'QITISH SHAKLLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

### **6.1. Ta'limning zamonaviy tashkiliy shakllari**

Ilmiy bilimlarni, ayniqsa istiqloq mafkurasini o'quvchi, talabalar qalbi va ongiga singdirish jarayoni ta'lim-tarbiyaning zamon talablariga javob beruvchi turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Ta'lim shakllari mashg'ulotlarni o'tkashzish vaqtiga qarab, hamda o'quvchi talabaning tarkibi va ular faoliyatining xarakter – mohiyatiga qarab belgilanadi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh – guruh bo'lib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf – dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi «Avesto» va boshqa tarixiy manbalarda ma'lum. Ammo qadim davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma – bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkilif masalalari Al-Forobiyning «Fan va aql zakovat» asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida, ta'lim tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.


Y.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida, o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaf-fuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollari berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning ijobiy hal etilishi mashg'ulot (ta'lim jarayoni) mazmuni, ta'lim shakli metodlari hamda vositalari o'quvchilarni

ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda chukur bilim va dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi.

Ta'lim shakli o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir.

Qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga urunganlar. Hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda.



Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Sinf-dars tizimi quyidagi mazmunga egadir:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilim darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan o'quvchilarning doimiy guruhiga ega bo'ladi;

2. Dars jarayoni asosan 45 daqiqa javom etib, qat'iy jadval asosida olib boriladi;

3. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat birligida asoslangan bo'lib, bevosita o'qituvchi rahbarligida jamoa, guruhi va yakka tartibda olib boriladi;

4. Dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan materialning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi hamda umumiy ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Darsda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslanadi. O'qituvchi darsda barcha o'quvchilar faoliyatini nazorat qiladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro aloqalari va nazoratini qo'llab-quvvatlab turadi.

O'qituvchining dars jarayonidagi faoliyati o'quvchilar tomonidan fan asoslarining o'zlashtirilishi ularda zarur ko'nikma va malakalarni hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi;
2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi;
3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash;
4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish;
5. O'qituvchining rahbarlik vazifasi bilan o'quvchilar faol bitish faoliyatini birga olib borish;
6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish;
7. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini mobatga olish;
8. Darsda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;
9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;
10. Darsda o'quvchilar erkinligini ta'minlashga erishish.

Bir soatlik darsga mo'ljallangan dastur o'quv materiali mazmunini bayon qilish, didaktik maqsad va talablarga muvofiq tashkil etilgan mashg'ulot turi dars turi deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirishda mashg'ulotning asosiy qismini ishg'ol qilgan ta'lim shakli u yoki bu dars turini tashkil etadi.

**Dars turlari va ularning tuzilishi.** Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab, qarama-qarshi jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usul va formalari vujudga keladi, buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.
4. Takroriy-umulashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qullaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilish darsidir.

Bu darsning tuzilishi quyidagicha:

1. Darsni tashkil qilish.
2. Yangi bilimlarni bayon qilish.
3. Yangi bilimlarni mustahkamlash.
4. Yangi bilimlar ustida mashq o'tkazini.
5. Yangi bilimlarga bog'liq uy mashg'ulotlari berish.

## 6. Darsni yakunlash.


Dars turlarining o'zgarishi bilan darsning tuzilishida ham o'zgarishlar bo'ladi. Masalan, dars turlari uyg'unlashgan darslarida darsning hamma elementlari mavjuddir:

1. Darsni tashkil qilish.
2. Uy topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va baholash.
3. Yangi mavzuni bayon qilish.
4. Yangi mavxuni mustahkamlash.
5. Uy topshiriqlari berish.
6. Darsni yakunlash.

Ta'lim tizimida, takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi.

O'qituvchi dasturning ma'lum bir qismi, yirik mavzular o'tib bo'lgandan so'ng bunday darslar uyushtiriladi.

Bu dars bilimlarni oraliq nazorat orqali baholashda ham xizmat qiladi.



## 6.2. O'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi o'ziga xos o'qitish shakllari

### Ma'ruza turlari va ularga qo'yiladigan talablar.

**Ma'ruza** (lotin tilida *lectio*-o'qish) – biror bir ilmiy, siyosiy mavzu bo'yicha o'quv materialini og'zaki bayon etish.

**Ma'ruza**atamasining bir necha ma'nosi bor:

1. **Ma'ruza**-o'quv material, biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil tartibli og'zaki bayoni.

2. **Ma'ruza**-oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonining asosiy shakli.

3. **Ma'ruza**-omma oldidagi biror materialni bayon qilish uchun tayyorlangan axborotlar majmui.

Ma'ruza o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini og'zaki ravishda, monologik shaklda, tizimli, ma'lum bir ketma-ketlikda bayon etishninazarda tutadi. Oliy ta'lim paydo bo'lganidan buyon ma'ruza asosiy o'qitishshakli bo'lib qolmoqda (latin tilidan olingan bo'lib, *lection* – o'qishdeganidir). Ma'ruzada o'qituvchi tizimli ravishda

yangi bilimlarni beradiva o'quv kursi bo'yicha murakkab bo'lgan muammolar tushuntirib berilishidodim. Ma'ruza o'quv mashg'ulotlari orasida yetarli darajadagimurakkablikka ega mashg'ulot turi hisoblanadi, shuning uchun ham unisbatan tajribali o'qituvchilarga ishonib topshiriladi.

Ma'ruzaning vazifalari quyidagilardir: o'quv fani bo'yicha bilimlartizimini shakllantirish; ilmiy materiallarni argumentlarni keltirib(asosli ravishda) bayon etish malakasini shakllantirish; kasbiy fikrlashdoirasini va umumiy madaniyatni shakllantirish; darslik va o'quvqo'llanmalarida xali yoritilmagan yangi bilimlarni bayon etish.

Ma'ruzaning vazifalari quyidagilardir: informatsion (ma'lumot berish) – bilimlar tizimini bayon etish; motivatsion – o'quv fani mazmuninio'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni va bo'lajak mutaxassisning kasbiy motivini uyg'otish; mo'ljal oldiruvchi – o'quv materialini kelajakda ham o'zlashtirilishini uchun asos yaratish; tarbiyaviy – ta'lim jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish, mustaqil ishlash va mutaxassislikni har tomonlama egallashga intilish, o'quv faniga qiziqishni rivojlantirish, talabalarning tafakkurini faollashtirishga ko'maklashish.

Xozirgi kunda mashg'ulotlarni ma'ruza metodida olib borilishiga qarshilik qiluvchilarning soni ortib bormoqda. Ularning fikrlariga ko'ra ma'ruzaning kamchiligi, avvalambor, talabalar faolligining yetarli emasligi, ulapr tomonidan ma'lumotlaprni yetarlicha ishlanmasligi talabalarning ijodiy faoliyatining mavjud bo'lmasligi, ularning tanqidiy tafakkurini, ma'lumotlarni amaliy qo'llash va ularni mustahkamlashni so'ndirishidadir.

1980-yillarning oxirida olib borilgan ilmiy ishlarning ko'pchiligida ma'ruzalarda o'tirish talabalarning o'rganishi uchun doimo ham samarali yo'l bo'la olmaydi degan fikr ta'kidlanib, keyingi yillarda ma'ruzalar miqdorining kamayishi kuzatiladi. Ammo ma'ruza hozirgacha ham talabalarning ta'limiy tajribasining uchun muhim qism bo'lib qolmoqda, hatto masofali ta'lim olayotgan talabalar ham internet orqali yozilgan ma'ruzalarni ko'rishlari va tinglashlari, yoki real vaqtda onlayn ma'ruzalarda video-konferensiya texnologiyalari orqali ishtirok etishlari mumkin. Shunday fikrlar ham borki, ma'ruzalarning saqlanib qolganligiga oxirgi o'n yil davomida Buyuk Britaniyada talabalar sonining sezilarli oshganligi sabab bo'lgan. Chunki bilimlarni yetkazishning boshqa samarali vositalari ham mavjud.<sup>3</sup>

Biroq tajribalarning ko'rsatishiga ko'ra, ma'ruzadan voj kechish talabalar tayyorgarligining ilmiy darajasini pasaytiradi, shuning uchun ham ma'ruza xuddi avvalgidек, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib qolmoqda.

O'quv jarayonida ta'limning ma'ruza shakli boshqa bir shakldagi mashg'ulot bilan altirishning iloji bo'lmasa bir qator vaziyatlar yuzaga keladi<sup>4</sup> - «yangi o'qitilayotgan kurslar bo'yicha darsliklar mavjud bo'lmagani vaziyatda ma'ruza – asosiy ma'lumot manbai hlsoblanadi;

<sup>3</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter V: Lecturing tolarge groups, Ann Morton, 58 p.

<sup>4</sup> Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы: учебное пособие. —Ростов-на-Дону: Феникс, 2002 й. - 544 б.



«yangi o'qitilayotgan kurslar bo'yicha darsliklar mavjud bo'lmagan vaziyatda ma'ruza – asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi;

- ma'lum bir mavzu bo'yicha yangi o'quv materiali xali darslikdan o'rin egallamaganda yoki uning bo'limlari eskirganda ham ma'ruza – asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi;
- darslikning ayrim mavzulari mustaqil o'zlashtirish uchun murakkab bo'lib, ma'ruzachi tomonidan metodik qayta ishlanishini talabetadi;
- kursning asosiy muammolari bo'yicha qarama-qarshi konsepsiyalar mavjud bo'lganda ma'ruza ularning obyektiv yoritilishi uchun muhimdir;
- ma'ruza ma'ruzachining talabalarning dunyoqarashini shakllantirish maqsadida shaxsiy hissiy ta'sir etishi talab etilganda juda muhim hisoblanadi va hech birnir mashg'ulot turi bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning hissiy bezaklari chuqur darajadagi ilmiy mazmun bilan uyg'unlashib, tinglovchilar bilan fikr, so'z va idrok orasidagi muvofiqlikni yaratadi. Ma'ruzaning hissiy ta'siri ijtimoiy fanlarni o'qitishda muhim o'rinni egallaydi.»

Yaxshi tayyorlangan ma'ruza qo'yidagi jihatlariga ega bo'lishi lozim:

- ma'lumotlar bilan boyitilgan, qiziqarli va jalb etuvchi bo'lishi
- mazmuni yaxshi tashkillashtirilgan va tinglashga oson. Talabalar argumentning ishlab chiqilishini, yoki ma'lumot va g'oyalarning ketma-ketligi mantig'ini tushuna olishadi.

Talabalar o'zlarini jalb etilgan deb his qilishi. Bu faol qatnashish, ular qo'llay oladigan muvofiq namunalar orqali o'zlarining fikrini bildira olishi orqali ta'minlanishi inunkin. Guruhning hajmidan qat'iy nazar, talabalarni ularga savol berish orqali ma'ruza mazmuniga jalb etish talabalarni qiziqitirishning muhim usuli.

-Talabalar vaqt tez o'tganini sezmay qolishadi

-Talabalar guruh xonasidan ma'lum bir ma'lumotni egallagan his bilan chiqishadi, va ko'p hollarda manbalarni qidirib, ko'proq ma'lumot olishga ilhomlanishadi<sup>5</sup>

Ma'ruzaning tuzilishini ko'rib chiqamiz. Ma'ruzaning odatiy tuzilmasiga elementlariga kirish, asosiy qism, xulosa kiritiladi.

Kirish – auditoriyani o'quv materialini idrok etishga qiziqitirish vayo'naltirish maqsadiga ega bo'lgan ma'ruzaning bir qismidir. Ma'ruzaning bu qismiga: ma'ruza mavzusini bayon etish, uning kasbiy ahamiyatini, yangiligini va uning o'rganilganlik darajasini, ma'ruza maqsadini tavsiflash, ma'ruzada ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan asosiy muammolarni qamrab olgan ma'ruza rejasini bayon etish, avvalgi ma'ruzada ko'rib chiqilgan savollarni yodga solish, ularning yangi material bilan bog'liqligini, uning ushbu fandagi ahamiyati, o'rini, shuningdek, boshqa fanlar tizimidagi o'rini belgilashni qamrab oladi.

Asosiy qism – taklif etilgan rejaga qat'iy amal qilgan xolda ma'ruza mazmunini bayon etish. Ma'ruza mavzusini ochib beruvchi konseptual va dalilli materiallarni, ularni tahlili va baholanishini, ilgari surilayotgan nazariy qoidalarni turli usullarda argumentlash va isbotlashni qamrab oladi. Ma'ruzaning turiga qarab ish turi

<sup>5</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave. New York, NY 10016, chapter V: Lecturing to large groups. Ann Morton, 59 p.

aniqlanadi.

Xulosa – ma’ruzani umumiy xulosalash, materiallarni umumlashtirish, ma’ruza mavzusi bo’yicha xulosalarini bayon etish; talabalarning savollarigajavob berish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar materiallarni ma’ruza ko’rinishida bayon etishning an’anaviy ustunliklarini saqlab qolgan xoldama’ruza metodining kamchiliklarini yengib o’tishga harakat qilmoqda.

Xuddi shunday, muammoli ma’ruza materialni bayon etish davomida xal etilishi lozim bo’lgan savollardan, muammoni belgilashdan boshlanadi.

Bunda muammoni xal etishning tayyor shakli talabalarning tajribasida mavjud bo’lmaydi, ya’ni savolga javob topish uchun fikrlash, farazlarni ilgari surish va ularni tekshirib ko’rish talab etiladi. Ma’lumotli ma’ruzada o’qituvchi tomonidan ma’lum bo’lganlar narsalar o’rgatilishi va talabalardan ularni eslab qolishning o’zi talab etilsa, uning mazmunidan farqli ravishda, muammoli ma’ruzada yangi bilim talabalar uchun shaxsiy ixtirolari sifatida o’rgatiladi. Muammoli ma’ruzada talabalarning tafakkurini boshqarish uchun o’qituvchi tomonidan avvidan tayyorlab qo’yilgan muammo va ma’lumotli savollar qo’llaniladi.

Muammoli savollar – bu javoblari avvalgi o’rganilgan mavzularda ham, bayon etilayotgan materialda ham (doskadagi yozuvlarda, devordagi jadvallarda va x.k.) bo’lmagan va talabalarda intellektual qiymchiliklarni yuzaga keltiruvchi savollardir. Muammoli savollar o’z ichiga noma’lumlarni, yangi bilimlarni qamrab olib, ularni egallash uchun qandaydir intellektual harakat, ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan tafakkur jarayoni talab etiladi.

Ma’lumotli savollar muammoni tushunish uchun talabalarda mavjud bo’lgan bilimlarni aktuallashtirish va uni xal etish bo’yicha aqliy faoliyatni bosqlash maqsadida beriladi.

Shunday qilib, o’quv materiali o’quv muammosi sifatida ilgari suriladi. U ma’lum sharoitda ayrim qarama-qarshiliklarga ega va ushbu qarama-qarshiliklar oydinlashuvchi yakuniy savollar bilan tugaydigan idrok vazifalarining mantiqiy shakliga ega. Muammoli bayon etish uchun o’quv fanining asosiy konseptual mazmunini tashkil etuvchi, bo’lajak kasbiy faoliyat uchun nisbatan muhim bo’lgan va talabalar tomonidan o’zlashtirilishi qiyinroq bo’lgan kursning muhim bo’limlari tanlab olinadi.

O’quv muammolari o’zlarining murakkabligi jihatidan talabalarga mos bo’lishi, o’quvchilarning bilish jarayonlarini hisobga olingan, o’rganilayotgan fandan kelib chiqqan xolda yangi materialni o’zlashtirishda va shaxsni – umumiy va kasbiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo’lishi zarur.

Vuzuallashtirish (namoyish etish)- ma’ruzasi ko’rgazmalilik tamoyilini yangicha qo’llanilishiga misol bo’la oladi, uning faol o’qitishning shakllari va metodlari haqidagi psixologo-pedagogik ilm ma’lumotlari mazmuniga ta’siri natijalari hisoblanadi.

Vuzuallashtirish (namoyish etish)- ma’ruzasi talabalarni og’zaki va yozma ma’lumotlarni vizual shaklga aylantirishga o’rgatadi, u esa ta’lim mazmunida mavjud bo’lgan ahamiyatli elementlarni ajratish va tizimlashtirish hisobiga kasbiy tafakkurni shakllantiradi. O’qituvchi tomonidan ushbu turdagi ma’ruzaga tayyorlanish deganda ma’ruza mashg’uloti mavzusi bo’yicha o’quv materiallarini ta’limning texnik

vositalari yoki qo'lda (chizma, rasm, jadvallar va x.k.) talabalarga taqdim etish uchun vizual shaklga keltirish nazarda tutiladi. Bu turdagi ma'ruzani o'qish ma'ruza mavzusini to'liq ochib beruvchi o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan ko'rgazmali matnialarni keng va bog'liq ravishda sharhlash darajasiga yetkaziladi. Bunday turda taqdim etilgan ma'lumotlar talabalarning kasbiy va idrok etish faoliyatida muhim hisoblangan ular tomonidan o'rganilgan bilimlarni tizimlashishini ta'minlashi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va ularning yechimini topishga imkon yaratishi, turli turdagi ko'rgazmalarni namoyish etishi kerak.

Ma'ruzaning bu turini talabalar bilan yangi bo'lim, mavzu, fanni o'rganishni boshlashda qo'llash yaxshi natija beradi. Bunda yuzaga keluvchi muammoli vaziyat materialni o'rganishga, o'qishning boshqa turlarida ko'rgazmali ma'lumotlarni rivojlantirish ko'nikmasiga psixologik ko'rsatmani yaratadi.

Hamkorlikdagi ma'ruza muammoli mazmundagi o'quv materialini ikki o'qituvchining o'zaro jonli diologik muloqotida taqdim etilishidir. Bunda ikki mutaxassisning nazariy muammolarni ikki nuqtai-nazardan muhokamasi kabi aniq kasbiy va malakali vaziyat gavdalanadi, masalan, nazariyotchi va amaliyotchi muhokamasi, biron-bir fikr tarafdori va bu fikrga qarshi mutaxassisning kabi. Ma'ruzaning bu turi talabalarning tanqidiy tafakkurini faol ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonda o'qituvchilarning o'zaro diologi yechimi izlanayotgan muammoning yechimini hamkorlikda izlash mkadaniyatini namayon etishi va bu jarayonga talabalarning savollar, o'z nuqtai-nazarlarini bayon etish, muhokama etilayotgan ma'ruza mavzusiga o'z munosabatlarini shakllantirish, yuz berayotgan xodisalarga hissiy javob qaytarishlarini jalb etishi lozim.

Ma'ruza vaqtida har ikki o'qituvchining yuqori darajadagi faolligi talabalarda fikran va ahloqan faol bo'lishni keltirib chiqaradi, bu esa faol ta'lim olishga xos bo'lgan xislat hisoblanadi: talabalarning bilish jarayoniga jalb etilganligi o'qituvchilarning faolligi bilan mos keladi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari talabalar munozara qilish madaniyati, dialogga kirishish usullari, hamkorlikdari izlanish va yakuniy to'xtamga kelish haqida ko'rgazmali ravishdagi tasavvurga ega bo'ladilar.

Oldindan rejalashtirilgan xatoliklar bilan olib boriladigan ma'ruza talabalarda kasbiy vaziyatlarni operativ ravishda tahlil etish, ekspert, opponent, resenzzent sifatida qatnashish, noto'g'ri yoki noaniq ma'lumotlarni ajratib ko'rsata olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan.

O'qituvchining ma'ruzaga tayyorgarligi shundan iborat bo'ladiki, ma'ruza mazmuniga ma'lum miqdorda semantik, metodik yoki ahloqiy doiradagi xatoliklar kiritilishi talab etiladi. Bunday xatoliklarning ro'yhatini o'qituvchi ma'ruzaga olib keladi, biroq ularni talabalarning e'tiboriga ma'ruzaning oxirida taqdim etadi. Talabalar tomonidan yo'l qo'yiladigan va ma'ruza o'qish jarayonida o'qituvchilar tomonidan ko'p holatlarda uchraydigan xatoliklar tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi ma'ruzani shunday mahorat bilan olib borishi va yo'l qo'yilgan xatolarni yashirishi kerakki, unda yo'l qo'yilgan xatoliklarni talabalar yaqqol va tez aniqlay.

Talabalarning vazifasi shundan iborat bo'ladiki, daftarlariga yo'l qo'yilayotgan xatolarni qayd etib borishlari va ma'ruzaning so'ngida ularni bayon etishlari talab etiladi. Xatolarni muhokamasi uchun 10-15 daqiqa ajratiladi. Mana shu muhokama jarayonida o'qituvchi, talabalar yoki hamkorlikda savollar emas, balki to'g'ri javoblar berib boriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar materiallarni uzaning didaktik va tarbiyaviy maqsadidan, talabalarning tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Ma'ruza ko'rinishida bayon etishning an'anaviy ustunliklarini saqlab qolgan xolda ma'ruza metodining kamchiliklarini yengib o'tishga harakat qilmoqda. Xuddi shunday, muammoli ma'ruza materialni bayon etish davomida xal etilishi lozim bo'lgan savollardan, muammoni belgilashdan boshlanadi.

Bunda muammoni xal etishning tayyor shakli talabalarning tajribasida mavjud bo'lmaydi, ya'ni savolga javob topish uchun fikrlash, farazlarni ilgari surish va ularni tekshirib ko'rish talab etiladi. Ma'lumotli ma'ruzada o'qituvchi tomonidan ma'lum bo'lganlar narsalar o'rgatilishi va talabalardan ularni eslab qolishning o'zi talab etilsa, uning mazmunidan farqli ravishda, muammoli ma'ruzada yangi bilim talabalar uchun shaxsiy ixtirolari sifatida o'rgatiladi.

**Muammoli ma'ruzada** talabalarning tafakkurini boshqarish uchun o'qituvchi tomonidan avvidan tayyorlab qo'yilgan muammo va ma'lumotli savollar qo'llaniladi.

Muammoli savollar – bu javoblari avvalgi o'rganilgan mavzularda ham, bayon etilayotgan materialda ham (doskadagi yozuvlarda, devordagi jadvallarda va x.k.) bo'lmagan va talabalarda intellektual qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi savollardir. Muammoli savollar o'z ichiga noma'lumlarni, yangi bilimlarni qamrab olib, ularni egallash uchun qandaydir intellektual harakat, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tafakkur jarayoni talab etiladi.

Ma'lumotli savollar muammoni tushunish uchun talabalarda mavjud bo'lgan bilimlarni aktuallashtirish va uni xal etish bo'yicha aqliy faoliyatni boshlash maqsadida beriladi.

Shunday qilib, o'quv materiali o'quv muammosi sifatida ilgari suriladi. U ma'lum sharoitda ayrim qarama-qarshiliklarga ega va ushbu qarama-qarshiliklar oydinlashuvchi yakuniy savollar bilan tugaydigan idrok vazifalarining mantiqiy shakliga ega. Muammoli bayon etish uchun o'quv fanining asosiy konseptual mazmunini tashkil etuvchi, bo'lajak kasbiy faoliyat uchun nisbatan muhim bo'lgan va talabalar tomonidan o'zlashtirilishi qiyinroq bo'lgan kursning muhim bo'limlari tanlab olinadi.

O'qituvchi tomonidan ushbu turdagi ma'ruzaga tayyorlanish deganda ma'ruza mashg'uloti mavzusi bo'yicha o'quv materiallarini ta'limning texnik vositalari yoki qo'lda (chizma, rasm, jadval va x.k.) talabalarga taqdim etish uchun vizual shaklga keltirish nazarda tutiladi. Bu turdagi ma'ruzani o'qish ma'ruza mavzusini to'liq ochib beruvchi o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan ko'rgazmali materiallarni keng va bog'liq ravishda sharhlash darajasiga yetkaziladi. Bunday turda taqdim etilgan ma'lumotlar talabalarning kasbiy va idrok etish faoliyatida muhim hisoblangan ular tomonidan o'rganilgan bilimlarni tizimlashishini ta'minlashi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va ularning yechimini topishga imkon yaratishi, turli turdagi

ko'rgazmalarni namoyish etishi kerak.

Ma'ruzaning bu turini talabalar bilan yangi bo'lim, mavzu, fanni o'rganishni boshlashda qo'llash yaxshi natija beradi. Bunda yuzaga keluvchi muammoli vaziyat materialni o'rganishga, o'qishning boshqa turlarida ko'rgazmali ma'lumotlarni rivojlantirish ko'nikmasiga psixologik ko'rsatmani yaratadi.

Hamkorlikdagi ma'ruza muammoli mazmundagi o'quv materialini ikki o'qituvchining o'zaro jonli diologik muloqotida taqdim etilishidir. Bunda ikki mutaxassisning nazariy muammolarni ikki nuqtai-nazardan muhokamasi kabi aniq kasbiy va malakali vaziyat gavdalanadi, masalan, 76 nazariyotchi va amaliyotchi muhokamasi, biron-bir fikr tarafdori va bu fikrga qarshi mutaxassisning kabi. Ma'ruzaning bu turi talabalarning tanqidiy tafakkurini faol ravishda rivojlanishiga hismat qiladi.

Bu jarayonda o'qituvchilarning o'zaro diologi yechimi izlanayotgan muammoning yechimini hamkorlikda izlash mkadaniyatini namayon etishi va bu jarayonga talabalarning savollar, o'z nuqtai-nazarlarini bayon etish, muhokama etilayotgan ma'ruza mavzusiga o'z munosabatlarini shakllantirish, yuz berayotgan xodisalarga hissiy javob qaytarishlarini jalb etishi lozim.

Ma'ruza vaqtida har ikki o'qituvchining yuqori darajadagi faolligi talabalarda fikran va ahloqan faol bo'lishni keltirib chiqaradi, bu esa faol ta'lim olishga xos bo'lgan xislat hisoblanadi: talabalarning bilish jarayoniga jalb etilganligi o'qituvchilarning faolligi bilan mos keladi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari talabalar munozara qilish madaniyati, dialogga kirishish usullari, hamkorlikdani izlanish va yakuniy to'xtamga kelish haqida ko'rgazmali ravishdagi tasavvurga ega bo'ladilar.

Oldindan rejalashtirilgan xatoliklar bilan olib boriladigan ma'ruza talabalarda kasbiy vaziyatlarni operativ ravishda tahlil etish, ekspert, opponet, resenent sifatida qatnashish, noto'g'ri yoki noaniq ma'lumotlarni ajratib ko'rsata olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan.

O'qituvchining ma'ruzaga tayyorgarligi shundan iborat bo'ladiki, ma'ruza mazmuniga ma'lum miqdorda semantik, metodik yoki ahloqiy doiradagi xatoliklar kiritilishi talab etiladi. Bunday xatoliklarning ro'yhatini o'qituvchi ma'ruzaga olib keladi, biroq ularni talabalarning e'tiboriga ma'ruzaning oxirida taqdim etadi. Talabalar tomonidan yo'l qo'yiladigan va ma'ruza o'qish jarayonida o'qituvchilar tomonidan ko'p holatlarda uchraydigan xatoliklar tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi ma'ruzani shunday mahorat bilan olib borishi va yo'l qo'yilgan xatolarni yashirishi kerakki, unda yo'l qo'yilgan xatoliklarni talabalar yaqqol va tez aniqlay.

Talabalarning vazifasi shundan iborat bo'ladiki, daftarlarga yo'l qo'yilayotgan xatolarni qayd etib borishlari va ma'ruzaning so'ngida ularni bayon etishlari talab etiladi. Xatolarni muhokamasi uchun 10-15 daqiqa ajratiladi. Mana shu muhokama jarayonida o'qituvchi, talabalar yoki hamkorlikda savollar emas, balki to'g'ri javoblar berib boriladi.

Oldindan rejalashtirilgan xatoliklarning miqdori o'quv materialining, ma'ruzaning didaktik va tarbiyaviy maqsadidan, talabalarning tayyorgarligi

darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Yangi ma'ruzachi uchun har xil guruh talabalariga ma'ruza o'qish uchun uda muhim tajriba bo'lib hisoblanadi. Materialni shunchaki bilish yetarli emas. Ma'ruzachi ma'ruzani qiziqarli va e'tiborni tortadigan qilib, yaxshi tayyorgarlik ko'rishi va mos va mavzuli misollardan foydalanib mavzuni tushuntira olishi zarur. Ma'ruzani to'g'ri o'tish mahorat va vaqt talab qiladi. Talaba va hamkasblardan ma'ruza to'g'risida fikrlarini so'rash ma'ruza o'qish sifatini ko'rsatish uchun muhim omil hisoblanadi va Siz o'z amaliyotingizni kuchaytirishni xohlashingiz mumkin.<sup>6</sup>

Ma'ruza o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o'qitishning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalash funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma'ruzaning **yo'naltiruvchi** funksiyasida talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi.

Ma'ruzaning **axborot berish** funksiyasi asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochishda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'ruzaning **metodologik** funksiyasini qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

Ma'ruzaning **tarbiyaviy** funksiyasi ma'ruza jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta'limda o'qitishning bir shakli sifatida ma'ruzaga qo'yiladigan **talablar**:

- ma'ruzaning ahloqiylik jihati (ilmiylik va axborotlilik);
- isbotlash va argumentlash (aniq misollarning yetarli bo'lishi);
- bayon qilishning emosionalligi (talabalarni faollashtirish);
- bayon qilinadigan masalalarning aniq strukturasi va mantiqi;
- metodik jihatdan ishlab chiqqanlik (asosiy fikrlarni aniqlash);
- aniq, ilmiy va adabiy tilda bayon qilish;
- audivizual didaktik materiallarni foydalanish.

Ma'ruzaga **tayyorlanish**:

- ma'ruza mavzusi bo'yicha materiallar to'plash;
- ma'ruzaning rejasini tuzish;
- ma'ruzaga materiallarni saralab olish;
- ma'ruza konspektini tuzish;
- ma'ruza mashg'ulotini o'tishning texnologiyasini ishlab chiqish.

Yaxshi ma'ruza o'qituvchidan juda katta mehnatni talab etadi. Kani da bir hafta oldin tayyorgarlik ko'rishni boshlash kerak. Bugungi kunda pedagogika fani o'qituvchisidan pedagogik prognostikadan optimal foydalanish talab etiladi.

---

<sup>6</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter V: Lecturing to large groups, Ann Morton, 59-71p.

## 6.2. Ma'ruza turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish ma'ruzasi	O'quvchilarda o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
Ma'lumotli ma'ruza	O'quvchilarda muammoga doir ma'lumotlarni axboriy-reseptli tarzda taqdim etish
Anjuman-ma'ruza	O'quvchilar tomonidan o'quv materialini izlanishli tarzda o'zlashtirilishiga erishish
Muammoli-ma'ruza	O'quvchilarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali o'quv birliklarini bayon etish
Ma'ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma'ruza qismlarini o'zlashtirishga erishish
Vizual-ma'ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirishga erishish
Konspektli-ma'ruza	O'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini yozdirib borish
Maslahatli-ma'ruza	Savol va javoblar tarzida ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish
Binar-ma'ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma'ruzani tashkil etish

### Ma'ruza va uning o'ziga xosliklari

Ma'ruza-pedagogik fanlarni o'qitishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) yo'naltiruvchi: o'quvchilarni o'quv materialining asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga imkon berish;

2) axborot: o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoli, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

3) metodologik: ma'ruza jarayonida muammoning falsafiy-nazariy asoslari namoyon etiladi.

4) tarbiyalovchi: o'quvchilarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;

5) rivojlantiruvchi: o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

Ma'ruza metodida ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarda bilimni mustaqil egallash qobiliyatini hosil qilishdir.

Ma'ruza yangi bilimni o'tishda uning qismlarini umumlashtirishda, murakkab qonun-qoidalarni yakunlashda, muammoli masalalarni o'rganishda, o'quv fanlari o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganishda qo'llaniladi.

Ma'ruzaning mazmunli, samarali bo'lishi uchun:

- aniq, o'ylab tuzilgan rejani o'quvchilarga tanishtirish;
- rejaning har bir qismi bo'yicha berilgan ma'lumotni yakunlash;
- bayon o'quvchilarga tushunarli va ko'rgazmali, yorqin bo'lishi;
- bayon o'quvchilarda muhim o'rinlarni bilib olishga qiziqish uyg'otadigan bo'lishi kerak.

**Ma'ruza va ma'ruzachiga quyiladigan pedagogik talablar.** Ma'ruzani muvaffaqiyatli o'qish, ma'ruzani ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini tadbiiq etish, ko'p jihatdan ma'ruzachi va talabalar auditoriyasi o'rtasidagi muloqatga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruzachi va talabalar o'rtasidagi muloqatni yuzaga keltirish uchun uchta guruh shartlari mavjuddir.

**Birinchi guruh sharti** ma'ruza mazmuni va tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi.

Ma'ruzalarga ularni o'tkazishga qat'iy talablar quyiladi:

1. Ma'ruzani mazmuni va tuzilishi aniq ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.
2. Ma'ruza aniq reja asosida tashkil etilishi.
3. Ma'ruza ilmiy faktlar va ma'lumotlarga boy bo'lishi kerak.
4. Ma'ruzada fan-texnikaning eng so'nggi yangiliklari yoritilishi zarur.
5. Ma'ruza uchun materiallar chuqur o'rganilgan holda tanlanishi kerak.
6. Ma'ruza mazmuni asosiy tushunchalarni yoritishga qaratilgan bo'lishi kerak.
7. Ma'ruzada ilmiy adabiyotlar tahlili, o'tilayotgan mavzuni darslikda yoritilishiga obyektiv baho berish zarur.

**Ikkinchi guruh shartlari** ma'ruzachini sifatlariga qaratilgan talablardir:

1. Ma'ruzachi aniq g'oyaviy va ilmiy bilimlarga ega bo'lishi.
2. Ma'ruzachi umumiy va ilmiy, intellektual salohiyatga ega bo'lishi kerak.
3. Ma'ruzachi ma'ruzadagi ma'lumotlarni erkin holda o'zlashtirgan bo'lishi zarur.
4. Ma'ruzachi o'z predmetini chuqur bilishi va ilmiy ijodga qiziquvchan bo'lishi zarur.
5. Ma'ruzachida lektorlik mahorati, bilim va malakalar uzviyligi, bog'liqligi (o'quvchi talabalar diqqatini o'ziga jalb etish, talabalarni fikrlash faoliyatini yo'lga solish va boshqalar) mavjud bo'lishi kerak.
6. Ma'ruzachida muloqatga kiritish malakalari va tashkilotchilik sifatleri mavjud bo'lishi kerak.
7. Ma'ruzachini nutqi grammatik va orfoepik jihatdan savodxon va to'g'ri bo'lishi, uning nutqi aniq, ifodali, tushunarli va auditoriyadagilar uchun eshitilari bo'lishi zarur.
8. Ma'ruzachini nutq sur'ati (tempi) talabalarga ma'ruzani tushunishlari va asosiy mazmuni yozib olishlari uchun mos bo'lishi kerak.



9. Ma'ruzachi talabalar bilan xushmuomila va shu bilan birga talabchan munosabatda bo'lishi lozim.

**Uchinchi guruh shartlariga** quyidagilar kiradi:

1. Ma'ruza soatlarini to'g'ri taqsimlanishi.

2. O'quv jarayonini o'z vaqtida, sifatli materiallar bilan ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan uch guruh shartlari birgalikda amalga oshirilsagina, hamma talablarga javob beradigan ma'ruzani o'tish mumkin bo'ladi.

Ma'ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahorat asosida tashkil etiladi. Ma'ruzadan faqat fan, o'quv predmeti asoslari borasidagi ma'lumotlar berib qolmasdan, balki talabalarni ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalab borish talab etiladi. Ma'ruza jarayonida asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirishga qaratilgan.

Ma'ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma'ruzachi-o'qituvchida ma'ruza mavzusi yuzasidan reja hamda konspekt bo'lishi lozim.

Ma'ruza o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida 80 daqiqalik akademik soatdan iborat bo'ladi. Umumiy qoidaga muvofiq ma'ruza bir dars davomida oxiriga yetkazilmay qolgan bo'lsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza materiallari tushuntirib bo'lingach, o'quvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi. Har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

### **6.3.Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi**

Seminar mashg'ulotlari – o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shaklidan biri bo'lib, o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan nazariy savollarni jamoaviy ravishda muhokama qilishni nazarda tutadi.

Seminar mashg'ulotlari ta'lim berish shakli sifatida antik davrga borib taqaluvchi uzoq tarixga ega. "Seminar" so'zining o'zi lotin tilidagi "seminarium" so'zdan olingan bo'lib, bog'bon (ko'chat o'tkazuvchi) deb tarjima qilinadi. Bu vazifa o'qituvchiga talabalarning ongiga yangi bilimlarni o'tkazish va ularni rivojlantirish vazifasi bilan bog'langan bo'lib, talabalar o'qituvchidan olgan bilimlari evaziga kelajakda mustaqil fikrlaydigan, bilimlarini boyitib borishga intiluvchi shaxs bo'lib yetishadilar.

Seminar mashg'ulotlari o'quv jarayonini tashkil etishning boshqa shakllari bilan uzviy bog'langan bo'lib, bular avvalambor ma'ruza va talabalarning mustaqil ishlaridir. Seminar mashg'ulotlariga talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini belgilab beruvchi kursning asosiy mavzulari olib chiqiladi.

Seminar mashg'ulotining o'ziga xosligi ko'rib chiqilayotgan mavzu muhokamasida har bir talabani bir maromda va faol ishtirokiga imkon yaratilishidir.

Seminar mashg'ulotining vazifalari quyidagilardir: o'quv fani bo'yicha talabalarning bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish; intellektual vazifa va muammolarni o'rnatish va yechim topish malakasini shakllantirish; talabalar bilan o'z nuqtai – nazarini asoslash, shuningdek boshqa fikrlarni isbotlash yoki inkor etish bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantirib borish; nazariy jihatdan

tayyorgarlik darajasini namoyish etish; adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Seminar mashg'ulotlarining quyidagi ko'rinishlarini farqlash mumkin.

Proseminar – birinchi kurs talabalarini oliy ta'limda mustaqil ishlashning o'ziga xosligi bilan tanishtirish, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini egallashni maqsad qilgan. Talabaniing proseminarda ishlashining xarakterli elementi ma'lum mavzularda referatlarining tayyorlab kelishlari, ularni o'qib berishlar va muxakama qilishlari va o'qituvchidan mos ravishdagi bahoga ega bo'lishlaridir.

Seminar - seminar mashg'uloti kursning o'quv dasturi bilan mustahkam ravishda bog'langan bo'lib, uning alohida, nisbatan chuqurroq mavzularini o'rganishni maqsad qilgandir.

Maxsus seminar - seminar mashg'uloti tadqiqodchilik turida bo'lib, kurs bo'yicha ma'ruza mashg'uloti mavzularidan qat'iy nazar ham bo'lishi mumkin, uning maqsadi ayrim muammolarni chuqurroq o'rganishdan iboratdir. Yuqori kurslarda tashkil etiladi va ushbu soha bo'yicha mutaxassis boshqaruvda olib boriladi. Seminar mashg'ulotlari odatda quyidagi tuzilishga ega: o'qituvchining kirish so'zi, asosiy qism, o'qituvchining yakuniy so'zi. O'qituvchining kirish so'zi o'rganilayotgan kurs doirasida ushbu seminar mashg'ulotining o'rni, mashg'ulotning maqsad va vazifalarini qisqa ochib beradi, talabalarning diqqatini mobillashtiradi, mashg'ulotga qaratadi va faollashtiradi.

Asosiy qism talabalarning chiqishlari va ularni muhokamasi, quyida yana to'xtalib o'tiluvchi turli metodik shakllardan iborat bo'ladi.

O'qituvchining yakuniy so'zi alohida savollar bo'yicha ham, umumiy seminar mashhuloti bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin bo'lib; talabalar faoliyatini xulosalash va baholash, keyingi seminar mashg'uloti bo'yicha ko'rsatmalar berishdan iborat bo'ladi.

Mutaxassisliklar bo'yicha fanlardan seminar mashg'ulotlarini tashkil etishning turli shakllarini ko'rib chiqamiz.

Seminar rejasi savollari bo'yicha talabalar bilan savol-javob o'tkazish o'qituvchining navbati bilan har bir talaba bilan suhbatiga teng. Bu jarayonda butun guruhga emas, balki suhbat olib borilayotgan talabaniing o'ziga savol beriladi. Talaba savolga noaniq yoki to'liq bo'lmagan javobni bersa, o'qituvchining o'zi javobni to'ldiradi, aniqlashtiradi. Natijada guruhning asosiy talabalari o'qituvchi bilan suhbatlashish navbatlari kelishini kutib passiv holatni egallaydilar, ko'pincha boshqa ishlar bilan band bo'ladilar yoki konspektlarini ma'nosiz ravishda varroqlay boshlaydilar<sup>7</sup>

Bulanova-Toporkova M.V.<sup>8</sup> seminar mashg'ulotini tashkil etishning an'anaviy metodini quyidagi kamchiliklarini ko'rsatib o'tganlar. So'z navbati berilgan talabalar individual bilimlarini namoyon etadilar, shuning uchun muloqot deyarli amalga oshirilmaydi. Harnkorlik va o'zaro yordam mavjud bo'lmaydi. So'zga chiqqan

---

<sup>7</sup> Елсуков А.Н. Методика преподавания социологии в высшей школе. Учебное пособие. Минск: ТетраСистемс, 2003

<sup>8</sup> Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы учебное пособие. —Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. - 544 б

talabaga yordam berish javobni aytibturish hisoblanadi, bu taqiqlangan, tartibni buzish hisoblanadi.

Talabalarning o'quv jarayoniga shaxsiy yondoshuvi kuzatilmaydi. Talabaning intellektual faolligi chegaralab qo'yiladi. O'qituvchi va talaba orasidagi masofa muloqot qilish, o'zaro harakatlar qilishga chegara qo'yadi. Talabalar seminar vaqtida o'z fikrlarini bildirmay, boshqa ishlar bilan band bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Seminarni tashkil etish shaklining o'zi talabalarni passiv holatga tushirib qo'yadi, ularning nutqiy faolligi minimumga yetkkaziladi. Kasbiy jamiyat talab etayotgan kasbiy muloqot va o'zaro harakatlar ko'nikmasini shakllantirish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Shunday qilib, mashg'ulotlarda guruhli muloqot qilish shakli jamiyatdagi, ishlab chiqarishdagi kishilar munosabatining adekvat modeli hisoblanmaydi, shuning uchun ham bugungi kunda mutaxassislarni tayyorlash talablariga mos kelmaydi.

Reja asosida ochiq suhbat ushbu shakl seminar savollari bo'yicha barcha talabalarning tayyorlanishini, ularning chiqishlarini, o'qituvchining seminar savollari bo'yicha va umuman seminar bo'yicha xulosalarini nazarda tutadi. Ochiq suhbat savollar bo'yicha muhokama jarayoniga iloji boricha ko'p talabalarni jalb etish, diqqatlarini faollashtirish, asosiy va qo'shimcha vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Ochiq suhbat shaklidagi seminar mashg'uloti o'qituvchidan u yoki bumavzu bo'yicha alohida vazifa olgan talabalarning yakka xolda so'zga chiqishini taqiqlamaydi, biroq bunday holatlarning barchasida yakka chiqish qiluvchi talabalarning chiqishlari asosiy bo'lmaydi, balki muhokama etilayotgan mavzuga qo'shimcha, to'ldirish sifatida amalga oshiriladi.

Talabalarning doklalarini (referatlari, mustaqil ishlarini) tinglash. Dokladlar tizimi o'z ichiga turli-tuman variantlarni qamrab oladi. Ayrim holatlarda o'qituvchining o'zi yoki talabaning istagiga ko'ra doklad qiluvchini, unga yordam beruvchini va opponentlarni belgilaydi.

Ayrim holatlarda esa aksincha o'qituvchi rejaning barcha savollari bo'yicha yoki ularning ayrimlari bo'yicha faqatgina opponentlarni belgilaydi. Chiqish vaqtida opponent talabaning chiqishini muhokama qiladi, xato va noaniq joylarini ko'rsatib o'tadi, materialni to'ldiradi va muhokamaga yakun yasaydi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun opponentning o'zi mavzuning rejasi bo'yicha to'liq tayyorlangan bo'lishi zarur bo'ladi. Shunday qilib, ishning mazmuni ayrim talabalarga vaqti-vaqti bilan seminar mashg'ulotida u yoki bu savolni muhokamasini boshqarish va yakun yasashni, uning ijobiy va salbiy toronlari haqida xulosa chiqarishni topshirishdan iborat. Bu esa talabalarda pedagogik ish ko'nikmasini yanada samarali shakllantirish imkonini yaratib beradi.

Ochiq suhbat va dokladlar tizimini seminarni o'tkazishning mustaqil shakli sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, ular orasida juda ko'p umumiylik mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. U yerda ham, bu yerda ham ijodiy muhokamada asosiysi mos keluvchi savollardir. Birinchi holatda, guruhning to'liq ravishda tayyorlanadi, ikkinchi holatda esa tashabbus doklad qiluvchilarga beriladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, doklad tizimida doklad sifatida bo'lib berilgan savoolar bo'yicha butun guruhning tayyorlanishi juda katta qiyinchilik bilan amalga oshadi. Mana

shundan kelib chiqib ikkita metodik xulosaga kelish mumkin: 1) har bir shaklning yutuq tomonlarini qo'llagan xolda, kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilishga e'tiborni qaratish lozim; 2) mashg'ulotlarda u yoki bu shakllarni almashtirib qo'llash va bir shaklning ustun bo'lib qolishini oldini olish.

Ayrim talabalar tomonidan avvaldan tayyorlangan va seminardan oldin butun guruh bilan o'qilgan referatlarni muhokama qilish. Seminar mashg'ulotini o'tkazishning navbatdagi shakli referatlarni muhokama qilish hisoblanadi. Oddiy dokladlardan referat o'zining mustaqil ravishda bajarilganligi, o'z tadqiqodlari elementlarining kiritilishi, ijodiy yondoshuv, ilmiyligi bilan farqlanib turadi. Agar referat seminar mashg'ulotidan oldin boshqa talabalar tomonidan ham o'qib chiqilgan bo'lsa yaxshi bo'ladi, biroq texnik jihatidan bu qiyin jarayondir. Shuning uchun muallif o'z referatini og'zaki ma'lumot berish sifatida bayon etib beradi.

Referat metodi talabalarda tadqiqodchilik ishi ko'nikmasini shakllanishiga yordam beradi, sosiologi, sosiologiya bo'yicha seminar mashg'ulotlarini faollashtiradi, ushbu fanni o'rganishni boshqa fanlar bilan va ishlab chiqarish bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi.

Nazariy konferensiya Nazariy konferensiya ko'rinishidagi seminar mashg'uloti doklad va referatlar muhokama qilinuvchi seminar shakllariga yaqin ko'rinishdagi seminar turi hisoblanadi. Uning farqi bir tomondan nisbatan to'liq tayyorgarlik ko'rilishida bo'lsa, boshqa tomondan u juda kam o'tkaziladi, sababi shundaki, uni o'tkazish uchun bitta guruh emas, bir qancha guruh yoki potok jalb eiladi. Konferensiyaning mavzusi rejaning umumiy mavzularidan olinishi shart emas. Ko'pincha u katta mavzuni, fanning biron bo'limini o'rganib bo'lgach amalga oshiriladi.

Press-konferensiya-seminar Agar seminarda muraakab bo'lgan nazariy muammolarni ko'rib chiqish nazarda tutilgan bo'lsa, uni press-konferensiya shaklida o'tkazish mumkin bo'ladi. Ushbu shaklning quyidagi ko'rinishlari ma'lum:

- guruh muammoga doir savollar tuzadi, eng ko'p savol tuzgan talabalar press-konferensiya ishtirokchilari guruhiga (savollarga javob beruvchilar guruhiga) kiritiladi;

- guruh savollar tuzadi va eng qiziq savollarning mualliflari stol yoniga o'tkaziladi, ular guruhga o'z savollarini beradilar;

- guruh savollar tuzadi o'qituvchi esa ular orasidan auditoriga qarab o'tiruvchilarni, savollarga javob beruvchilarni tanlab oladi;

- savollardan kichik guruhlar tuziladi, ular o'qib eshittirilgach guruh nisbatan mantiqiy va qiziq savollar "paketini" aniqlaydi, savol mualliflari ularni guruhga beradi; 3-6 kishidan iborat bo'lgan guruh optimal guruh hisoblanadi. Guruhlarga birlashtirish o'qituvchi tomonidan (asosan xaqqoniy ravishda) qur'a tashlash yo'li bilan yoki o'z tanloviga binoan amalga oshirilishi mumkin. Ochiq munozara-seminari ko'pgina o'qituvchilar tomonidan guruhda yoki kursda o'tkazilishi tavsiya etiluvchi mashg'ulot turlaridan biridir.

Bunday seminarda munozara uchun olib chiqiladigan savollarning mazmuni bizning ilmiy adabiyotlarimizda muhokama etiluvchi muammolar bo'yicha bo'lishi mumkin. Bunda bir talabaga faqatgina bitta nuqta'i-nazarni bayon etish, boshqa talabaga esa boshqa nuqta'i-nazarni bayon etishiga ruhsat beriladi.

Ochiq munozarani shunday tashkil etish muhimki, talabalar tortishayotgan tomonlarning ham kuchli, ham kuchsiz qirralarini ko'ra olsinlar. Agar ilmda munozaraning yakuni yasalgan bo'lsa va nuqta'i-nazarlarning biri umumqabul qilinsa, o'qituvchi seminarda ham bu fikr qayd etilishini ta'minlashi kerak.

Ochiq munozara-seminari ishtirokchilarning dialogik muloqoti jarayoni sifatida tashkil etiladi, bu jarayonda talabalar yuqori darajadagi qiziqish va faollikni namoyon etadilar, ishga ijodiy yondoshadilar.

Munozara biron-bir fanga doir keng qarashlarning mavjud bo'lganida amalga oshiriladi. Aks holatda faqatgina mavzuni muhokamasi bilan chegaralanish mumkin bo'ladi.

Munozarani mavzuli yo'naltirilgan bahs tarzida amalga oshirilishini tashkil etishning muhim shartlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- munozaraning barcha ishtirokchilari unga tayyor bo'lishlari lozim;
- munozaraning har bir ishtirokchisi o'z chiqishiga oid aniq qisqa tezisga ega bo'lishi kerak;
- munozarani joylantirish uchun "mashq" qilib ko'rish mumkin;
- munozara ishtirokchilarning so'z bellashuvi bo'lmasligi, balki muammoni xal etishga qaratilishi lozim.

Ushbu muammoning xal etilishi uchun muhokama ishtirokchilarining o'zaro harakatlarning to'g'ri tashkil etilishi juda muhim hisoblanadi.

Chet ellik tadqiqodchilar ochiq-munozara – seminari vaqtida talabalar va o'qituvchining fazoviy joylashuvi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadilar. Ishtirokchilarning yuzma-yuz joylashuvi, ya'ni "aylana stol" tamoyili asosida o'tirishlari bir-birlariga qarata aytiluvchi fikrlarning ko'payishiga olib keladi. Agar o'qituvchi talabalarning orasida o'tirsa yoki kuzatuvchi sifatida tinglovchilarga yon tomoni bilan o'tirgan bo'lsa ishtirokchilar unga murojaat etmay, bir-birlariga murojaat etadilar. Bunday holat o'qituvchiga guruhni boshqarishga xalal bermaydi va ishga doir muhitni nisbatan kamaytiradi.

Didaktik o'yin – seminari. Bu guruh bilan xal etilishi lozim bo'lgan qandaydir pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va jonlantirishni (o'ynashni) nazarda tutadi. Bunday tashkil etiluvchi seminar shakli o'qituvchining boshqaruvi ostida guruhdagi talabalarning faol o'zaro hamkorligini ta'minlab beradi.

"Aylana stol" – seminari. Ikki ko'rinishdagi aylana stolni farqlash mumkin. Birinchisi ishtirokchilar sonining nisbatan ko'p bo'lmasligi bilan ajralib turadi (akademik guruh). "Aylana stol" atrofidagi munozara barcha ishtirok etuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu holatda "aylana stol"ning bevosita ishtirokchilari yarim aylana ko'rinishida joylashtiriladilar va barcha boshqa ishtirokchilarga nisbatan "jamoaviy ma'ruzachi" sifatida qatnashadilar, tanlangan mavzuni yoritilish yo'nalishlarini belgilaydilar, ovoz chiqarib muhokama qiladilar, xodisalarning ichki qarama-qarshiliklarini ochib beradilar. Ishtirokchilar o'zlarining savollari, fikrlari, tanqidiy muloxazalari, e'tirozlari bilan shaxsan qatnashishlari mumkin bo'ladi.

G.N. Panarinoy tomonidan ishlab chiqilgan aylana stol qarshisida seminar olib borish metodikasi o'zgacha qiziqish uyg'otadi. Unga ko'ra, pedagogik fanlar bo'yicha seminarga tayyorlanish uchun talabalarga "an'anaviy" tarzdgagi savollar va kerakli adabiyotlar taklif etiladi. Bevosita seminarda savollar o'zgacha ko'rinishda

(redaksiyalangan tarzda), muammoli ravishda taqdim etiladi, bunda talabalarning fikrlariga qarshi fikr bilinib turishi lozim bo'ladi. Mashg'ulotning boshida, muammo e'lon qilib bo'lingach "aylana stolning" har bir ishtirokchisi savollar ma'nosini chuqurroq anglab olishi uchun savollarning biri bayon etilgan kartochkalamni oladi. Taklif etilgan savol ustida fikrlab olingach (3-5 daqiqa) o'rganilayotgan muammo bo'yicha o'quv munozarasi tashkil etiladi. Har bir savolni muhokamasini uning javobini o'ylab ko'rish imkoniyati bo'lgan talaba (talabaga berilgan kartochkada aynan shu savol bo'lgan) boshlab beradi, biroq munozaraga darhol boshqa ishtirokchilar ham qo'shiladilar. Munozarani jonlantirish va "aylana stol" ishtirokchilari tomonidan muammoning to'g'ri yechimini topish uchun buyuk va mashhur pedagoglarning fikrlari, jumllar va gazetada nashr etilgan maqolalar, amaliyotda uchragan misollardan namunalar va boshqalar keltiriladi. «Aqliy hujum» - seminari. Ushbu metodikaning o'tkazilishi ta'lim berish amaliyoti va boshqaruv masalalarini qabul qilishda juda mashhur hisoblanadi. Uni yanada batafsil ko'rib chiqamiz.

"Aqliy hujum" – hamkorlikning shunday shakli, barcha guruhning hamkorlikdagi faoliyati nazariy yoki amaliy muammoning original va engmaqbul yechimini topishga qaratilgan. Aqliy hujumni o'tkazishning juda ko'p metodikalari mavjud. Ularning tanlovi muammoning, ijodiy guruhning harakteri va boshqa omillarga bog'liqdir

Aqliy hujum ishtirokchilari uchun qoidalar.

1. Eng ko'p miqdordagi g'oyalarni bayoyen eting. Sifatdan ko'ra miqdorga ko'proq e'tibor qaring. Jumllarni qisqa tarzda bayon eting.

2. Hech qanday tanqid, e'tiroz va xazil qilinmasin!

3. Barcha g'oyalarni qabul qiling ( hattoki, aql bovar qilmaydiganlarini ham), mantiqiy fikrlashga emas, balki fantaziya, faraz, taxminni ortiqroq biling.

Aqliy hujum uchun taxminiy belgilangan vaqti.

1. Aqliy hujum o'tkazilishini e'lon qilish va vazifa mazmunini tushuntirish ( 2-3 kun avval).

2. Aqliy hujum seansi (1,5-2 soat).

- ishtirokchi va guruhlarni, AH qoidalari bilan tanishtirish (5-10 daqiqa),

- vazifani e'lon qilish, savollarga javob berish (10-15 daqiqa),

- Aqliy hujum ni o'tkazish (20-30 daqiqa),

- tanaffus (10 daqiqa),

- g'oyalarning redaksiyalangan ro'yhatini tuzish (30-45 daqiqa)

Xona yorug' va qulay bo'lishi kerak. Ishtirokchilar bir-birlarini ko'rib turadigan tarzda o'tirishlari lozim (aylana yoki P shaklidagi stol). Aqliy hujum natijalarni qayd etib borish vam ishga doirlashtirishga e'tibor qaratish kerak. O'qituvchi barcha g'oyalarni doskaga, flipchartga yozadi yoki ekranda ko'rsatiladigan qilib jihozlangan kompyuterda terib boradi. Bu vazifani biron-bir talabalardan biri bajarishi ham mumkin.

Aqliy hujum so'ng g'oyalar ro'yhatini jamoaviy ravishda tezda redaksiyalash amalga oshiriladi. Ularning barchasi guruhlar bo'yicha taqsimlanaldi: darhol amalga oshirish mumkin bo'lgan g'oyalar, nisbatan samarali va istiqbolli g'oyalar va boshqalar. Hayotga tadbiiq etish uchun umuman tuturiqsiz va murakkab bo'lgan

g'oyalar ro'yhatdan chiqarilib yuboriladi. Shundan keyin ro'yhatni oxirgi marotaba qabul qilinadi.

Kollokvium – seminar. Kollokvium, ya'ni talabalar bilan suhbatlashishning maqsadi talabalar bilimining darajasini qay darajada chuqurligini bilib olishdir. Ayrim holatlarda uni dasturda ko'rsatib o'tilmagan, biroq talabalarda u yoki bu qismlari bo'yicha qiziqish uyg'otuvchi qo'shimcha mavzular bo'yicha ham o'tkaziladi. Boshqa holatlarda esa guruh tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmagan kursning biron-bir murakkab mavzulari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar bo'yicha o'tkaziladi. Va nihoyat, kollokviumlar biron sababga ko'ra oxirgi seminarlarda javob berib baholanmagan yoki ularda qatnashmagan talabalarning bilim darajalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday vaziyatda kollokvium o'tilgan mavzular bo'yicha o'ziga xos zachyot vazifasini amalga oshiradi.

Tadqiqod – seminar. Maxsus seminarini o'tkazishda seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos shakli – tadqiqod-seminari qo'llanilishi mumkin. Birinchi- uchinchi kurslar mobaynida olib borilgan seminarlar talabalarni ma'lum bir ilmiy muammo bo'yicha tadqiqod ishlarini olib boruvchi yosh tadqiqodchilar maktabi vazifasini bajaruvchi maxsus seminariga tayyorlaydi. Obro'li mutaxassis tomonidan o'tkaziluvchi maxsus seminar ilmiy maktab xarakteriga ega bo'lib, talabalarni jamoaviy fikrlash va ijod qilishga tayyorlaydi. Maxsus seminar davomida talabalarning mos ravishdagi guruhda ishlay olish ko'nikmasi, guruhda mo'ljal ola olishi va to'g'ri baholashi, maxsus usullarni qo'llay olishi muhim o'rinni egallaydi. Yakuniy mashg'ulotda o'qituvchi, qoidaga ko'ra, o'rganilgan muammolarning keyingi rivojlanishi va bu jarayonda talabalarning ishtirokini ochgan holda seminarlar va talabalarning ilmiy ishlarini to'liq obzorini amalga oshiradi. Bu kasbga yo'naltirishning va defektolog-mutaxassislarining kasbiy o'ziga xosligini shakllantirishning samarali usullaridan biridir. Tadqiqod-seminarini tashkil etishda talabalarning (turli kursdagi, fakultetdagi, oliy ta'lim muassasalaridagi) hamkorlikdagi tadqiqodloyihalarni, bir muammo bo'yicha solishtirma tadqiqodlarini kuchaytirish, shuningdek, amaliyotchi – tadqiqodchilarning o'z tadqiqodlarini master-klass ko'rinishida taqdimot qilishlariga jalb etish alohida o'rinni egallaydi.

Tashkilot, muassasa va x.k.da seminar.Bevisita muassasa, maktab, bolalar MTM negizida seminar-mashg'ulotini olib borishning bir shaklidir. Bunday seminarlar tez-tez amalga oshirilaverilmaydi, chunki, ularga tayyorgarlik juda ko'p vaqtni sarflashni talab etadi. Shu bilan birga ularni o'tkazish ayniqsa talabalarni bo'lajak faoliyatlarini bilan tanishtirishda juda katta samara beradi.

“Ishga doir o'yin”-seminari. Bu holatda seminar rolli “ko'rsatmani” oladi. Qanday material muhokama etilayotganidan kelib chiqqan xolda boshlovchi, opponent, resenzent, mantiqchi, psixolog, ekspert va x.k. rollarni kiritish mumkin

Sharhli o'qish va hujjatlarini (adabiyotlarini) tahlil etish.Dastlabki manbaalarni sharhli o'qish – bu seminarining shunday turki, bunda, o'qituvchining ko'rsatmasiga ko'ra talabalarning biri ovoz chiqarib uyoki bu asarni o'qiydi, so'ngra, o'qiganlarini qanday tushunganligini tushuntirib beradi. Boshqa talabalar esa aytilganlarni to'g'rilaydilar va qo'shimchalar kiritadilar. Keyin navbatdagi qismni boshqa talaba o'qiydi, yana o'qilganlarning muhokamasi amalga oshiriladi va x.k. Mustaqil fikrlab vazifalarni xal etish. Test topshiriqlari va mashqlarni seminar mashg'uloti davomida

yechilishi talabalarning faol tafakkurini rivojlanishi uchun juda foydalidir. Agar yaqin kunlarga qadar masalalarning yechilishi tabiiy fanlar doirasidagi mashg'ulotlarda amalga oshirilgan bo'lsa, oxirgi yillar davomida bu gumanitar fanlar doirasidagi mashg'ulotlarda ham qo'llanilib kelinmoqda.

Xuddi shunday, tarbiyaviy ishlar metodika bo'yicha seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda psixologo-pedagogik masalalar taklif etilishi mumkin. Mutaxassislik bo'yicha barcha fanlarni o'qitishda kata samara bilan test topshiriqlardan foydalanilmoqda.

Tinglash maxorati yeng faol maxoratlardan biri bo'lib u fikrlash jarayoniga asosan taxlil qiladi. Tinglash qobiliyati tinglovchining xis kechinmalariga bog'liq bo'lib bu xissiyot tinglovchining ichki va tashqi holati shu bilan birga bilimiga asosan tushunchalariga tayangan xolda ko'rsatkich kelib chiqadi.

- Nima aytildi? matn
- Qanday aytildi? ton va xissiyot
- Qachon aytildi? vaqt
- Qayerda aytildi? joyi

Tinglash jarayoni tinch xolatda lekin so'zlovchiga e'tibor bilan o'tadi sxema qo'yidagicha ta'riflanadi javob qaytarishning bir nechta usullari mavjud bo'lib shu bilan birga javoblarning ham bir nechta mazmuni mavjud. Turli xil javoblar o'quvchilarning fikr va bilimlaridan kelib chiqqan xolda individual va jamoaviy bo'lishi mumkin. Ta'lim sifatini kafolatlash maqsadida o'rganish va ta'lim nazariyadan foydalangan holda ta'lim xususiyatlarini sistematik ishiab chiqish. O'qitish va qo'llab-quvvatlashning pedagogik prinsiplaridan kelib chiqsak, talabalarning o'rganishi onlayn yoki internetga asoslangan modullarni, kurslarni va dasturlarni tuzish va ishlab chiqishga moslashtirilishi lozim. Sxema juda muhim jihat, chunki u o'rganishning maqsadlari va talablarini tahlil qilishning butun jarayoniga taqaladi, va o'qitish sistemasini ishlab chiqish ushbu talablarga mos kelishi lozim. U o'qitish materiallarini, faoliyatni, amaliyot elementlarini ishlab chiqish (ko'pincha texnologiyalardan foydalangan holda) va va barcha o'qitish va o'rganish faoliyatini baholashni o'z ichiga oladi.

Ushbu bo'lim kichik guruhlarda dars o'tish usullarini tahlil qilib bir nechta guruh shakllari ko'rsatib berilgan. Guruhdagi xolat va jarayon taqdim yetilgan fikr va mulohazalar ko'rsatilgan. Bo'limni o'qib chiqib kichik guruhlarda dars berish faoliyatida maxoratni oshirib dars o'tish sifatini yaxshilash mumkin.

Oliy ta'limda o'qitishning yana bir shakli-bu **seminar** mashg'ulotidir. Seminar mashg'ulotlari quyidagi **vazifalarni** yechishga qaratilgan bo'ladi:

- ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;
- fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;
- nazariy o'qitish jarayonida egallagan bilimlarining amaliyotda tan olinishi.

Seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: seminaroldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar.

**Seminaroldi mashg'ulotlari**, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi,



talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayyorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi.

Seminar oldi mashg'ulotlarida o'qituvchi yetakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

**Seminar mashg'ulotlarida** seminaroldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'lan-gan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqa-lari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi.

**Maxsus seminarlar** ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalala-rini chuqur o'rganish maqsadida ko'llaniladi.

Seminar mashg'ulotida o'qituvchi ham tashkilotchi, ham maslahatchi, ham notiq, ham tanqidchi, ham tarbiyachi vazifasini bajaradi.

O'qituvchining seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishi va o'tkazishi bo'yicha maslahatlar:

- mashg'ulotning maqsad va vazifasini aniqlash;
- seminarning mazmunini teran o'rganish;
- talabaning kerakli ma'lumotlarni topishi uchun adabiyotlarni to'g'ri tanlash;
- savollarni to'g'ri shakllantirish;
- talabalarini seminar savollari va adabiyotlari bilan 10-14 kun oldin tanishtirish;
- talabalarni og'zaki javob berish bilan birga ko'rsatmali materiallardan ham foydalana olishga yo'naltirish;
- guruhrning seminar mashg'ulotiga to'liq tayyor bo'lishini ta'minlash;
- mashg'ulotda hamkorlik va hamjihatlik muhitini o'rnatish;
- talabalarni mustaqil fikr yuritishga, har bir savol bo'yicha o'zining xulosasi bo'lishiga o'rgatish;
- xar bir talabaga xar xil ish turlarini ishlab chiqish. Masalan, taqriz, chiqishlarni muhokama qilish, krossvord yechish va h.
- har bir savolni muhokama qilishga ajratiladigan vaqtni belgilash va uni talabalarga oldindan eslatib qo'yish;
- mashg'ulot yakunida materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish;
- seminar mashg'ulotiga qatnashgan talabalarni baholash;
- mashg'ulot yakunidan so'ng uni o'zi tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash.

**Seminar mashg'ulotlarining** vazifasi-darslarda bayon qilingan nazariy fikrlarni konkretlashtirish, chuqurlashtirishdan, o'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlashdan, adabiyotni o'rganish ko'nikmasini hosil qilish, uni konspekt qilish, suhbatlar, dokladlar, ota-onalar uchun konsultatsiyalarning plan va konspektlarini tuzishdan, kursning konkret temasimi og'zaki bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishdan iboratdir.

Seminar mashg'ulotlari uchun kursning eng muhim va murakkab masalalari shuningdek, adabiyotlarda yetarli darajada to'liq yoritilgan va o'quvchilarning o'zlariga mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin bo'lgan masalalar tanlab olinadi.

Seminarin g har bir temasi bo'yicha o'quvchilarga adabiyotlar ro'yxatini berish, topshiriqning xarakterini belgilash, uni bajarish plani va hisobot formasini ko'rsatish kerak. Adabiyotlarni o'rganayotganda o'quvchilar konspekt yoki o'ta-onalar uchun konsultatsiyalarning tekstlarini tuzadilar.

Seminar mashg'ulotlarini quyidagicha tashkil etish mumkin: avvalo o'qituvchi seminarining vazifasi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi. So'ngra nutq so'zlash uchun o'quvchilarga so'z beradi. Shundan keyin ishtirok etuvchilar nutq so'zlaganlarga savollar beradi, ular javob qaytarishadi. Keyin boshqa o'quvchilar nutq mazmuniga xarakteristika berib, uni to'ldiradilar (yutuq va kamchiliklar ko'rsatiladi). O'qituvchi seminarini yakunlar ekan, asosiy nutqni baholaydi, uning mazmunini, ifoda formasini ko'rganazmali qurollar (jadvallar, rasmlar, fotosuratlar va boshqalar) dan foydalanish darajasiga xarakteristika beradi, shuningdek, boshqa o'quvchilarning nutqlari to'g'risida ham fikr mulohazasini aytadi. Mashg'ulot so'ngida qo'yilgan vazifa qanday bajarilganligini aytib o'tish va navbatdagi seminariga tayyorlanish uchun tavsiyalar berish muhim.

Ma'ruza mavzu bo'yicha qilinadigan suhbat, seminar bo'lib, bu o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulot o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat ko'rsatish, darslik bilan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatining rivoj topishiga yordam beradigan darajada bo'lishi lozim.

Seminarlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasi dan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

Seminar mashg'uloti o'quvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash hamda uni sinf o'quvchilari bilan muhokama qilish yo'li bilan olib boriladi.

Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadilar, material yig'adilar, turli kuzatishlar o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.

Seminar mashg'uloti o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. U o'quvchilar ishini yo'naltirib turadi, mavzuga oid savollari yuzasidan tashkil etilgan muhokamani yakunlaydi. Zarur qo'shimcha mulohazalar bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi. Ma'ruza qilgan, muhoqamada qatnashgan o'quvchilar faoliyati baholanib boriladi.

Seminar mashg'uloti o'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, ularni mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatish, darsni faollashtirish hamda o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini o'stirishda muhim o'rin tutadi.

### **Seminar va uning o'ziga xosliklari**

Se minar-bu o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- 1) nazariy materialni tartibga solish;
- 2) bilimlarni mustahkamlash;
- 3) ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- 3) bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Nima uchun?-Seminar tashkil etishdan ko'zlangan maqsad.
2. Qanday tarzda?-Seminar olib borish texnologiyasini ishiab chiqish.
3. Nimani muhokama qilish?-Seminar olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.
4. Qanday omillarni hisobga olish zarur?-Seminar tashkil etish jarayonida ma'lum omillarni hisobga olish.

#### **Seminar turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari**

<b>Seminar turlari</b>	<b>O'ziga xos xususiyatlari</b>
Ma'ruza(doklad)li seminar	Seminar mashg'uloti o'quvchilarning ma'ruzalarini tinglash va munozara shaklida o'tkaziladi.
Dialogli seminar	Seminar mashg'uloti ommaviy va individual savol-javoblar tariqasida tashkil etiladi
Refleksiv seminar	Seminar mashg'uloti mavzuga doir ma'lumotlarni muhokama qilish va aniq xulosalarga kelish tarzida o'tkaziladi.
Seminar-fikrlar almashuvi	Seminar mashg'ulotini tashkil etishda manbalardan foydalaniladi va turli fikrlarni shakllantirishga erishiladi
Seminar-illyustratsiya	Seminar mashg'uloti manbalar bilan ishlash tarzida tashkil etiladi va materiallar illyustratsiya tarzida namoyish etiladi.
Evristik seminar	Seminar izlanishli-topshiriqli tarzda tashkil etiladi.

#### **6.4. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari, mashg'ulotlarni loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.**

Laborator (amaliy) mashg'ulotlar – o'quv fanining ilmiy-nazariy asoslarini bilib olish, ijodiy faliyat ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lish, texnik vositalarni qo'llagan xolda zamonaviy amaliy ishlash metodlarini o'zlashtirish maqsadida o'qituvchi nazorati ostida talabyualar tomonidan o'quv topshiriqlari kompleksini bajarishni nazarda tut uvchi o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

"Laboratoriya" so'zi lotin tilidagi "labor"so'zidan olingan bo'lib, mehnat, ish, qiyinchilik degan ma'nolarni bildiraditrud, rabota, trudnost. Laborator (amaliy) mashg'ulotlar ularni bajarishning nazariy asosini yoritib beruvchi ma'ruzalardan so'ng amalga oshiriladi. provodyatsya vsled za lektsiyami, dayushimi teoreticheskiye

osnovi ix vipolneniY. Muhim nazariy ma'lumotlar yoki ushbu ma'lumotlarni qamrab olgan aniq o'quv nashriga ssilkasi (ko'rsatmasi)ni qamrab olgan laborator (amaliy) ishlar tavsifi keltirilganda nazariy materiallarni o'rganishni yengillashtirish maqsadida laborator (amaliy) mashg'ulotlarni ma'ruzadan oldin o'tkazilishi mumkin bo'ladi.

Laborator (amaliy) mashg'ulotining maqsadi real amaliy faoliyat sharoitda talabalarning boshqariluvchi bilish faoliyatini tashkillashtirishdan iborat. Laborator (amaliy) mashg'ulot tuzilishiga xos bo'lgan elementlar: kirish, asosiy va yakuniy qismlardir.

Kirish qismi talabalarning ish topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. Uning tarkibiga: mavzu, maqsad va vazifalarni bayon etish, talabalarning kasbiy tayyorgarligida uning ahamiyatini asoslash; ushbu mavzuning kursdagi boshqa mavzular bilan bog'liqligini ko'rib chiqish; ishning nazariy asoslarini bayon etish; ish topshiriqlari tarkibi va o'ziga xosliklarini tavsiflash, ularni bajarishga yondoshuvni (metod, usullarni) tushuntirish; ish natijalariga qo'yiladigan talabalarni tavsiflash; talabalar tomoning ishini boshlashga tayyorgarliklarini tekshirish; o'qituvchi nazorati ostida topshiriqdan bir namunani bajarib ko'rish; talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarilishida natijalarni mustaqil boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

Asosiy qism talabalar tomonidan topshiriqlarni mustaqil bajarishlarini nazarda tutadi. Ish jarayonida qo'shimcha tushuntirishlar; yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish; ish natijalarini joriy nazorat qilish va baholash; talabalar savollariga javob berish kabilar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

Yakuniy qism tarkibiga: mashg'ulotning umumiy xulosasini (ijobiy, salbiy) chiqarish; ayrim talabalarni ng ishlari natijalarini baholash; talabalarning savollariga javob berish; talabalar ish ko'rsatkichlarini yaxshilash va ularning bilim, malakalari tizimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish; o'qituvchi tomonidan bajarilgan ishlarni tekshirish uchun talabalarning hisobotlarini to'plash; keyingi ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, jumladan o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv adabiyotlar haqida ma'lumotlarni bayon etish.

Mashg'ulotlarda talabalar ishini tashkil etish shakllari: 1) frontal, 2) guruhli, 3) individual.

Mashg'ulotni frontal shaklda tashkil etishda barcha talabalar bir vaqtning o'zida bir xildagi topshiriqni bajaradilar. Bunday shakldagi amaliy mashg'ulotning odatiy misoli - talabalar tomonidan maktabda o'qitiladigan biron-bir fanning o'quv dasturini tahlil etilishidir. Yanabir misol talabalarning biri o'qituvchi, boshqalari esa o'quvchilar sifatida "dars o'tishlari" dir. Darsning yakunida talabalar tomonidan uning tahlili amalga oshiriladi, "o'qituvchiga" tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mashg'ulotni guruhli shaklda tashkil etishda bitta topshiriq bir nechta kishidan iborat bo'lgan kichik o'quv guruhlari bajariladi. Ikki kishilik (tekshiruvchi - tekshiriluvchi) yoki uch kishilik (tekshiruvchi - ota-ona - tekshiriluvchi) guruhchalarda psixologo-pedagogik yoki logorpedik tekshirishni o'tkazish -maxsus fanlar bo'yicha ko'pgina laborator ishlarning o'tkazilishning an'anaviy sxemasidir.

Mashg'ulotlarni individual shaklda tashkil etishda talabalarning har biri individual topshiriqni bajaradi. So'ngra ular ishni bajarish tajribasi bilan o'zaro almashadilar.

### **Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi**

**Laboratoriya mashg'ulotlari** oliy o'quv yurti o'qituvchisi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (ma'ruza va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va o'zlashtirishni nazorat qilish shakli;

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabaga nazariy bitimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik **tamoyillarga** amal qilinadi:

- laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtira olish va o'tkaza olish;
- laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash;
- laboratoriya mashg'ulotlari nafaqat konkret mavzu bo'yicha bilimlarni yanqulash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir

Laboratoriya o'quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni o'quvchilarning professor-o'qituvchi bilan birgalikda bajarishini o'zida aks ettiradi.

Laboratoriya mashg'ulotining bosh maqsadi-biror bir fanga doir nazariy qoidalarni amaliy jihatlarini ochib berish; o'quvchilarning o'rganilayotgan qonuniyatlarni o'ziga xosliklari va namoyon bo'lish shakllarini chuqur tushunishlarini ta'minlash; bo'lajak mutaxassislarda o'rganilayotgan obyekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko'nikmasini shakllantirishdir. Laboratoriya mashg'ulotlar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yangi bilimni egallash bo'yicha o'tkaziladigan laboratoriya mashg'uloti quyidagi metodik priyomlar orqali amalga oshiriladi:

- mashg'ulot mavzuini va amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlash;
- mashg'ulot tajriba-bosqichlarini aniqlab olish;
- mashg'ulotning borishini, ishning texnik xavfsizlikka rioya qilingan holda bajarilishini kuzatib borish;
- mashg'ulotni yakunlash, asosiy xulosani bayon etish.

Laboratoriyada o'tkaziladigan mashg'ulot-tajriba o'quvchilarning hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini, tajribada qo'llanadigan asboblarga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmasini, texnik bilimni egallab olishlariga zamin yaratadi.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha asboblardan foydalanib, biror hodisani reja asosida tadqiq etadilar. Amaliy mashg'ulotlarda mavzuning yirik qismlari o'rganiladi. Bu-umumlashtiruvchi tarzda bo'ladi. Mazkur ish faqat sinfda emas, balki simfdan tashqarida ham amalga oshiriladi.

Laboratoriya mashg'uloti quyidagi priyomlardan tashkil topadi:

- mashg'ulot maqsadini belgilash;
- bajariladigan ishni, unga rahbarlik qilish tartibini belgilab olish;
- ish tugagach, uni yakunlash.

Laboratoriya mashg'uloti jarayonida o'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanishlari, o'qituvchi bilan maslahatlashishlari mumkin.

### **Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi**

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchi-talabalarni biror-bir mavzu bo'yicha bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash uchun o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar-pedagogikadagi mustaqil ta'lim shaklidir. Amaliy mashg'ulotlarni o'ziga xos xususiyatlari shundaki quyiladigan vazifa, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etishni birgalikda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Amaliy mashg'ulotlarda tor doiradagi amaliy xarakterga ega bo'lgan masalalar hal etiladi. O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish ularga topshiriqlarni bajarishga yordam berishdan iborat bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni tashkil etishning frontal, guruhli, yakka qolda, juftli ishlash shakllaridan foydalaniladi. Bu esa o'qituvchiga alohida o'quvchilarda turli malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

O'quv fanlarining o'ziga xosliklarini va o'quv maqsadlarini inobatga olgan xolda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari quyidagilar: mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni hal etishga qaratilgan mashg'ulotlar, aniq topshiriqlarni modellashirish bo'yicha mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, ishga doir o'yinlar, darslar, korreksion mashg'ulotlar yoki tashxisni amalga oshirish bo'yicha taqlidiy mashg'ulotlar, maktab, MTM, kuzatish bo'yicha maxsus topshiriqqa ega boshqa maxsus muassasalar negizida ko'chma mashg'ulotlar, darslarni mustaqil o'tkazish va x.k.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning ayrim shakllari xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Vaziyatli-rolli o'yin quyidagicha tashkil etiladi. Vaziyatli-rolli o'yin quyidagicha tashkil etiladi. Talabalar guruhi oldiga diagnostik, didaktik va boshqa xarakterdagi amaliy topshiriqlar qo'yiladi. Talabalar orasida vazifalar taqsimlab beriladi. O'yinda ishtirok etuvchilarning har biri olingan ma'lumotlarni tahlil qilib chiqishi kerak, roliga mos xoldagi harakatlarni tavsiflashi va bajarishi ozim.

«Ishga doir o'yin» Amaliy mashg'ulotni qat'iy ssenariy bo'yicha "ishga doir o'yin" shaklida o'tkazish ham mumkin. Bunda boshlovchida (o'qituvchida) taqlid etiluvchi obyektini: autizm, aqli zaiflik, nutq buzilishlari va x.k. (bola yoki bolalar ota-onalarini differensial diagnostika qilish bo'yicha o'yinlar holatida) o'yin ishtirokchilarining (to'g'ri va noto'g'ri) turli harakatlariga bohliq ravishda tashxis qilishning mavjud variantlari, har bir bosqichdagi harakatlarning etaloni mavjud bo'ladi. Bolaning bunday tashxislari variantlari va ota-onalar, tekshiruvchilarning psixologik tavsifi uchun ham mos xoldagi harakatlar etaloni va qabul qilingan yechimlar bo'yicha yangi holatlar va x.k. mavjud bo'ladi. Shunday qilib, o'yinga

tayyorgarlik davrida tashkilotchi dastlabki vaziyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ko'ra bilishi, o'yin ishtirokchilariga talabalarning real harakatlari natijasida yuz bergan o'zgarishlar haqida ma'lumot berish uchun doimo tayyor bo'lishi lozim. O'yinni o'ynash uchun quyidagi metodik hujjatlar talab etiladi:

o'yin boshlovchisi uchun ko'rsatmalar;

o'yin ishtirokchilari uchun ko'rsatmalar;

mos ravishdagi xaritalar to'plami;

kerakli hujjatlar, didaktik materiallar, o'quv jihozlari, psixologo-pedagogik tekshiruv metodikalari va x.k.

Aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi o'yin asosida ta'lim berishning ilk shaklidir. Talabalar bilish jarayonlarini aniq vaziyatlarni tahlil qilish shaklida tashkillashtirish ta'lim oluvchilarning kontingentii va mashg'ulotning didaktik maqsadlaridan kelib chiqib bir qator ko'rinishlarga egadir. Ular qatoriga "mikrovaziyatlarni" yoki ma'ruza davomida kazu (chigallik)larni tahlil qilish, real hayotda yuz bergan ziddiyatli vaziyatlarni ko'rib chiqish, vaziyatli muammolarni xal etish va x.k.

Oliy maktab amaliyotida aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi tarbiyaviy ishlarda pedagogik ko'nikmalarni yanada rivojlantirish maqsadida juda ko'p qo'llaniladi. Materiallarni mos ravishda tanlashda va mashg'ulotni to'g'ri tashkillashtirishda vaziyatli topshiriqlar ko'rgazma, mashq, ilk tajribadlarni uzatish vositasi sifatida ham hizmat qilishi mumkin.

Ta'lim oluvchilar ularning kelajak faoliyatlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ziddiyat yoki vaziyatni to'liq tavsifiga ega bo'ladilar. Tavsif so'ngida ularning bittasi yoki bir nechta yuzaga kelgan ziddiyatning yechimi uchun mos bo'lgan harakatlarning ro'yhati keltiriladi. Harakatlarning bunday sanog'i ta'lim oluvchilarga nafaqat muammoning mavjud yechimlari variantlarini "aylantirish"ni, balki ularning har birining kutilmagan salbiy oqibatini va x.k.ni hayolan kuzatish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim oluvchi muammoni bir necha usulda yechishi va yechimsiz variantlarni maqsadga eltuvchi variantlardan ajratishga o'rganadi.

Keyingi safar o'qituvchi talabalarga amaliyotda kutilmagan natijalarni keltirib chiqargan, jiddiy yechimni talab etuvchi u yoki bu tanqidiy vaziyatlarni tahlil qilishni taklif etadi. Ta'lim oluvchilarning e'tiborini ular kelajakda mehnat qiluvchi sohada yuz bergan bunday holatlarga qaratish juda ham foydalidir. Ular shuningdek, eksperimental sharoitda ham, o'zlarining kundalik hulqlari bo'yicha nuqtai-nazarlarini shakllanishida ham foydalidir.

Har qanday shakldagi amaliy mashg'ulotning muhim tomoni mashq hisoblanadi. Mashqning asosi – ma'ruzada rivojlantirilgan nazariya bo'yicha xal etiluvchi misol hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, talabalar faoliyati mazmunini – topshiriqlarni xal etish, chizmalar chizish, to'g'ri tafakkur va nutqning asosi bo'lgan ilmiy kategoriya va tushunchalarni aniqlashtirishni belgilab beruvchi aniq ko'nikma va malakalarning shakllanishiga katta e'tibor qaratiladi. Mashqlarga misol sifatida matematika o'qitish maxsus metodikasi, tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi va boshqa mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda muammo va topshiriqlarni xal

etishni ko'rsatib o'tish mumkin. Talabalar bilan mashqni yechishda anglash va tushunish qobiliyatini shakllanishiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Trening (ingliz tilidagi train – «o'qitish», «tarbiyalash» degan so'zdan olingan) – bu ta'lim berishning faol metodi bo'lib, tajribali boshlovchi boshqaruvi ostida psixologik yo'naltirilgan guruhli mashg'ulotdir. Bunday mashg'ulotlarda hayotdan olingan istalgan odam bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlar o'ynaladi. Trening inson uchun muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, shuningdek, o'zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishga yo'naltirilgandir. Ta'lim berishning bunday metodi ko'pincha nafaqat yangi ma'lumot olish, balki olingan bilimlarning amalda ham qo'llanilishi talab etilganda qo'llaniladi.

Kichik guruhlarda o'qitish, o'qitish texnikalari orasida eng murakkab va yuqori malakaligi xakida ko'plab yozuvchilar (Bligh 1986, Griffith and Partington 1992) bahslashishgan. Talabalarga fikrlashni o'rgatish kabi asosiy maqsad bilan bir qatorda o'qituvchi bir qator yordamchi maqsadlarga ham ega bo'lishi kerak. Guruhlarni faoliyatiga nisbatan baholash, firklarashning ochiq namoyonligi, turli xil fikrlarning mavjudligi, yangi g'oyalarning qabul qilinishi va samimiylik yani guruhda o'quv jarayonini ustunliksiz yuritish bularning barchasi kichik guruhlarda o'qitish jarayonini samarali yuritish uchun muhim xisoblanadi. Mazkur belgilar barcha xususiyatlar orasida yillar davomida rivojlanib kelayotganlardan eng mukammali hisoblanadi. Kichik gurublarda qanday o'qitishni o'qituvchilar bilan bir qatorda, kichik guruhlarda o'qitish jarayonida qanday ishlashni talabalar ham o'rganishlari shart. Bunda, talabalarni o'rganishga undash, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otish, va mantiqan guruh imkoniyatlarini amalga oshirish o'qituvchining vazifasidir. Bundan tashqari o'qituvchi bu usullarini amalda ko'rsatilgandan ham ko'proq qo'llaydi.

Kichik guruhlarda o'qitish, o'qitish texnikasining murakkab va yuqori malakala turlaridan biri ekanligini takidlash uchun yana bu usul eng foydali usullar orasida o'qituvchilarga ham talabalarga ham birdek maqul usul ekanligini aytib o'tish kerak.

Kichik guruhlarda o'qitish jarayoni deganda 2 tadan 20 tagacha talabani jamlash xisoblanadi. Ishtirokchilar talabalar yoki ularning o'qituvchilari, shu bilan birga o'zlari uchun ishlaydigan talabalar ham bo'lishi mumkin.<sup>9</sup>

Kichik guruhlarda o'qitish tizimi tabiatidagi millatlararo va o'zaro bajarilgan xarakat talabalarni ma'lumotni o'zaro o'tkazib o'z ta'lim jarayoni bilan band qiladi. Kichik guruhlarda o'qitish tizimida talabalar o'z ta'limi bilan bir qatorda birlashgan holda o'z aqliy, shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini oshirib borishadi. Bundan tashqari, talabalarning turlicha usullar bilan ta'lim olishlari va tajribaga ega bo'lishlari ularga o'zgacha zavq bag'ishlashi talabalar o'zlashtirishi uchun kuchli asoslardan biri xisoblanadi (Rudduck 1978, Luker 1989). Shu bilan birga tushuncha va bilimdan foydalanish uchun talabalarga ishtirok etish tavsiya qilmadi unki tajribaning muhim shartlaridan biri ishtirok etish. Ushbu yangiliklarni qo'llash guruhni tuzish va yuritish, shu bilan birga guruhdagi munosabatni kuzatib borib uni rivojlantirish juda muhim xisoblanadi.

---

<sup>9</sup> A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter VI: Teaching and learning in small groups, Sandra Griffiths, 72-84 p.



Kichik guruhlarda asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishning o'zlashtirilishi tanqidiy maxanzimga asoslanib yuritiladi. Bu asosiy ko'nikmalarga bo'lgan qiziqishni tiklab, guruhda ishlash tizimini yangi pog'onaga ko'taradi. Kichik guruhlarda o'qitish tizimi shuni namoyon qildiki o'ziga bo'lgan ishonch kuchaytirilishi xamda jamoada ishlash va millatlararo aloqani rivojlantiradi. Guruh ishi va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish talabalar uchun majburiy shartlardan biri bo'lib, ular o'z ozlashtirish usullarini kuzatish natijasida boshqa usullar bilan taqqoslab topshiriqlarga asosan usullarini o'zgartirishlari xamda fanni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan. (Griffiths 1996) Ushbu belgilar odatda chuqur o'zlashtirishning chegaraviy belgilari bo'lib xizmat qiladi.

Kichik guruhlarda o'qitish va ta'lim olish birdaniga muvafaqiyatli bo'lib qolmaydi. Kichik guruhda o'qitish tizimida rejalashtirish boshqa o'qitish tizimlari uchun qanchalik muxim bo'lsa, shunchalik muhim xisoblanadi. Bunday fikr bazan etiborsiz qolib ketadi chunki kichik guruhlarda o'qitish bir qaraganda tuzumsiz tashkil etilgandek tuyuladi.

Bazi ma'ruzalar tashqi ko'rinishi bo'yicha kichik guruhlarda o'qitish tizimining noan'anaviy, yo'qotilgan yoki tugatilmagan tomonlarini jiddiy qabul qilishmaydi. Boshqalar bu turdagi ma'lumotdan seskanib uni kichik guruhlarda o'qitish tizimida xaos bo'lib keyinchalik terapiyaga aylanishi mumkin deb xisoblashshadi. O'qitish usullarining barchasi reja asosida olib borilishi zarur, bunda turli xil usullarni tadbix etish va har birini alohida rivojlantirish kerak.

Ma'lumotning bu turdagi ko'rinishi aldamchi xisoblanadi. Norasmiy guruhlarining tashki tomoni aldamchi bo'lib ichki qismida barcha talabalar belgilangan aytiladigan yoki aytilmaydigan qoidalar bo'yicha o'ynashadi. Boshqacha qilib aytganda, fikr va g'oyalarning kreativ qo'llanilishi imkoniyatlari va boshqaruvchining belgilab qo'yilgan vazifalari, oldindan tizim obyektlariga muvofiq tayyorlab qo'yilgan. Bunday tizimli ish yuritishda talabalarning o'z g'oyalarni rivojlantirish natijasida qoniqishlarini kuzatish mumkin. Shu bilan birga muhim tomonlardan biri kichik guruhlarda o'qitish tizimida ishtirokchilar o'zlarini erkin xis etib maxorat va tajribalarini oshirib borisglari mumkin. Kichik guruhlarda o'qitishni rejalashtirishda o'qituvchi ko'plab formalardan foydalanishi mumkin. Bu boshqa bit o'quv tizimini rejalashtirish bilan deyarli bir xil shaklga ega bo'lishi mumkin. Tipiklikdan kelib chiqib o'qituvchi o'zlashtirish natijalariga asoslanib kichik guruhda ta'lim berish uchun xoxishiy biron bir usulni yoki o'zlashtirish faoliyatini tanlashi mumkin.

Bunday umumiy xususiyatlardan tashqari talim jarayoni o'ziga xos spesifik talablarga asosan o'ziga xos tartib intizomga, institutlar madaniyati, programma kontekstini va modul shakli ayniqsa talim jarayonida talabalarning oldingi bilim darajasini xisobga olish kerak.

Reja qaysi shaklda tuzilganidan qat'iy nazar, kichik guruhlarda o'qitish tizimining tanqidiy va aniq maqsad bilan takidlab o'tilgan. Kichik guruhlarda o'qitishda qanchalik ko'p oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshishini so'rash juda foydali, bu ko'plab shakllardagi modellarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar uchun foydali shu bilan birgaularni qoniqlantiradigan narx belgilash lozim.

Qisqacha qilib aytganda o'qitishning maqsadi hamda tarkibiy qismi ko'rsatib o'tilgan talab va ehtiyojlarga mos bo'lishi kerak.

### Nazorat uchun savollari

1. Maktabgacha pedagogika turkum fanlarni o'qitishning innovatsion metod va vositalari.
3. Keys-stadi metodi.
4. O'qitishning maqsadi va vazifalari.
5. Mavzuning mazmuni.
6. O'qitish tamoyillari va pedagogning pozitsiyasi.
7. Talabalarning o'quv imkoniyatlari.
8. O'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarga qo'yiladigan talablar.
9. O'qitishning an'anaviy metodlarini izohlang.
10. Interfaol metodlarni izohlang.
11. Ma'ruza va ma'ruzaning ahamiyati.
12. Ma'ruza va uning turlari.
13. Ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.
14. Ma'ruzaga qo'yiladigan talablar.
15. Yakuniy yoki umumlashtiruvchi ma'ruza.
16. Ma'ruza va uning o'ziga xosliklari
17. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.
18. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.
19. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.
20. O'qituvchining seminar mashg'ulotiga tayorgarlik ko'rishi va o'tkazishi bo'yicha maslahatlar.
21. Mashg'ulotning maqsad va vazifasini aniqlash.
22. Seminarining mazmunini teran o'rganish.
23. Talabaning kerakli ma'lumotlarni topishi uchun adabiyotlarni to'g'ri tanlash.
24. Savollarni to'g'ri shakllantirish texnologiyasi.
25. Talabalarini og'zaki javob berish bilan birga ko'rsatmali materiallardan ham foydalana olishga yo'naltirish texnologiyasi.
26. Guruhning seminar mashg'ulotiga to'liq tayyor bo'lishini ta'minlash.
27. Mashg'ulotda hamkorlik va hamjihatlik muhitini o'rnatish.

## **VII BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISHDA TALABALARNI BILIMLARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI**

### **7.1. Talabalar bilimlarining reyting nazorati.**

Mutaxassis tayyorlashda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanish jarayonini nazorat qilish muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan nazariy talablarni, olinayotgan bilimlarni yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyaga ega:

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o'stirish funksiyasi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi.

4. Ta'lim funksiyasi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi.

6. Nazoratning baholash funksiyasi.

7. Nazoratni talabalarda bilimga qiziqishni uyg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi. Nazorat joriy, oraliq, yakuniy kabi 3 ta turga ega.

Nazorat turli testlar, yozma ishlar va og'zaki savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;

- hamma talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;

- test natijalarini o'qituvchi tomonidan tezlikda tekshirish mumkin;

- turli guruh talabalarini bilimini solishtirish, qo'llanilayotgan metodni samaradorligini aniqlash mumkin;

- ta'lim jarayonining kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Test atamasi inglizcha-sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib «Sinalayotgan shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar» demakdir.

Pedagogik, uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi 2 guruhga ajratildi:

a) nazariy bilimlarni nazorat qiluvchan, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;

b) real, o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Y.Babanskiy) diagnostika testlar hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning strukturaviy o'zaro aloqadorligi va ta'riflari quyidagi omillarga bog'liqdir.

1. Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.

a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olmagan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini o'rnatish;

v) ko'p fanlar bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

2. Normativ test tuzilishining umumiy yo'nalish bo'yicha maqsadi yoki kriterial xarakterdagi testlardagi turkum farqi shundaki, normativ testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra bir guruhni boshqa guruh bilan guruh ichidagilarni esa bir-biri bilan solishtirish mumkin.

Kriterial testlarda esa har bir o'quvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini yechish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni kriterial testlar va unga mos topshiriqlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Normativ testlarda, asosan topshiriqni «yechdi» yoki «yechmadi» deb belgilansa, kriterial testlarda esa topshiriqni qaysidir yo'l bilan yechgan o'quvchilarni murakkab ishlarga quyish mumkinligi, ularning murakkab dasturlar bo'yicha ishini javom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

3. Testlarning didaktik-psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi:

a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;

b) berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;

v) o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning sikli bo'yicha o'quv imkoniyatlarining diagnostikasi).

4. Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:

a) kirish nazorati (oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni fan iqlimini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);

b) kundalik (joriy) nazorat har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha;

v) chegaraviy nazorat oraliq ma'lum fanning alohida bo'limi tugashi munosabati bilan o'tkaziladi;

g) ma'lum kursning tugashi munosabati bilan o'tkaziladi (yoki fan sikli, o'qitish bosqichi hamda o'quv yurtini tugatish munosabati bilan).

5. Testlashtirishning diagnostik darajasi (chuqurligi) berilgan testdan ko'zlangan maqsad:

-simptomatik diagnostika, ya'ni bilim va o'zlashtirishning «yuqori qatlamlariga» qaratilishi (ya'ni, ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar);

- etiologik diagnostikaga, tekshiruv – aloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi)ga qaratilishi;

- tipologik diagnostika esa qo'quvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o'zlashtirish va uddalay olishida qanday g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

6. Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishda esa yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma va og'zaki javoblarni qo'llash. Masalan, harakat testlarida (ayniqsa, kompyuterlarda klavishlarni bosishdan tortib, qism programmalarni chiqarishgacha) hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish va h.k.da. Harakat testlari o'qish yoki ishlash qurilmalarida, mashq (trenajerlarda) testlarini, ayniqsa, mutaxassislik bo'yicha o'qitish tizimlariga kiritish mumkin.

7. Testning nomogenlik drajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirgan bo'ladi. Shu jumladan:


a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlardan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) omillarni hisobga olish;

b) formal aspektda esa topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishligi.

8. Vaqt omili – testning tezkor bo'lishi, topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligi qaysi yo'l bilan, nimaga asoslanib vaqtini, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishligi.

9. Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma-yuz, xolis (tekstlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

Testlar tuzilishida juda serqmpa vazifalarni qo'llashga harakat qilindi. Asosan quyidagicha test-vazifalar qullanildi.



## 7.2. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning Reyting tizimi

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning Reyting tizimi to'g'risidagi «Nizom»da «Talabalar bilimini reyting orqali baholashdan maqsad talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini mustaqil ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish ushbu tarika raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish», - deb ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan hujjatdagi asosiy maqsaddan qator vazifalar va talablar kelib chiqadi.

Ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lib, pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tashkil etilgan tarbiya vositalari tizimiga bog'liqdir. Bu vositalar butun tarbiyaviy ish tizimining tarkibiy qismi deb qaralgandagina o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va tarbiyaning umumiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish hamda baholash, o'qitish jaraynida muhim rol yo'naydi. Jumladan, talabalar bilimini haqiqiy aniq va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Maskur «Nizom» talablari, asosan, talabalarni uzluksiz o'z ustularida faol ishlashlarini, har bir sohada mustaqil va ijodiy yondashishni, fan asoslarini puxta o'zlashtirish uchun mas'uliyat sezishlarini hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirishni talab etadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga quyish, ularda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimni doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga quyish demakdir. Shu bilan birga o'qituvchi va talaba o'rtasidagi uzviy bog'lanishni yuzaga keltiradi, yana o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasi o'qituvchining faoliyati va talabaning mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo'lib turishini ta'minlaydi.

Bunda professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir meyor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarini tuzishdagi mas'uliyat yondoshish va tinimsiz mehnati yotadi. Talaba bilimini baholash muhim vositalaridan biri bo'lib, asosan, talabalarning xulqi o'zgarishi va tarbiyaviy ta'siri kuchayganligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining talaba bilimini nazorat qilish va baho qo'yish (ballash) jarayonidagi xatti-harakati ulardagi haqiqiy bilim va ko'nikmalarni aniqlashga imkon beradi, ularni ortiqcha tashvishlaridan, oxirida «o'tmay qolish» qo'rquvidan xalos etadi. O'zidagi iqtidor va imkoniyatga ishonch hosil qilgan talaba yanada fan asoslarini chuqurroq egallashga harakat qiladi, o'qituvchi bilan bahs-munozaraga kirishadi, o'zlariga ham nisbatan talabchan bo'lishga oclatlaniradi.

O'zbekiston Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2005 yil 30 sentabrdagi 217-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom»iga oid baholash turlari quyidagicha:

- Joriy baholash (JB)
- Oraliq baholash (OB)
- Yakuniy baholash (YAB)

JBda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlarida amalga oshirilishi mumkin.

OBda fanning bir necha mavzularini qamragan yoki alohida bo'limlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lgandan so'ng, talabanning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabanning muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi.

JB va OB turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium vash u kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

YABda talabani bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAB semestr yakunida o'tkaziladi.

YAB turi yozma ish usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Talabanning fan bo'yicha mustaqil ishi JB, OB hamda YAB turlarida baholanadi.

Muayyan fan bo'yicha talabanning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

OB va JB – 85 ball

YAB – 15 ball

Har bir fanga ajratilgan soatlar miqdoridan kelib chiqib ballarni aniq hisoblash mumkin. Buning uchun bir soatga to'g'ri keladigan aniqlovchi koeffisientni topish lozim. YAB turiga 15 ball Nizom asosida bo'lganligi bois, u o'zgarishsiz qoladi. Qolgan 85 ballni umumiy soatlar miqdoriga bo'lib koeffisient (K)ni aniqlaymiz. Masalan, fan bo'yicha ma'ruza – 60 soat, seminar – 20 soat, laboratoriya – 10 soat, mustaqil ish – 20 soat ko'zda tutilgan bo'lsa

Ma'ruza –  $a_1 = 60$  s Laboratoriya –  $a_3 = 10$  s

Seminar (amaliy) =  $a_2 = 20$  s Mustaqil ish –  $a_4 = 20$  s

$K = 85 : a_1 + a_2 + a_3 + a_4 = 85 : 60 + 20 + 10 + 20 = 85 : 110 = 0,77$

OB =  $a_1 \times k = 60 \times 0,77 = 46,3$  ball

JB =  $(a_2 + a_3) \times k = 30 \times 0,77 = 23,3$  ball

MI =  $a_4 \times k = 20 \times 0,77 = 15,4$  ball

YAB = 15 ball

Jami: 100 ball

Eslatma: MI (mustaqil ish)dagi 15,4 ball yuqorida keltirganimizdek, fan xususiyatidan kelib chiqib, JB va OB lar tarkibiga kiritiladi.

Biz barcha uchun umumiy bo'lgan quyidagi amallarni talabalar bilan bajarishni tavsiya etamiz:

1. Fan o'qituvchisi semestr davomida o'qitiladigan fanni soatlar taqsimotini aniq bilishi lozim;

2. Talabalarga birinchi mashg'ulotdayoq baholash turlariga daxldor ballar miqdorini berishi shart.

3. JB har bir juftligiga beriladigan ball miqdori talabanning quyidagi harakatlari uchun beriladi: mashg'ulotga qatnashish va faol ishtiroki; topshirilgan topshiriqni bajarilganlik darajasi; daftar tutishi va imloviy xatolarga e'tibor qaratilishi, olingan natijalarni ilmiy va izchil asoslay olishi, hozirjavobligi, topqirligi va ijodiy fikrlar bilan qatnashishi.

4. Oraliq baholashga ajratilgan ball miqdorini talaba darsga doimiy faol qatnashishi hamda bosqichlarda bajaradigan ishlarning natijasiga ko'ra to'playdi. OBda bajariladigan ishlar: savolnomalarga yozma javob berish, test savollarini yechish, alohida bob yoki mavzularga ijodiy ish tarzida test savollari, boshqotirmalar yoki rebuslar tuzish, ayrim mavzulardan referatlar yozish yoki mavzulardan og'zaki savol-javob qilish kabilardir.

5. YABga Nizom bo'yicha ajratilgan 15 ballga moslab, semestr oxirida tayanch tushunchalarga asoslangan variantlar tuziladi va talaba o'z variantiga javob tarzida «Yozma ish» yozadi. YABdagi ballar miqdori yozma ishning quyidagi holatlari uchun beriladi: variant savollari qaramagan tayanch tushunchalarga yozilgan javobning mukammalligi, talabanning savodli va ilmiy tilda bayon etishdagi e'tibori, fikr-mulohazalarining asosli va mantiqli ekanligi, daftarni tutish va jihozlash tartibiga rioya qilinganligi, xulosalar va foydalangan adabiyotlarni keltirilishi kabilardir.

Umuman, reyting tizimi quyidagicha vazifalarni bajarishga qaratilganligini unutmashimiz lozim:

- fanning talaba tomondan tizimli tarzda belgilangan muddatlarda o'zlashtirishini tashkil qilish;

- talaba o'zlashtirishini muntazam baholab borish;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

- talabanning bilimni adolatli va aniq baholash;

- baholash natijalarini muntazam ma'lum qilish va tahlil etish;

- professor-o'qituvchilarning har bir darsga va baholash jarayomiga mas'uliyatini oshirish;

- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Yuqorida keltirganlarimizdan ko'rinadiki, bilimga baho qo'yish bitta mashg'ulotning barcha qismlariga singib ketishi bilan birga butun fanning mazmunidan ham xabardor bo'linishi taqozo etadi. Bu esa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi doimiy ijodiy munosabatni amalga oshirishni talab etadi. Ular o'tilgan materiallarni qaytarish, yangi materiallarni tushunish uchun zamin ekanligini tushunib yetadilar, barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga faollik ko'rsata boshlaydilar. Talabalarni JB, OB va YAB lar bilan baholar ekanimiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki fan o'qituvchisi talabanning semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq hisobga olib bormasa va natijaviy ballni chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, ularga qo'yilgan bahoning to'g'riligiga shubha tug'ilishi mumkin.



Talaba o'z bilimining qanday yutuq va kamchiligi borligini tushunib, nima uchun uning balli oshganligini yoki pasayganligini anglagandagina u rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin. Talaba o'z xatosini tushungach, uni to'g'rilashga ongli ravishda intiladi. Aks holda, bu talabaga ham, uning o'qishga bo'lgan munosabatiga ham salbiy ta'sir etadi. Unda tirishqoqlik, o'z bilimiga va iqtidoriga bo'lgan ishonchi pasaya boradi, o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib uni «adolatsiz»ga chiqarib qo'yadi.

O'qituvchining to'g'ri va adolatli asoslashi, garchi, salbiy xarakterda bo'lsa ham, talabani qanoatlantiradi. O'qituvchi bilimni doim nazorat etib ball bilan baholar ekan, talabaning ishiga bo'lgan munosabatini aytib o'tadi. Erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirsa, kamchiligi uchun koyiydi. Uni bartaraf qilish mumkinligini ham ijodiy tayyorgarlik paytida asosiy e'tiborni nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash talaba yutuqlarining aniq bahosi bo'libgina qolmay, balki uning bundan keyingi o'qishdagi vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu, talabada umid uyg'otadi. O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va o'qituvchi-ustozga nisbatan ham e'tiqodni yanada kuchaytiradi. Eng asosiysi ular kelajakda o'z faoliyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan jiddiy shaxslar bo'lib yetishadilar.

Bir so'z bilan aytganda bilimni to'g'ri va haqqoniy baholash o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi va qo'yilgan bahoga javobgarligini oshiradi. Baho talabaga ta'sir etib, uning ijodiy va salbiy kechinmalarini jumbushga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kechinmalar faqat bahoning qandayligiga bog'liq bo'lmay, balki uning talaba ongiga qanday yetkazishiga ham bog'liqdir. Faqat yuqorida aytib o'tilgan shartlarga rioya qilib, hamma tomon hisobga olingan holda, qo'yilgan obyektiv baho talabalarda axloqiy-irodaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Talabalar bilimini nazorat qilishning tarbiyaviy ahamiyati.
2. Nazorat qilish turlari.
3. Talabalar bilimlarini reyting nazorati.
4. Test va uning imkoniyatlari.
5. Testlarni turlari.
6. Talabalarni bilimini nazorat qilish va baholashda o'qituvchiga qo'yiladigan talabalar.

## VIII BOB. MUSTAQIL TA'LIM VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI MAKTABGACHA TA'LIM FANLARIDAN KURS ISHI (LOYIHASI)NI TAYYORLASH METODIKASI BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH

### 8.1. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish

Mustaqil Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, uni rivojlantirish, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"ni amalga oshirish, yoshlarga zamonaviy talablar darajasida bilim va tarbiya berish, talaba-yoshlar ongida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish xalqimizning bilim salohiyatini yuksaltirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni bajarish esa, oliy ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, siyosiy ongi va siyosiy madaniyati yuksak bo'lgan malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash demakdir. O'zbekiston respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" talabidan mustaqil fikrlashni, eshitgan o'quv axborotlarni ijodiy umumlashtirishni, muxim qismlarini ajrata bilishni, adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni va doimiy asosiy ma'lumotlarni yozib borishni talab etadi." Bugungi kunda talabalarga ta'lim-tarbiya berish o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy ishlari mustaqil bilim olish usullarini, va vositalarini takomillashtirishga qaratilishi zarurligi haqidagi talab yanada dolzarb masala bo'lib qolmoqda".<sup>10</sup> Talabalarning mustaqil intellektual mehnatini faollashtirish uning forma va metodlarini oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan har bir fanning xususiyatiga qarab tashkil etish talab sifatida qo'yilgan.

**Mustaqil ish**-ta'limni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, bunda talabalar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi.

**Mustaqil ish**-o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga kuyidagicha ta'rif berildi: **mustaqil ta'lim**-o'quv materialini mustaqil uzlashti-rish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifa-larni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil baja-rish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanti-rishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish talabaning o'qitish vosita-lari bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

**Mustaqil ish**-o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

<sup>10</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.1997 й.

Professor-o'qituvchining roli talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Talabaning roli fanga doir bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning optimal yo'lini izlab topishga qobiliyatli ijodkor shaxs bo'lishda aks etadi.

Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga imkon berishi lozim:

- 1) talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- 2) ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;
- 3) talabalarda umumiy va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;
- 4) ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

#### **Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlar**

- 1) ma'ruza mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlar;
- 2) amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan mustaqil ishlar.

#### **Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar**

1. Konspektlashtirish.
2. Adabiyotlardan referat tuzish.
3. Kitob va maqolalarga annotatsiya yozish.
4. Doklad, referat va nazorat ishi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi.

#### **Mustaqil ta'limning turlari.**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktiv-variativ;
- evristik (qisman, ijodiy);
- ijodiy tadqiqot.

*Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar* tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

*Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar* nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

*Evristik mustaqil ishlar* ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir. Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko'ra olish mala-kasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal šilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo'ljallaydi.

*Ijodiy tadqiqot ishlari.* Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida

tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'ish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Mustaqil ishni tashkil qilishning ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega. Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim prinsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa semestr yakuniga yaqin semestr davomida qoldirgan, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilishi ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabanning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda talabanning kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa talabanning o'ziga ham bogliq. Masalan: doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanish har haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

## **8.2. Maktahgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanidan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi**

Kurs ishi mavzulari o'quv rejaga asoslangan holda fan mazmuniga muvofiq ravishda ishlab chiqiladi va kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi. Mavzular ilmiy, dolzarb va talabanning mustaqil bilim egallashiga yo'natirilgan bo'lishi lozim.

Kurs ishining sifati mavzuning to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Ya'ni talaba u yoki bu ilmiy masalaga shaxsiy qiziqishi, uni chuqurroq anglashga bo'lgan hohishi bilan mavzu tanlashi hamda ushbu muammoni tadqiq etish jarayomida ilmiy rahbariga shaxsiy fikrini bildirishi mumkin. Biroq ayni vaqtda ilmiy rahbar albatta tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar va amaliy materiallarni tanlash imkoniyatini ham hisobga olishi zarur.

Kurs ishi-talabanning tanlagan sohasiga mos keluvchi egallagan bilim darajasi haqida ma'lumot beruvchi, mustaqil bajariladigan va yozma shaklda ifoda etiladigan ijodiy, ilmiy tadqiqot ishidir. Ushbu ish izlanuvchi-tadqiqotchidan (ya'ni, talabadan) tadqiqot predmetini chuqur va ijodiy o'rganish, tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash, ko'rilayotgan muammo holatini tahlil qilish hamda shaxsiy xulosa va umumlashmalarni talab etadi.

Kurs ishini bajarish talabalar uchun eng muhim bo'lgan mustaqil ishlardan biri hisoblanadi. Uni tayyorlashda muvofiq keluvchi huquqiy intizomni o'rganish zarur komponentlardan biridir. Kurs ishini yozmasdan yoki himoya etmasdan turib talaba imtihonlarga kintilmaydi va shuningdek, keyingi kursga ham o'tkazilmaydi.

Kurs ishi, odatda, 2-,3- va 4- kurslarda bajariladi. Kurs ishlarining bu kabi bajarilishi ilmiy-tadqiqotchilik malakalari, shuningdek, maxsus pedagogika va psixologiya sohasida muayyan psixologik-pedagogik muammoni hal qilish malakalarining uzviy shakllantirilishini ta'minlash lozim.

Kurs ishi o'quv fanini o'rganishning yakunlovchi bosqichida bajariladi, uni bajarish davomida olingan bilim va malakalardan foydalaniladi. Fan bo'yicha kurs ishi qatsiyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

maxsus fanlar bo'yicha olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimlashtirish va mustahkamlash;

berilgan mavzu doirasida nazariy bilimlarni chuqurlashtirish;

ilmiy-metodik adabiyotlar, ma'lumotnoma, meyoriy va huquqiy hujjatlardan tadqiqot o'tkazish maqsadida foydalanish malakalarini takomillashtirish;

nazariy bilimlardan amaliy masalalarni hal qilishda foydalanish malakalarini shakllantirish;

ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyat va uyushqoqlikni rivojlantirish;

bitiruv malakaviy ishini bajarishga tayyorgarlik.

Kurs ishlari mavzulari professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va kafedrada muhokama qilinib, tasdiqlanadi.

Kurs ishlari mavzulari o'quv fanlari ishchi dasturlarida tavsiya etilganlarga muvofiq kelishi lozim.

Kurs ishini yozishdan maqsad talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish, boyitish hamda ularda tahlil etish, izlanishga doir ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga erishishdir.

Kurs ishini yozishda quyidagi tartibga asoslaniladi:

1) kafedra mudirining taqsimoti asosida mavzuni va ilmiy rahbari aniqlash;

2) ilmiy rahbar bilan uchrashish va mavzu yuzasidan maslahat olish;

3) ilmiy rahbar ko'rsatmasiga asosan adabiyotlarni o'rganib chiqish va tahlil etish;

4) o'rganilgan adabiyotlar asosida kurs ishi rejasini tuzish va ilmiy rahbar tasdig'idan o'tkazish;

5) rejaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish dara-jasi, obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, ishning tuzilishi ko'rsatib beriladi; reja masalalari ketma-ketlikda bayon etiladi va har bir masaladan so'ng qisqa xulosa beriladi;

7) reja masalalarini bayon etayotganda adabiyotlardan foydalanishda belgilangan tartibda snoska keltiriladi;

8) rejadagi barcha masalalar bayon etib bo'lingach, umumiy xulosa qilinadi;

9) agar ilova qilinadigan illyustratsiyalar mavjud bo'lsa, xulosadan so'ng beriladi;

10) kurs ishining umumiy hajmi 30 betni tashkil etishi kerak (kompyuterda yozilgan xolatda);

11) kurs ishining adabiyotlar ro'yxati belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi shart;

12) kurs ishi to'liq tugatilgandan so'ng, kurs ishi topshiruvchi va ilmiy rahbar titul varag'iga imzolarni qo'yib, kafedraga taqdim etishadi;

13) kurs ishi himoyasi belgilangan tartibda o'tkaziladi va himoya o'tkazilishidan bir hafta oldin e'lon qilinadi;

14) kurs ishi yozilayotgan o'quv fanidan YAN olimguniga qadar topshirilishi kerak.

Kurs ishi yozishda talaba asosan qiyosiy tahlil qilish yo'llarini, muammolar ustida ishlashda bir nechta adabiyotlardan foydalanish va yakuniy xulosalar chiqarishni o'rganishda yordam beradi.

Talabalarga kurs ishi berishdan asosiy maqsad quyidagilardir:

- muammoli mavzu yechimini topishda adabiyotlar va statistik ma'lumotlar ustida ishlashni o'rgatadi;

- muammolar ustida har xil tadqiqotlar olib borishni va ularni tahlil qilishni;

- muammolar yechimini topishda ilmiy xulosalar va natijalami chiqarishda katta yordam beradi.

**Kurs ishini tashkillashtirishda quyidagilarga e'tihor qaratish kerak:**

#### **Ishning mavzusini tanlash**

Talaba mavzuni tanlashda quyidagilarni nazardan chetda qoldirmasligi lozim:

- fanning maqsad vazifasidan kelib chiqqan holda xalqaro turizm sohasida dolzarb bo'lgan muammolari;

- turizm sohasidagi muammolar ustida mutaxassislar va ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish;

- oldiga qo'yan maqsaddan kelib chiqib, mutaxassilardan kerakli ma'lumotlar bazasini yaratishdir.

#### **Ishning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish**

Talaba kurs ishining rejasini tuzishda ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirishi kerak. Ishning rejasi tuzilgandan so'ng talaba kafedra mudiri yoki uning yordamchisidan tasdiqlatib olishi lozim.

Talaba ish rejasini tasdiqlatib olgandan sung rejaga qat'iy amal qilgan holda ishni bajarishi lozim. Har bir vazifani bosqichma-bosqich qat'iy reja bo'yicha ilmiy rahbar nazoratida amalga oshirishi kerak. Birinchi bosqich vazifalari bajarilmasdan keyinsigiga o'tib bo'lmaydi. Bir bosqich amalga oshirilmay qolsa ishdan samarali natija kutib bo'lmaydi.

#### **Kurs ishida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar**

##### **Kafedraning asosiy vazifalari**

Kafedra tomonidan kurs ishini yozishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak.

- kurs ishi mavzularini tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish;

- talaba mavzuni tanlashida unga kerakli ko'rsatmalar va amaliy yordam berish;

- talabaga ilmiy rahbarlarni tayinlash va biriktirish;

- talabaning ishini tayyorlashi uchun rajani tasdiklab berish va uning vazifasini bajarishini nazorat qilish;

- talaba tomonidan bajarilgan ishning sifatiga taqriz berishdan iborat buladi.

##### **Ilmiy rahbarning vazifalari**

Talabaning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak.

- talaba ishni bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berishi;

- ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berishi va adabiyotlarni tavsiya etishi;

- talabaning rejasini tasdiklashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishni tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;

- talaba ishni bajarishida tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi;

##### **Talabaning vazifalari**

- Talaba kurs ishini bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishning mavzusini kafedraning talabalaridan kelib chiqqan holda tanlash;

- ilmiy rahbarning tuzib bergan rejasi asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi;

- o'rnatilgan tartib bo'yicha kurs ishning hisobotini o'z vaqtida kafedraga taqdim etishi kerak.

### **Adabiyotlarni tanlash**

Fanga ta'luqli bo'lgan barcha turdagi adabiyotlarni va manbalarni ko'rib chiqish lozim: maxsus, ilmiy; ilmiy-ommobop; ma'lumotnomalar, shu singari statistik; umumiy.

### **Adabiyotlarni o'rganish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish**

Adabiyotlarni o'rganishdan oldin yana bir bor mavzuni to'g'ri tanlanganligiga ishonch xosil qilish lozim. Talaba adabiyotlarni kurs ishi mavzusini to'g'ri tanlashi kerak. Ilmiy rahbarning vazifasi talaba tanlagan manbalarni qayta ko'rib asosiylarini qoldirishdir.

Manbalarni to'plashda talaba uning chop etilgan yiliga ham aloxida e'tibor berishi lozim. Eski manbalardan olingan ma'lumotlar bugungi kundagi dolzarb xisoblangan muammolarni yechishda unchalik ahamiyatli bo'lmay qoladi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda o'ziga eng ma'qul deb topgan ma'lumotlarni olgandagina olib borgan tadqiqoti samara beradi.

### **Kurs ishini baholash mezonlari**

Kurs ishini asosiy baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

▪ mavzuning dolzarbligi va yangiligi, uni ishlab chiqishning murakkabligi;

▪ ko'rilayotgan masala bo'yicha mahalliy hamda xorijiy manba va maxsus adabiyotlardan to'la foylanilganligi;

▪ tadqiqot obyekti bo'yicha daliliy ma'lumotlarni to'liq va sifatli to'planganligi;

▪ qo'yilgan masalani hal qilishda metod va vositalardan foydalanishning tasdiqlanganligi;

▪ olingan natijalarni tahlil qilib, sharhlay olinganligi;

▪ xulosa, taklif, tavsiyalarning ilmiy, uslubiy va amaliy ahamiyati hamda ularni isbotlanganlik darajasi va real tadbiq etish imkoniyatlari;

▪ materialni aniq va to'g'ri, xatosiz bayon etilganligi, ishni sifatli rasmiylashtirilganligi, mazkur «Metodik qo'llanma» talablari hisobga olinganligi;

• kurs ishining nazariy va amaliy masalalar bo'yicha munozara yurita olinganligi, kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolarining savollari va taqrizchilar kamchiliklariga berilgan javoblarning to'g'ri va chuqur ifodalanganligi.

Ish sessiya boshlanishiga 10 kun kolganda topshiriladi va himoya qilinadi.

### **8.3 Bitiruv malakaviy ishlarini yozish metodikasi. Rahbarlik qilish.**

**Bitiruv malakaviy ishi**-ta'limning yakuniy bosqichida oliy ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarning topshirig'i va ko'rsatmasi asosida talaba tomonidan mustaqil bajariladigan ilmiy-nazariy va metodik loyihadir.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi bakalavriat yo'nalishi talabasining yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi ko'rinishlaridan biridir. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi talabning o'z ixtisosligi bo'yicha egallagan nazariy hamda amaliy ko'nikma va malakalari ko'lamini va darajasini, bitiruvchining saviyasi va salohiyatini belgilovchi, mustaqil ilmiy, ijodiy tadqiqot ishidir.

**Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**

**Tayyorgarlik bosqichi:**

- tanlangan mavzu buyicha bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ruxsat olish (mavzuni tasdiqlash);

- malakaviy ishini bajarish bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqish.

- mavzu tanlash;

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusi quyidagi talablarga javob berishi kerak:**

- mavzuning talaba ta'lim yo'nalishi, ixtisosligiga mosligi;

- dolzarb pedagogik muammoga bag'ishlanganligi;

- fanning amaldagi holati va uni rivojlantirish istiqbollariga mosligi;

- iste'molchilarda qiziqish uyg'otishi va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:**

- tadqiq etilayotgan muammoning adabiyotlarda yoritilishi va ishlanganlik darajasi;

- oliy ta'limda ta'lim olish davrida talabanning kurs ishlari hamda boshqa ilmiy ishlarni bajarish borasida egallagan ko'nikmalari;

- bitiruv ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish imkoniyati;

- iste'molchi tashkilotning bitiruv malakaviy ishi materiallariga qiziqishi va ehtiyoji;

- talabanning imkoniylari va nazariy-amaliy tayyorgarlik darajasi.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- Titul varag'i

- Mundarija

- Kirish

a) tanlangan mavzuning dolzarbligi;

b) ishning maqsad va vazifalari;

v) ishning obyekti va predmeti;

g) metodologik asosi va tadqiqot metodlari;

d) himoyaga olib chiqilayotgan holatlar;

ye) ishning amaliy ahamiyati;

j) ishning tuzilishi.

- Asosiy qism.

- Xulosa.

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- Ilovalar.

Bitiruv malakaviy ish bitiruvchining kasbiy erudisiyasi yuqori darajasini, uning metodik tayyorgarligini, kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini egallaganligini aniqlashi lozim. Shunga ko'ra bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

- nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimlashtirish va mustahkamlash;

- bilim va amaliy ko'nikmalardan aniq ilmiy-tadqiqotchilik va ilmiy-amaliy muammolarni hal qilishda foydalanish;

- mustiaql ish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- materialni umumlashtirish va mantiqiy bayon qilish



ko'nikmalarini rivojlantirish;

- eksperimental tadqiqot metodikasini egallash.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishdatalaba quyidagi qobiliyatlamini namoyish etilishi talab qilinadi:

- mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqotchilik va ilmiy-amaliy

vazifani qo'yish, uning dolzarbligi va ahamitini baholash;

- tadqiqot farazini ilgari surish;

- ish mavhusi bo'yicha axborotni to'plash va qayta ishlash;

- olingan materialni o'rganish va tanqidiy tahlil qilish;

- aniqlangan muammoni chuqur va har tarafлама tadqiq qilish;

- o'rganilayotgan muammoni hal qilishning o'z variantini ishlab chiqish, tavsiflash va asoslash;

- xulosa va olingan natijalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish, rasmiylashtirish va mantiqiy asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ish mavzulari fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va amaliyot ehtiyojlariga muvofiq tarzda kafedrada ishlab chiqiladi va OTM Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Talaba taklif qilingan mavzulardan birini tanlaydi, shu bilan birga o'ning shaxsiy ilmiy-tadqiqot ishi tajribasiga tayanib, mustaqil ravishda mavzu taklif qilishi va uni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini asoslashi mumkin. Mavzular rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Mavzuni o'zgartirishga faqat istisno tarzida yo'l qo'yiladi va rektor buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishni talaba kafedraning tavsiyasi bilan OTM professor-o'qituvchilari tarkibidan tavsiya qilingan va tasdiqlangan ilmiyrahbar qo'l ostida bajaradi.

Bitiruv malakaviy tadqiqot ustida ishlash uchun talaba qator bosqichlarni ko'zda tutadigan reja-grafik ishlab chiqadi va rahbar bilan kelishadi. Bu bosqichlar quyidagicha:

- kasbiy faoliyat sohasini belgilash va ish bag'ishlanadigan muammoni aniqlashtirish;

- ish mavzusini, uning ishchi nomini va tadqiqot farazini shakllantirish;

- axborot makonini belgilash va muaamoga oid adabiyotlarni izlash, annotatsiyalangan kartoteka tuzish, manbalarni referatlash. Bunda talaba mavzuning umumiy masalalaridan xususiy muammoga yoki tanlangan muammoni xususiy o'rganishdan uning umumiy manbalariga tomon yo'lni belgilashi mumkin;

- nazariy tadqiqot natijalarini muhokama qilish, maqsad, vazifalar va tadqiqot farazini aniqlashtirish, ishning amaliy qismi uchun vazifalarni belgilash;

- eksperimental baza, metodikalarni aniqlash va eksperimentning borishini rejalashtirish;

-eksperimental tadqiqot o'tkazish va natijalarni to'plash, tahlil va talqin qilish;

- bitiruv malakaviy tadqiqot nomini (zarar hollarda) korreksiyalash, ish matnini yozish va rahbar tomonidan tekshirishilishi;

- ishni, ilovalarni, illyustrativ materialni rasmiylashtirish;

- ishni taqrizchiga taqdim qilish, taqriz bilan tanishish;

- himoya uchun chiqish (ma'ruza) ni tayyorlash, zarur hollarda uni aprobatlash (sinovdan o'tkazish – dastlabki himoya qilish).

Reja-grafik majburiy meyoriy hujjat sanaladi, rahbar tomonidan imzolanadi, mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudini tomonidan imzolanadi.

Reja-grafik bitiruv malakaviy ishga, sarvaraqdan keyin qo'shib tikiladi.

Rahbar ishning bajarilishini qismlar bo'yicha va yaxlit tekshiradi, ishning grafika muvofiq bajarilishini nazorat qiladi va kafedrani bitiruvchi talaba ishining ahvoli haqida muntazam xabardor qilib boradi.

Malakaviy ish rahbari talabaga ishni tayyorlash va yozish davrida nazari va amaliy yordam beradi, ish strukturasi, mazmuni va uni rasmiylashtirish, adabiyotlarni tanlash va sh.k. yuzasidan tasviyalar beradi. Bundan tashqari, rahbar asoslash, kompozitsiya, uslub va sh.k. larga oid kamchiliklarni, ularni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatib, maslahatlar beradi.

Bitiruv malakaviy ishni talaba mustaqil bajarishi va barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirishi, jumladan namoyish qilinadigan materialni tayyorlashini nazarda tutish lozim. Mavzuni nazariy va metodik jihatdan to'g'ri ishlab chiqish va yoritish, uning sifati va mazmuni uchun javobgarlik to'lig'icha talabani zimmasidadir.

Tugallangan ish rahbarga topshiriladi, rahbar uni o'qib chiqqach, imzolaydi va yozma xulosa beradi. Rahbarning xulosasi asosida kafedra talabani himoyaga qo'yish haqida qaror qiladi. Kafedra mudiri talabani himoyaga qo'yish mumkin emas, deb topsa, masala rahbarning majburiy ishtirokida kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi va bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Buyruq bilan himoyaga qo'yilgan bitiruv malakaviy ish taqrizga yuboriladi. Taqrizchi sifatida, odatda, tadqiqot bazasi sanalgan ta'limuassasining yetakchi mutaxassislaridan biri, shuningdek, tadqiqot muammosi bo'yicha ekspert sanalgan OTM professor-o'qituvchisi jalb qilinadi. Taqrizchilar tarkibi kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizni olgan, talaba ilmiy rahbari bilan birgalikda taqrizchining e'tirozlariga javob tayyorlashi, zarur hollarda ishga tegishli tuzatish va to'g'rilashlar kiritishi kerak bo'ladi.

Taqrizchi tomonidan ishda jiddiy kamchiliklar aniqlangani holda ular bartaraf etilgach, kafedra uni qayta taqrizga yuborishga haqli.

Kafedra mudiri rahbar taqrizi va yoki dastlabki himoya natijalari va yoki taqrizchilar e'tirozlariga asosan talabani bitiruv malakaviy ishni DAK da himoya qilishga qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblasa, bu masala muallif va rahbar ishtirokida kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Himoyaga qo'yilgan bitiruv malakaviy ish rahbar xulosasi va taqrizlar bilan DAK ga himoyaga yuboriladi.

Bitiruv malakaviy ish, odatda, quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi: kirish, nazariy qism (birinchi bob), eksperimental tadqiqot (ikkinchi qism), psixologik-pedagogik tavsiyalar (uchinchi bob).

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoatlanadi, uning maqsadi, vazifalari belgilanadi, predmeti, obyekt qisqacha tavsiflanadi, tadqiqot farazi shakllantiriladi va amaliy ahamiyati aks ettiriladi. Bundan tashqari, kirish qismida ish boblarining qisqacha tavsifa keltiriladi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligini

asoslash nazariy manbalar, ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari va kasbiy amaliy faoliyat realiyalaridasosida amalga oshiriladi. Tadqiqot dolzarbligining isboti vanatanimiz vaxorij ollimlarining o'rganilayotgan muammoga katta e'tibor qaratishi, shuningdek, yetarlicha yiritilmagan va aniqlashtirishni iyalab etadigansavollarning mavjudligi bo'lishi mumkin. Qo'yilgan muammoning yechimi kasbiy sohadagi faoliyat, muayyan muassasalar ishini takoillashtirish uchun ahamiyat kasb etishi ham bo'lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy shi maqsadi qo'yilgan muammoni yechishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari uning maqsadimi aniqlashtiradi va bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Odatda, bitiruv malakaviy ishda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- o'rganilayotgan muammoga doir nazariy manbalar tahlili;
- o'rganilayotgan hodisaning dolzarb holati, shuningdek, ehtimol, uning keyingi rivojlanish istiqbollari va sabablarini aniqlash;
- eksperimental bazani belgilash;
- tadqiqot metodlarini tanlash;
- empirik tadqiqot o'tkazish;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyeksi sifatida umuman hodisa yo uning ayrim tomonlari rivojlanishi va namoyon bo'lishining qonuniyatleri va jarayoni bo'lishi mumkin. Har qanday holatda tadqiqot obyeksi tanlangan mavzu va ish muammosiga muvofiq kelishi lozim.

Tadqiqot predmeti ishning mavzusi va obyektiga qat'iy muvofiq va aniq belgilanishi kerak. BMI predmeti sifatida u yoki bu hodisaning xususiyatlari, strukturaviy komponentlari, uni o'rganish, uni tashhishtashning yo'llari va metodlari, o'quv-tarbiyaviy chora-tadbirlar, psixologik-pedagogik, ta'sir samaradorligini oshiradigan sharoitlardan iborat bo'lishi mumkin.

BMI amaliy ahamiyati uning yordamda hal qilish, tadqiqot natijalari amaliyotda ko'rsata oladigan aniq yordamda o'z ifodasini topadi. Odatda, ishning amaliy ahamiyatini o'rganilayotgan hodisaning aniqlangan xususiyatlari va ishlab chiqilgan tavsiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy qismi birinchi bobda (zarur hollarda ikki bobda) taqdim etilishi kerak. Unda vatanimiz va xorij olimlarining ishlari tahlili va talqini, o'rganilayotgan muammoga turli yondashuvlarig o'ziga xosliklari, uning umumiy problematikada tutgan o'rni va ahamiyati, hal qilinmagan, zaif yoritilgan va aniqlashtirishni talab qiladigan masalalar bayon qilinadi. Uning analitik yo'nalganligini kuchaytirish uchun materialni turli asoslarga ko'ra tizimlashtirish, umumlashtirish va tasniflash tavsiya etiladi.

BMI ning sifatli bajarilishi kamida 50 ta nazariy manbani o'rganishni talab etadi, ular orasid mutaxassislar monografiyalari va ilmiy maqolalar (ular adabiyotlarning asosiy qismini tashkil qilishi), darslik va o'quv qo'llanmalar, lug'at va ma'lumotnoma (spravochnik) lar bo'lishi kerak.

Nafaqat xorij, balki madburiy tartibda mahalliy tadqiqotchilar ishlari keltirilishi lozim.

Matnda, o'rganilgan adabiy ma'lumotlarga havolalar bilan bir qatorda, BMI muallifining nuqtai nazari, pozisiyasi, sharhi aks ettirilishi va asoslanishi lozim.

BMI birinchi bobi o'rganilayotgan muammoning alohida jihatlarini aks ettirgan kamida ikki paragrafni o'z ichiga olishi kerak. Har bir paragraf mantiqiy asoslangan xulosalar, masala mohiyatining qisqacha bayoni bilan tugallanadi. Bob oxirida tadqiqot muammosining ishlanganlik darajasi, uni o'rganishning asosiy yo'nalishlari, uning dolzarbligi va sh.k. haqida xulosa keltiriladi. Birinchi bob yuzasidan xulosalar eksperimental amaliy tadqiqot asoslanishini o'z ichiga olishi kerak.

Analiitik sharh matniga quyidagi talablar qo'yiladi: axborotning to'liq va ishonchliligi; axborotga tanqidiy bahoning mavjudligi; struktura mantiqiyiligi; kompozision yaxlitlik; xulosalarning asoslanganligi; bayonning aniq va lo'ndaligi.

BMI ikkinchi bobbi eksperimental tadqiqot natijalarini o'z ichiga oladi. Odatda, u 3 paragrafga bo'linadi. Bu holda birinchi paragrafda sinaluvchilar tarkibi, ularning kengaytirilgan tavsifini (soni, yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, holati xususiyatlari va sh.k.) keltirish maqsadga amuvofiq. Ikkinchi paragrafda eksperimental tadqiqotning borishi, shakllari va metodlarini (qayerda, qachon va qay muddatlarda, yakka yo guruh tartibida o'tkazilgani, foydalanilgan metodlar va aniq eksperimental metodikalar) tavsiflash va asoslash, qo'llangan metodlarning BMI maqsad va vazifalariga muvofiqiligini isbotlash kerak. Tadqiqot o'tkazish uchun zarur ko'rgazmali va matn materialini ko'p joy talab etsa, ularni ilovalarda berish tavsiya etiladi. Paragraf matnida metodikalarning umumiy tavsifi va ilovaga havola, bibliografik manbalar keltiriladi.

Uchinchi paragraf empirik tadqiqot natijalarining miqdor va sifat tahliliga bag'ishlanishi mumkin. Muallif, masalan, tadqiqot davomida sinaluvchilar o'zini qanday tutganini tavsiflaydigan natijalar bayonnomalaridan misollar keltirishi, aniqlangan faktlarni tushuntirishi lozim. Olingan natijalarni miqdoriy qayta ishlashning tadqiqot natijalari va xulosalarning ishonchliligi va asoslanganligini tasdiqlovchi maxsus metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Natijalarni grafik, diagramma, jadval va sh.k. ko'rinishda taqdim qilish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bob va uning tarkibidagi paragraflar ham qilingan ishlarni qisqacha umumlashtiruvchi xulosa bilan tugallanishi kerak. Xulosalar tadqiqotda qaysi qoidalarda o'z tasdig'ini topgani, o'rganilayotgan hodisaning qaysi yangi xususiyatlari aniqlanganini ko'rsatib berishi lozim. Ayni vaqtda tadqiqot natijalari va xulosalaridan muayyan vazifalarni hal qilishda qanday foydalanish mumkinligini ta'kidlash kerak.

Uchinchi bobda sinaluvchilar bilan olib boriladigan ish yo'llari va vositalari keltirilishi, yordamning bu shakllari samaradorligi eksperimental isbotlanishi va faoliyati ko'rsatilgan muammolarni hal qilish bilan bog'liq mutaxassilar uchun tavsiyalar berilishi mumkin.

Unda talaba bolalarni psixologik-pedagogik tashhislashni, ular bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy va korreksion ishlarni, oila, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni takomillashtirish, ta'lim muassasasi ish sifati va natijaliligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. Barcha taklif va tavsiyalar amaliy aniq xarakterda bo'lishi, ularning amalda qo'llanishini ta'minlaydigan ishlanma darajasiga yetkazilishi kerak.

Muayyan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun o'rganilayotgan muammoning nazariy tadqiqi, mavjud ilg'or mahalliy va xorijiy tajriba, shuningdek ikkinchi bobda keltirilgan eksperimental tadqiqot ma'lumotlari asos vazifasini o'taydi.

Xulosada tadqiqot natijalari keltiriladi. Qo'yilgan muammoni ilmiy-nazariy va eksperimental-amaliy o'rganish asosida uning dolzarbligi ta'kidlanadi, maqsad va vazifalarning hal etilganlik darajasi ko'rsatiladi,

ishchi faraz tasdiqlanadi yo inkor etiladi, ishning amaliy ahamiyati (muallifning muammoni hal qilishga hissassi) baholanadi. Zarur hollarda yanada chuqur ishlashni talab etadigan masalalar doirasi, muammoni o'rganish istiqbollari belgilanadi.

Xulosada kirish yoki asosiy qismning mazmunini takrorlashga yo'l qo'yilmaydi.

Adabiyotlar ruxyati BMI mavzusiga mos kelishi, turli nashrlarni o'z ichiga olishi kerak. Adabiyotlar ro'yxati mualliflar sarlavhasi (mualliflar F.I.O.) yoki asosiy nomlanishlarning qat'iy alifbo tartibida tuziladi.

Ro'yxat foydalanilgan meyoriy-huquqiy hujjatlardan boshlanadi, keyin nashr qilingan o'quv-metodik adabiyot, jurnal maqolalari, nihoyasida internet manbalari keltiriladi. Nashr yili va joyi, sahifalar soni albatta ko'rsatiladi, bunda chiqish ma'lumotlar sohasida bibliografik talabalar bilan belgilangan qisqartishlarga yo'l qo'yiladi. Ro'yxatni rasmiylashtirishda shu talablarga tayanish tavsiya qilinadi. Adabiyotlarning tartiblangan ro'yxati arab raqamlari va nuqta bilan tartib raqamlanadi.

Ishni tamomlagach, ayniqsa, asosiy qism matnini yozishda adabiyotlar ro'yxati to'ldirilgan bo'sa, matndagi havolalarning ko'rsatilgan nashrning adabiyotlar ro'yxatidagi raqamga mosligi qo'shimcha tekshiriladi.

Ilovada BMI matni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan jadvallar, grafik va sxemalar, shuningdek, eksperiment bayonnomalari, olib borilgan dars va mashg'ulotlar tavsifi, sinalluvchilarning rasmlari va boshqa, muallif matnda keltirish zarur deb topmagan, materiallar keltirilishi mumkin. Shuningdek, ilovada glossariy berilib, unda ishda qo'llangan asosiy tushuncha va terminlar keltiriladi.

Bundan tashqari, ishga o'zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya tayyorlanib, unda ishning maqsadi va qisqacha mazmuni keltiriladi. Bitiruv malakaviy ish uchun baho davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari, bitiruv malakaviy ish rahbari va taqrizchilar muhokamasi va ularning fikrini muvofiqlashtirishdan keyin kollegial asosda qo'yiladi. Bitiruv malakaviy ishni baholash ishning o'zini va uning himoyasini baholashdan iborat bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ish uchun sifatini baholashda uning darajasi inobatga olinadi. Ish amaliy yo'nalishda inovatsion xarakterda bo'lishi, tadqiq qilinayotgan muammoga amaliy yoki ilmiy hissa elementlarini o'z ichiga olishi lozim. Bahoning xolis bo'lishi uchun har bir qism (bob) mazmuni talaba

tomonidan muammoning qo'yilganligi, asosiy tushunchalarning aniqlashtirilgani, tasniflar va ularning belgilari ishlab chiqilganligi, salbiy hodisalar sabablarining aniqlangani, muammoni hal qilishning asosiy yo'llari belgilangani, turli nuqtai nazarlar umumlashtirilgani, tizimlargani va tahlil qilingani, alohida pozitsiyalar tanqidi, amaliy xarakterdagi takliflar kiritilgani nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasini baholashda talaba ma'ruzasining sifatiga, ya'ni uning:

- o'rganilayotgan muammo asosini tashkil etadigan nazariy qoidalarni soddalashtirmasdan va kundalik tushunish hamda jonli so'zlashuv tilida izohlashga o'tmasdan aniq ifodalab bera olishi;

- hodisalarni boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lay olishi, ularning hayotiy tajribaga ta'sirini belgilay olishi;

- muammoga o'z yondashuvini, olingan natijalarni yetarli darajada aniq shakllantira olishga, asosli bayon qila olishiga e'tibor qaratiladi.

Talaba bitiruv malakaviy ish himoyasida «qoniqarsiz» baho olsa, u qayta himoya qilish huquqi bilan universitetdan chiqariladi. Bir marta qayta himoyaga yo'l qo'yiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish.
2. Mustaqil ta'limning turlari.
3. Mustaqil ishlar qanday imkon berishi lozim.
4. Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlar.
5. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar.
6. Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning qanday turlari mavjud.
7. Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar.
8. Maktabgacha ta'lim fanlaridan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi.
9. Bitiruv malakaviy ishlarini yozish metodikasi.
10. Bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish va bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish tartibi.
11. Kurs ishini tashkillashtirish
12. Ishning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish.
13. Kurs ishida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar.
14. Ilmiy rahbarning vazifalari.
15. Talabalarning bilim darajasini tekshirib ko'rish.

## **XI BOB. O'QUV VA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

### **9.1. O'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda maktabgacha pedagogika fanining imkoniyatlari**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktabr 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyot haqida"gi Nizom va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 24 iyuldagi 191-sonli buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv rejalariga muvofiq o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Nizomga ko'ra o'quv amaliyoti 1-3 kurslarda, malakaviy pedagogik amaliyot 4-kursda o'tkaziladi.

#### **1-3 kurs talabalarining o'quv amaliyoti.**

O'quv amaliyot asosiy vazifasi talabaning barcha ruhiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli xil topshiriqlarni tayyorlashdan iborat.

Quyi kurslarda pedagogik amaliyotni tashkil qilishda talabalarning individual xususiyatlarini, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur.

Talabalarning pedagogik amaliyoti maktabgacha ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasasi tegishli kafedralarida o'tkaziladi.

#### **4-kurs talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti.**

Bakalavr yo'nalishlari bo'yicha pedagogik mutaxassislar tayyorlashning muxim qismi bo'lgan malakaviy pedagogik amaliyot ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy tammioti bugungi kun talablariga javob beradigan maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti oliy o'quv yurtida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkonini beradi.

Malakaviy pedagogik amaliyot bakalavr yo'nalishlari davlat ta'lim standartlari (DTS)da ko'zda tutilgan shakllarda tashkil qilinadi.

Pedagogik amaliyot oliy o'quv yurtida malakali mutaxassislar tayyorlash nuqtai nazaridan o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Malakaviy pedagogik amaliyot talabaga oliy o'quv yurtida olgan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda simab qo'rish, pedagogik faoliyatni egallashda dastlabki malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'quvchilar bilan ishlash tajribasini egallashga xizmat qiladi. Pedagogik amaliyotning maqsadi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabaning pedagogik-psixologik fanlardan, metodika va ixtisoslik fanlaridan egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini pedagogik faoliyatida ijodiy qo'llay bilishga o'rgatish.

Pedagogik amaliyotga nazariy va amaliy ta'limga oid o'quv rejani to'liq bajargan talaba yuboriladi.

Respublikamizda pedagog-kadrlarni tayyorlash va pedagogik ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish masalasi jamiyatni modernizatsiyalash va

yanada, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog-kadrlarni yuqori kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning zamonaviy axboriy va texnologik kompetentligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur masalaning muvafaqqiyatli yechimi esa, nazariya va amaliyotning uyg'unligini, egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirishni talab etadi. Ana shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni har jihatdan yuqori darajada tashkil etish va o'tkazish o'ta muhimdir.

Bakalavr yo'nalishlari bo'yicha pedagogik mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan pedagogik amaliyot ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini muvafaqqiyatli qo'llanayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy ta'mino-ti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, ta'limi muassasalarida o'tkaziladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlari pedagogik amaliyotning turli shakllarini amalga oshirish jarayonida mustahkamlanadi. Ana shusababli pedagogik amaliyotni tashkil etishda bilim va tajribaning uyg'unligiga tayanish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha pedagogika va metodika fanlarini muvafaqqiyatli o'zlashtirgan talabalar real ta'lim sharoitida bolalarni manaviy-ahloqiy tarbiyalashda tarbiyachi sifatida ijtimoiy-pedagogikishni amalga oshirishga kirishadilar. YA'ni amaliyot davrida, o'quv mashg'ulotining tarbiyaviy maqsadini belgilash, tarbiyaviy ishni tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish o'zlarida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar.

#### **Pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:**

- talabalarda tarbiyaviyishga ongli, mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, tarbiyaviy ishni tashkil etish mahoratini tarkib toptirish;
- tarbiyachining kasbiy ahamiyatli sifatlarini o'zlashtirishni ta'minlash;
- muayyan pedagogik vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik-psixologik bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlash va boyitish;
- tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- tarbiyaviyishga ijodiy-izlanishli yondashish, tarbiyaviy ishni ilmiy tashkil etish malakasini hosil qilish;
- maktabgacha ta'limi muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir ilg'or tajribalar bilan tanishish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning individualva yosh xususiyatlarini o'rganish maqsadida amaliyotchi talabalarning bolalar bilan muloqati va o'zaro hamkorligini tashkil qilish;

#### **Talaba pedagogik amaliyot davrida quyidagi pedagogik ko'nikma va malakalarni egallashi zarur:**

- maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoasining ijtimoiy-psixologik va yosh xususiyatlarini hamda ma'naviy-ahloqiy, fuqarolik tarbiyasining umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq tarbiyaviy vazifalarni belgilay olishi;
- tarbiya jarayonini to'g'ri loyihalashtirish va rejalashtirish maqsadida bolalar jamoasi va bola shaxsini o'rganish;



- tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil yetish va o'tkazish;

- ta'lim muassasasining oila va mahalla bilan hamkorligini tashkil etish.

### **O'quv amaliyotni tashkil etish va o'tkazishni texnologiyasi.**

O'quv amaliyoti oliy ta'lim dasturining ajralmas bir qismi, OTM qo'yi kurslarida o'tkaziladigan o'quv jarayoni shakllarining biridir. U bo'lajak mutaxassisni amaliy tayyorlashda va nazariy olgan bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

O'quv amaliyoti uning maqsad va vazifalarini aniq ko'rsatib bergan o'quv dasturi asosida OTM tomonidan tashkil etiladi. Amaliyot OTM va amaliyot o'tkaziladigan tashkilot o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'quv amaliyotini o'tkazish tartibi OTM kafedrasi tomonidan DTS talablariga muvofiq ishlab chiqiladi.

O'quv amaliyot davrida talaba ijtimoiy-siyosiy, pedagogika, ruhshunoslik va maxsus metodikalar yuzasidan o'zlashtirgan bilimlariga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy, o'quv ishlari bilan bog'liq faoliyatida ishtirok etishi tufayli, pedagogik ko'nikma va malakalarni egallab boradi, ayni vaqtda o'zining pedagogik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va qay darajada loyqligini, qobiliyatini sinovdan o'tkazadi.

O'quv amaliyot davrida bo'lajak tarbiyachi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan bola tarbiyasi muammoli masalalarni hal etish;

- maktabgacha ta'lim muassasasini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish;

- turli mazmundagi metodik ish shakllarini kuzatish, o'rganish, tahlil qilish;

- bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil eta olish malakalari shakllanadi.

O'quv amaliyotining yo'nalishi va mazmuni o'quv rejasiga muvofiq murakkablashib, takomillashib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv amaliyoti – bu ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni va boshqa faoliyat turlarini mustaqil tashkil eta olish, bolalar va ota-onalar bilan ishlay olish malakalari bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy masalalar, pedagogik bilimlarini chuqurlashtirishga va pedagogik qobiliyatlarini yanada takomillashtirish masalalari hal etiladi.

O'quv amaliyot davomida har bir talabada o'zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogik faoliyatga qiziqish, shu sohadagi tayyorgarlik darajasi shakllanadi.

O'quv amaliyot – ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani, mahorat maktabi hisoblanadi

O'quv amaliyotining maqsadi – dastlabki kasbiy tajribalarni egallash.

Maqsadni amalga oshirish uchun qo'yidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

- maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyati, uning tuzilishi, boshqarish tizim va tashkiliy-xuquqiy shakllari bilan umumiy tanishish;

- maktabgacha ta'lim muassasasining funksiyalarini o'rganish;

- maktabgacha ta'lim muassasasining boshqarishga doir meyoriy-xuquqiy xujjatlarni, uning faoliyatini tartibga solib turadigan qonuniy aktlarni o'rgantish;

- tanlagan mutaxassisligi va uning o'ziga xos jihatlarini bilan amaliy tanishuv;

- kurs ishini yozishga materiallar to'plash.

O'quv amaliyoti talabalarning bo'lajak mutaxassisligi bilan tanishi-shini va tadqiqotchilik faoliyatining dastlabki ko'nikmalarini olishini amalga oshiradi.

O'quv amaliyotining turlari:

1. **Tanishuv amaliyoti.** Bu bo'lajak mutaxassisligi bilan bog'liq maktabgacha ta'lim muassasalariga turli ekskursiyalar uyushtirish.

2. **Metodik amaliyot.** Bunga ma'ruza va suxbatlar kirishi mumkin.

3. **Dastlabki kasbiy malakalarni egallash amaliyoti** – maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv amaliyoti.

Har qanday o'quv amaliyotini o'tab bo'lgandan keyin talaba natijalariga qarab attestatsiyadan o'tishi kerak. Talaba amaliyot kundaligini va xisobotni talablari asosida rasmiylashtirib topshirishi shart.

## **9.2. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi.**

### **Pedagogik amaliyot uch bosqichni o'z ichiga oladi:**

**Tayyorlov bosqichi**-amaliyotning maqsad va vazifalari, mazmuni hamda uni tashkil qilishga bag'ishlangan amaliyot oldi konferensiyasi. Konferensiyada talabalar pedagogik amaliyot jarayonida maktabgacha pedagogika bo'yicha amalga oshirish zarur ishlar, tarbiyaviy ish rejasini tuzishi, tarbiyaviy tadbir ishlanmalarini yaratish, bolalar jamoasiga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish bo'yicha metodik maslahatlar olishadi.

**Asosiy bosqich.** Talabaning pedagogik amaliyotdagi faoliyati bevosita ta'lim-tarbiya ishlarda ishtirok etishni taqozo etadi. Pedagogik amaliyot davrida olingan shaxsiy tajribadan foydalanilgan holda kursishlarini, malakaviy bitiruv ishlarini yozish uchun materiallar to'playdi hamda tajriba-smovishlarini o'tkazadi.

**Yakuniy bosqich.** Pedagogik amaliyot tugashi bilan yakuniy konferensiya o'tkaziladi. Unda pedagogika bo'yicha mas'ul professor-o'qituvchilar talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini baholashadi.

### **Pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan bajariladigan topshiriqlarining umumiy ro'yxati:**

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tuzish.
2. O'ziga birkiritilgan guruh bilan ishlash.
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.
4. Ota-onalar bilan ishlash.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan malakaviy pedagogik amaliyot tahlili, malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishga doir mavjud axboriy-metodik ta'minot mazkur yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

1) zamonaviy talablarga javob bera oladigan malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish konseptual modelining mavjud emasligi. Pedagogik amaliyotni tashkil etishning konseptual asoslarini aniq belgilab olmaslik, uni o'tkazishda yuzaki yondashuv, mazkur masalaning tashkiliy-texnologik jihatlariga to'liq e'tibor qaratmaslik kayfiyatini yuzaga keltiradi;

2) ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga katta ahamiyat qaratilayotgan bir paytda, pedagogik ta'limni tashkil etishning muhim shakllaridan biri sanalgan malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi ishlab chiqilmagan. Mazkur muammo pedagogik amaliyotni tashkil etishga doir uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalarni yaratish yo'li bilan hal qilinib kelmoqda. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishga doir bunday uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalarning hech birida texnologik jihatlar to'liq o'z aksini topmagan;

3) malakaviy pedagogik amaliyot o'quv jarayonidan ajratilgan holda amalga oshirilganligi bois, uni modulli ta'lim asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki o'n bir hafta davomida o'tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyotni blok-modulli ta'lim asosida tashkil etish metodist-o'qituvchi va talabalarni metodik jihatdan ta'minlash muammosini muvafaqqiyatli hal etadi;

4) pedagogik amaliyotni turli ta'lim muassasalarida o'tkazilishi ularni masofaviy boshqarishni taqozo etadi. Chunki pedagogik amaliyotning doimiy nazorat qilib borilmasligi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi ayrim salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Modulli ta'lim texnologiyasi asosida pedagogik amaliyotni masofaviy boshqarish mexanizmining ishlab chiqilishi mazkur muammoni muvafaqqiyatli hal etishga xizmat qiladi.

### **Nazorat uchun savollari**

1. O'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda maktabgachapedagogika turkum fanining imkoniyatlari.

2. O'quv amaliyotni tashkil etish va o'tkazishni jadallashtirish texnologiyasi.

3. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi.

4. Pedagogik amaliyot jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi.

5. Talaba pedagogik amaliyot davrida qanday pedagogik ko'nikma va malakalarni egallashi zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Жукова Е.Д. Технология организаци и реализации самостоятельной работы студент ов : рабочая тетр. – Уфа: Изд-во БГПУ, 2004.
3. Зуфаров Ш. Педагогик инноватика. – T.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2012.
4. Сластенин В.А. Исаев И Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2-х ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. Ч.1
5. ОЛИЙ ТАЪЛИМ. Меъерий-хукукий ва услубий хужжатлар тўплами. –T.: “Истиклол” нашриёти бош тахририяти. 2004. -512 б.
6. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2006.
7. Abuzalova M., Toirova G. Malakaviy bitiruv ishi yozish uchun metodik ko‘rsatma va tavsiyalar (filologiya fakulteti talabalari va metodislari uchun mo‘ljallangan). – T.: “Fan” nashriyoti, 2007, - 28 b.
8. Kadirova R.M Bitiruv malakaviy ishini yozish metodikasi . O‘quv qo‘llanma T.: 2001 -112.b
9. Xodjayev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. - T.: TDPU, 2008. - 65 b.
10. Baybayeva M. X. Mustaqil ta’lim olish texnologiyasi va kasbiy yo‘nalganlik // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2005.

### Maxsus adabiyotlar

1. Futures for higher yeducation: analysing trends.HIGHER EDUCATION:meeting the challengesof the 21st century. www.universitiesuk.ac.uk - ISBN: 978-1-84036-268-8 Universities UK January 2012- 128 b.
2. R.P. Pathak. Methodology of Yeducational Research. USA-2008 Atlantic
3. O’Neill, G. (2015). Curriculum Design in Higher Education:Theory to Practice, Dublin: UCD Teaching & Learning. ISBN 9781905254989 //www.ucd.ie - 189 b.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
5. Qo‘ysinov O.A. va b. “Kasb ta’limi metodikasi” fanidan mustaqil ta’limni tashkil yetish. – T.: “Yusuf yangi nashr”, 2012. – 60 b.
6. Chicherina Y., Nurkeldiyeva D., Bondareva YE. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiyalar, 2013y
7. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Yeducation, publis’hed 2009by Routledge 270 Madison Ave, New York.
8. R.P. Pathak. Methodology of Yeducational Research. USA-2008 Atlantic

## **Internet resurslar**

1. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www.yedy.uz](http://www.yedy.uz)
3. Infokom . uz.yelektron jumali: [www.infocom . uz](http://www.infocom . uz)
4. [www.nuuz.uz](http://www.nuuz.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## Glossary

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Akmeologiya</b>	insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadigan fan tarmog'i	dynamics of development of human life and takomili various stages his strong ability to study problems of a difficult branch of science
<b>Amaliy mashg'ulotlar</b>	maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llanishi	specially yequipped room or special area of tests where scholars to put the theoretical knowledge into practice, directed to skills and training
<b>An'anaviy o'quv adabiyotlar</b>	adabiyotlar bilim oluvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, matn o'lchovlari, qog'oz sifati, muqova turi kabi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda qog'ozga chop etiladigan manbalar	recipients of age of knowledge, psychological and physiological features, the size of data, the text sizes, quality of paper, in view of indicators, such as type of a covering of paper of the publis'hed sources
<b>Auditoriya</b>	oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida dars o'tkaziladigan xona	the highest and middle classes of vocational education
<b>Axborot</b>	amalda qo'llaniladigan aniq xabar. Axborot kishilar orasidagi, odamlar va EHM orasidagi ma'lumot almashinish hodisasi	it is accurately put into practice. Information between these people and yexchange of information between the falling yexposition

<b>Axborot-ta'lim muhiti</b>	– ta'lim jarayonida yangi ma'lumotlarni olish imkonini beradigan o'quv vaziyati	the provision of yeducational process that allows to receive new school
<b>Axborot texnologiyasi</b>	axborotni hosil qilish, saqlash, kompyuter yordamida qayta ishlashni ifodalovchi faoliyat sohasi	data, storage, processing the computer which represents the field
<b>Aqliy hujum</b>	muammoni hal yetishga nisbatan intellektual yondashuv. Bunda muammoni hal yetishga oid shaxsiy farazlar ilgari suriladi	intellektual approach to the solution of this problem. At the same time, to solve a problem of separate hypotheses yearlier
<b>Baho</b>	ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining miqdoriy baholashda bal yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi	preparation of knowledge, skills and yexperience by means of number or the size of a quantitative assessment of conditional yexpression
<b>Baholash</b>	o'quvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash	the student or the student of knowledge, skills and yexperience to define a level of quality and personal
<b>Bilim</b>	o'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot	school students and students of the nature, society, achievements of science and technology. Theoretical information will be provided for pupils or students
<b>Bilish nazariyasi</b>	bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obektiv realikka munosabatini o'rganadi	the nobility governed also opportunities for studying of interrelation between knowledge of objective reality

<b>Boshqaruvchi pedagogik texnologiya</b>	nafaqat yaxlit pedagogik jarayonni, balki uning alohida qismlarini qamrab oluvchi, yuksak ijtimoiylashtirilgan shart-sharoitni ta'min yetuvchi texnologiyalardir, ularga tashxislovchi, monitoring, shuningdek, korreksiya qiluvchi texnologiyalar kiradi	not only in all yeducational process, but also the covering parts of technology which provide high sotsiality of a condition in diagnostics, monitoring, and also correction of technology
<b>“Bumerang” texnologiyasi</b>	o'quvchini mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonlarda turli o'quv adabiyotlari, muammoli tajriba bajarish mazmuni bilan tanishtirish, fikrni yerkin bayon etish hamda muayyan tajribani bajarish davomida uni baholashga qaratilgan texnologiya	In the course of training of the reader and yeducational literature and to present the maintenance of productivity of problem yexperience in the course of realization of freedom of yexpression, and
<b>Verbal muloqot shakllari</b>	Lectures, discussions, questions and answers, councils, discussions, discussions, messaGES, greyeting, forbid, a greyeting a response	Lectures, discussions, questions and answers, councils, discussions, discussions, messages, greetings, forbid, a greeting a response
<b>Gnostik ko'nikma</b>	bo'lajak mutaxassis shaxsini kasbiy faoliyatni ijodiy jihatdan amalga oshirishga yo'naltirilish, uning tadqiqotchilik xarakterini ifodalovchi ko'nikma	are concentrated on realization of the creative person of future yexpert of professional activity, his ability to represent the research nature
<b>Davlat ta'lim standarti (DTS)</b>	ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir	adequate yeducation level and preparation of the main requirements of a government complex by the size of working loading



<b>Dars</b>	1) uzluksiz ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limning asosiy shakli; 2) o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi	1) continuation of yeducational institutions will be the main form of yeducation; 2) studying by the main organizational form of the work performed in logical complete yeducational the part of process is limited for a certain period of time
<b>Dars turlari</b>	o'quv mashg'ulotini bir hutun yaxlit holda yoki muayyan bo'laklarga bo'lib baholash	complex academic preparation in general or separate parts of an assessment
<b>Darsni jihozlash</b>	qo'ildigan dars mavzusiga ko'ra o'quv-didaktik materiallar, qo'llanma, multimedia, o'quv vositalari kabilarni tanlash va tartibga keltirish	On a training subject in the curriculum and didactic materials, manuals, multimedia tutorials, such as selection and an arrangement
<b>Dastur</b>	o'quv faoliyatini amalga osbirish rejasi va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi meyoriy hujjat	activity and content of activity of normative documents
<b>Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi</b>	materialni (qismlarga bo'lib) qadam-baqadam, har bir qismning o'zlashtirilganligini nazorat qilgan holda o'rganish	materials (components) step by step, yeach part of development of technology of management
<b>Dasturli ta'lim</b>	tadrijiy ketma-ketlikda joylashgan sertarmoq o'quv materiali qismlaridan tashkil topgan o'rgatuvchi dasturlar yordamida o'qitish texnologiyasi	evolutionary sequence of sertarmoq yeducational technologies with use of an yequipment of training programs

<b>Diagnostika</b>	ta'lim jarayoni, o'qituvchi hamda o'quvchi faoliyatining muayyan qirrasini o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish	Educational process, teachers and students to check activity of certain yelements which will be carried out for the purpose of studying
<b>Didaktik material</b>	o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan maxsus o'quv materialllari	The yeducational and training materials directed to students
<b>Didaktik tizim</b>	ta'lim mazmuni, uni tashkil etishning shakl, metod, jarayonlari va o'qitish maqsadlaridan iborat tizim	content of training, form of the organization, methods, processes and purposes of system of training
<b>Didaktika</b>	1) pedagogikaning ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadigan tarmog'i; 2) ta'lim nazariyasi	1) business with the theory of pedagogics of an yeducational network; 2) Theory of yeducation Yechim
<b>Jarayon</b>	muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv harakatlar majmui	set of the actions which are carryed out for achियevement of certain results, training
<b>Joriy nazorat</b>	o'rganilayotgan mavzularni o'quvchi talabalar tomondan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jaryonida nazorat qilishdan iborat usuli.	research subjects students training of students how to put on a regular basis to make a method of management of process.

<b>Zamonaviy pedagog</b>	ta'lim oluvchining qanday o'qiyotganligi va rivojlanayotganligini to'liq tushunib, his qila oladigan, ya'ni uning hayotini o'z shaxsiy hayoti singari his qilib, o'quvchining ichki, ahloqiy-ma'naviy, umummadaniy o'sib rivojlanishiga, bolalar hamda kattalar hamjamiyatining mustahkamlanishiga ko'maklasha oladigan o'qituvchi	Development it is trained how to read and to fully understand that you can feel that his life to feel as in the private life, the student, moral, spiritual and umummadaniy development in children and adults who can help to strengthen community of teachers
<b>Individual o'qitish</b>	o'quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta'lim-tarbiya berish	the pupil of the personal focused yeducation and vocational training
<b>Innovatsion ta'lim</b>	1) ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni	1) yeducation in China, and news; 2) it is updated on the basis of new technologies of yeducational process
<b>Innovatsiya</b>	yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar	new concepts, procedures, technologies and innovations
<b>Ishlanma</b>	muayyan maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayomi yoki o'quv materialining loyihasi	purposeful yeducational or training materials for the project
<b>Kasbiy tayyorgarlik</b>	ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuimi bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon	Development of the concrete work or work necessary for yend of a set of skills which provides accelerated occupy yeducational process

<b>Kasbiy ta'lim</b>	muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	performance to this or that sphere of formation and development of yeducation
<b>Keys</b>	(Ingl. Case – hodisa, shart- a case	- Has put the
<b>Keys usuli</b>	o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usul	way to develop creative skills of students
<b>Keys texnologiyasi</b>	o'quvchilarning mustaqil qarorlar qabul qilishlari, muammoli savollarga to'g'ri va haqqoniy javoblar topishlariga qaratilgan, o'qituvchi kuzatuvchi (eshituvchi) vazifasini bajaradigan ta'lim texnologiyasi	students to make independent decisions, the problem to find the correct and truthful answers to questions of the observer, teachers (hearing) carries out a role of yeducational technologies
<b>Kompetensiya</b>	u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik	in this or that sphere of competence
<b>Kreativlik (ijodiylik)</b>	qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon	something new, something unique ability to create to create a form of art, thoughts, ideas and can lead to the solution of intellectual process
<b>Kuzatish metodi</b>	obektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni	objective things and yevents in systematic, continuous, yexact, full understanding of process
<b>Ko'nikma</b>	o'quvchi yoki talabaning o'zlashtirgan bilimlari asosida	student or knowledge of the student of development of

<b>Loyihalash metodi</b>	pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarini namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli	On the basis of the direction of pedagogics is pragmatism, practical training in students at design and performance of the pupils, providing knowledge and skills of training
<b>Malaka</b>	o'quvchi yoki talabada muayyan o'quv materiali va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahorat	pupils or students in a certain training material and a profession as a result of development of the automated skills
<b>Ma'ruza</b>	o'quv materialiga oid biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli, og'zaki bayoni	training materials on a subject, scientific, political subjects in a consecutive manner, the verbal description
<b>Metod</b>	ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui	Practical and theoretical knowledge in yeducational process, development, teaching, training, service instructions, a set of methods
<b>Metodologiya</b>	tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig'indisi	scientific work of the theoretical and practical pedagogical principles, is legal, theoretical and philosophical approaches, laws and the sum of views
<b>Milliy model</b>	"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning o'zagini tashkil etuvchi yaxlit tizim	"The program of training at the national level" make a basis of all system

<b>Modul</b>	o'quv axborotining mantiqiy bo'lakka bo'lingan qismi, ushbu qism mantiqan yaxlit va tugallangan bo'lib, uning o'zlashtirilishini nazorat qilish mumkin bo'ladi	educational information is divided into logical segments and has been finished by an integral part of logic of this part, you will have an opportunity to control his payments
<b>Modulli ta'lim</b>	modullashtirilgan o'quv dasturi asosida tashkillashtiriladigan o'qitish jarayoni	Process of training is organized on the basis of the training program of modull
<b>Mnammoli vaziyat</b>	individ yoki guruh faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi holat	strong influence on work of the individual or group status
<b>Mustaqil ta'lim</b>	insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni	the person has chosen tools and publications on yexperience of generations, yefforts have been concentrated on studying of achievements of science and technology
<b>Nazorat</b>	o'qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta'lim oluvchilarning hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni bilim, ko'nikma,	malakalari Results of quality control at all stages of yeducation, training, recipients of knowledge, abilities, skills and definition of their personality
<b>Oliy ta'lim</b>	turli oliy maktablarda yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash	various higher yeducatio institutions, universities training of yexperts
<b>Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti</b>	oliy ta'limning davlat tomonidan tasdiqlangan modeli, etaloni, namunasi hamda ta'lim mazmunining maksimum darajasi va unga qo'yilgan minimum talablar	The standard model is approved by the state of higher yeducation, design the maintenance of leve preparation of requirem to maximum and minim

<b>Pedagogik jarayon</b>	aniq maqsadga yo'naltirilgan, mazmunan boy, tarkibi jihatidan qat'iy shakllangan o'quv vaziyatida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik	target, substantial, from the point of view of structure of an event it was strongly approved yeducational interaction between teachers and students
<b>Pedagogik loyihalash</b>	pedagogik jarayonning yaxlit mazmuni va uning tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich muayyan uzviylikda rejalashtirish	the content of teaching and yeducational process is his integral component step by step of planning of box
<b>Pedagogik tizim</b>	ma'lum pedagogik konsepsiya, nazariya va yondashuvlarning mualliflar tomonidan pedagogik amaliyotga joriy etishdagi izchillik; 2) o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisi	1) concrete yeducational concepts, theories and approaches to gradual introduction of student teaching by authors; 2) influence the identity of the reader of the pedagogical principle, the yengine has a set of methods and receptions
<b>Predmet</b>	inson faoliyati va bilishi jarayonida obektiv borliqdan alohida ajratib olingan yaxlit hodisa yoki tushuncha	activity of the person and knowledge in the course of objective things, other than the concept of one yevent or
<b>Ta'lim vositasi</b>	muayyan o'qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari	concrete method of training or methods necessary for successful use of auxiliary materials
<b>Ta'lim</b>	mazmuni o'quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi	The student's objective, scientific facts, concepts, laws, theories directed to their acquaimtance with information system
<b>Ta'lim tizimi</b>	turli daraja va yo'nalishdagi	various degrees and

	o'zaro aloqador uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim	mutual connected with continuation of yeducational programs and the state yeducational standards, irrespective of their legal forms of yeducational institutions in all sectors, with yeducational bodies and institutions and the organizations within the general system
<b>Ta'limning sinf-dars tizimi</b>	maktabda o'quv jarayonini tashkil etish tizimi. Unda o'quvchilar yosh hususiyatlari va o'qish muddatlariga ko'ra muayan sinflarga ajratilib, ta'lim o'quv rejasi va dasturiga muvofiq, asosan, dars shaklida olib boriladi	The organization of yeducational process in system of school yeducation. According to conditions of students of skills of reading and some numbers have been selected according to the curriculum and the program, is carried out generally in the form of a
<b>Tizim</b>	1) tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa; 2) tartibga solingan tushunchalar yig'indisi.	1) Change are interconnected and influence yeducational action; 2) sum of Hindu concepts
<b>Topshiriq</b>	o'quvchilarni ijobiy xatti-harakatga yo'naltiruvchi ta'lim-tarbiya metodi	Method of training of children positive relation to training
<b>Tushuncha</b>	narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari mazmun-mohiyati va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli	Key features of things and yevents which capture the yessence of the relations and the relation between thought and a form



<b>Uzluksiz ta'lim</b>	o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi	Depending on complexity of a link on the basis of logical sequence and simplicity and the necessary steps leading to development of all yeduction system
<b>O'zlashtirish</b>	o'quv dasturiga muvofiq ta'lim mazmunining o'zlashtirilganlik	have learned in the program of training according to the
<b>O'quv dasturi</b>	o'quv fani mazmunining qisqacha izohi	S'hort description of maintenance of a training course
<b>O'quv predmeti</b>	u yoki bu fanning asosiy mazmunida ifodalangan didaktik asoslangan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi	or that the science is based on didactic the maintenance of basic knowledge, skills and qualification of system

---

Adadi 50 nusxa. Hajmi 6,75 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.  
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.  
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.